



MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS

COLLECTION OF SCIENTIFIC WORKS
OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE

**Issue 4(38)
Part 1**

**Warsaw
2021**



MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS

ISSUE 4(38)
Part 1

May 2021

Collection of Scientific Works

WARSAW, POLAND
Wydawnictwo Naukowe "iScience"
7-9 May 2021

ISBN 978-83-949403-3-1

MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS: a collection scientific works of the International scientific conference (7-9 May, 2021) - Warsaw: Sp. z o. o. "iScience", 2021. Part 1 - 137 p.

Editorial board:

Bakhtiyor Amonov, Doctor of Political Sciences, Associate Professor of Tashkent University of Information Technologies

Baxitjan Uzakbaevich Aytjanov, Doctor of Agricultural Sciences, Senior Scientific Researcher

Bugajewski K. A., doktor nauk medycznych, profesor nadzwyczajny Czarnomorski Państwowy Uniwersytet imienia Piotra Mohyły

Yesbosi'n Polatovich Sadi'kov, Doctor of Philosophy (PhD) Agriculture, Nukus branch Tashkent state agrarian university

Tahirjon Z. Sultanov, Doctor of Technical Sciences, docent

Shavkat J. Imomov, Doctor of Technical Sciences, professor

Sayipzhan Bakizhanovich Tilabaev, Candidate of Historical Sciences, Associate Professor. Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

Marina Berdina, PhD

Hurshida Ustadjalilova, PhD

Dilnoza Kamalova, PhD (arch) Associate Professor, Samarkand State Institute of Architecture and Civil Engineering

Juraeva Sarvinov Boboqulovna, Associate Professor of Philological Science, head of chair of culturology of Khujand State University named after academician B. Gafurov (Tajikistan)

Oleh Vodianyi, PhD

Languages of publication: українська, русский, english, polski, беларуская, казакша, o'zbek, limba română, кыргыз тили, Հայերեն

The compilation consists of scientific researches of scientists, post-graduate students and students who participated International Scientific Conference "MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS". Which took place in Warsaw on 7-9 May, 2021.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees.

The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.

ISBN 978-83-949403-3-1

© Sp. z o. o. "iScience", 2021

© Authors, 2021

TABLE OF CONTENTS

SECTION: PSYCHOLOGY

Ishonqulova Gulzoda Baxromovna (Qarshi, O'zbekiston) OILADA FARZANDLARGA AYTIB BO'LMAYDIGAN SO'ZLARNING PSIXOLOGIK ASORATI	6
Urinova Latofat Shovkatovna (Qarshi, O'zbekiston) DIQQAT VA UNING NAZARIY TAHLILI	9
Аллахвердиева Фуада (Нахчыван, Азербайджан) ВЛИЯНИЕ ИКТ НА ПСИХОЛОГИЮ МОЛОДЕЖИ (СОЦИАЛЬНО- ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АСПЕКТ)	14
Ахрарходжаева Дилфуза (Ташкент, Узбекистан) ОСОБЕННОСТИ МЕЖЛИЧНОСТНОГО ОБЩЕНИЯ СО СВЕРСТНИКАМИ И ВЗРОСЛЫМИ У ДЕТЕЙ С ЗАИКАНИЕМ.....	20
Эгамбердиев Фарход Тухтаевич (Карши, Узбекистан) ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ СПЕЦИФИКА ПРОЯВЛЕНИЯ ВОЛЕВЫХ КАЧЕСТВ В СПОРТЕ	24
Махмудова Хулкар Тилабовна, Сулаймонова Х. (Тошкент, Ўзбекистон) ЗЎРЛАБ НОМУСГА ТЕГИШДАН ЖАБРЛАНГАН ВОЯГА ЕТМАГАНЛАРНИ ЎРГАНИШДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЁНДАШУВ	28
Тоختиярова Ш.Э., Махамадиева Ю.Р. (Тошкент, Ўзбекистон) АЛАЛИЯГА ЭГА БОЛАЛАР НУТҚИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ.....	35

SECTION: PEDAGOGY

Botashev Innatullo Qo'ng'irovich (Qarshi, O'zbekiston) MAKTABDA IQTIDORLI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH METODIKASI	40
Djo'rayeva Zulayxo Xo'jamovna (Qarshi, O'zbekiston) MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA ILK MATEMATIK TASAVVURLARINI RIVOJLANTIRISHNI «ILK QADAM» TAYANCH DASTURI ASOSIDA AMALGA OSHIRISH.....	44
Eshonqulova Sarvinoz Yunusovna (Toshkent, O'zbekiston) O'QUVCHIM KEIAJAGI UCHUN	48
Olimova Dono Shakirovna, Eshchanova Gulmira Komiljanovna (Urgench, Uzbekistan) PSYCHOLOGY OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES.....	52
Qurbanova Nilufar Ravshanbekovna, Matvafayeva Shaira Nurillayevna (Urganch, O'zbekistan) DARSLARNI AKT VA DASTURIY VOSITALAR BILAN TASHKIL QILISHNING IJOBIY JIHATLARI	55
Rakhmatova Dilnavoz Azam qizi (Tashkent, Uzbekistan) TECHNOLOGIES TO ELIMINATE STAMMER IN LOGOPEDIC CONDITIONS	58

Shukurova Dilfuza Raupovna (Qarshi, O'zbekiston) MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA EKOLOGIK TA'LIMNING AHAMIYATI.....	63
Tajibaeva Akmaral Rahmetulla qizi (Nukus, O'zbekiston) BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING MA'NAVYI TARBIYASIDA OILANING O'RNI	66
To'lqinboyeva MahliyoXon (Fergana, Uzbekistan) YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK AHAMIYATI	68
Valixanova N.A. (Andijon, Uzbekistan) KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH	71
Xudayberganov Shuhrat Shavkat o'g'li, Abdullayeva Rayxon Atanazarovna (Urganch, O'zbekistan) YOSH AVLOD TAFAKKURINI SOG'LOMLASHTIRISH KELGUSI JAMIYATNING SOG'LOMLIGINI TA'MINLOVCHI OMIL SIFATIDA.....	76
Yusupova Shaxnoza Abduxafizovna (Samarqand, O'zbekiston) O'ZBEKISTONDA ZAMONAVIY MASOFAVIY TA'LIM VA UNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	80
Абдуганиева Ш.М., Азимова Ф.С. (Ташкент, Узбекистан) ПОВЫШЕНИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО И ДУХОВНОГО ПОТЕНЦИАЛА МОЛОДЁЖИ – ОСНОВА ВЫСОКИХ РЕЗУЛЬТАТОВ	83
Абдуллаев Собиржон Сохиб ўғли (Фергана, Узбекистан) ТАЛАБАЛАРДА ИЖТИМОЙ ДАХЛДОРЛИК ФАЗИЛАТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИЖТИМОЙ-ПЕДАГОГИК ЗАРУРИЯТ СИФАТИДА.....	88
Атаханова Феруза Зоҳировна (Тошкент, Ўзбекистон) ОЛИЙ ТАЪЛИМ СТАНДАРТЛАРИНИНГ ЯНГИ АВЛОДИ ТАЪЛИМ ВА ФАН РИВОЖЛАНИШИНИНГ БАРҚАРОРЛИГИ ЙЎЛИДА	93
Ахмедова Наргиза Алимджановна (Ташкент, Узбекистан) ЎЗБЕКISTON ЗАМОНАВИЙ ИЖОДИДА “ТОМОША” БОЛАЛАР МУСИҚИЙ ТЕАТР-СТУДИЯСИНИНГ ЎРНИ.....	97
Жураева Саломат Исокуловна (Пахтаабad, Узбекистан) ИГРОВАЯ РАБОТА ПО РАЗВИТИЮ РЕЧИ ДЕТЕЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА.....	102
Исамова Покиза Шамсиевна (Ташкент, Узбекистан) ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ДИАГНОСТИКА В ВУЗЕ	106
Йўлдошев Жаҳонгир Тилакмуродович (Қарши, Ўзбекистон) МАТЕМАТИКА ДАРСЛАРИДА МОДУЛЛИ ТЕХНОЛОГИЯНИНГ АҲАМИЯТИ	109
Кутлиева Мухайё Гуломовна, Адхамова Одинахон Икромжон кизи (Бухара, Узбекистан) ПРИМЕНЕНИЕ НОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ИЗУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ.....	113

Норова Мехри Бахтиеровна, Асроров Хайдарали Юнусович (Бухара, Узбекистан) ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА.....	115
Тлеужанова Г.К., Палина А.А. (Караганда, Казахстан) К ВОПРОСУ КРИЗИСА ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ	119
Туйчиева Иноятхон Ибрагимовна, Абдуллаев Азизбек Абдуқаххорович (Фергана, Узбекистан) ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ЖАРАЁНИДА ЗАМОНАВИЙ АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ВОСИТАЛАРИНИ Қўллаш Оққали МЕДИАТАЪЛИМНИ РИВОЖЛАНТИРИШ	123
Шарипова Ш. С. (Ташкент, Узбекистан) ТАРБИЯЧИНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИ ВА УНИНГ ЖАМИЯТДАГИ РОЛИ	127
Эшмуратов Умиджон Темурович (Термез, Узбекистан) ОТЗЫВ, СВЯЗАННЫЙ С ИСПРАВЛЕНИЕМ ОШИБОК В ЗАДАЧАХ.....	133

SECTION: PSYCHOLOGY

**Ishonqulova Gulzoda Baxromovna
(Qarshi, O'zbekiston)**

OILADA FARZANDLARGA AYTIB BO'LMAYDIGAN SO'ZLARNING PSIXOLOGIK ASORATI

Har bir ota-ona farzandi sog'lom va baxtli bo'lib katta bo'lishini istaydi. Shunga qaramay, ba'zi ota-onalar o'zi bilmagan holda bunga to'sqinlik qiladi. Mazkur maqolada farzand hayotiga zarar keltirishi mumkin bo'lgan, ota-onalar tomonidan aytiladigan fikrlarni taqdim etamiz.

Farzandlarga vaziyat taqozo qilganida aytish kerak bo'lgan gaplar mavjud. Misol uchun, maqtash, achinish, qo'llab-quvvatlashga oid bo'lgan iboralar. Aksincha foydalanganda ehtiyotkorlikni talab etadigan so'z birikmalari bor. Yana bir turdagi iboralar bor-ki, ularni farzandlar oldida umuman aytmaslik maqsadga muvofiqdir.

1. Ahmoqona gaplarni gapirma! Sinonimi: "Bekorchi gaplarni gapirma".

Nima uchun mumkin emas? Bolalar kattalardan farqli ravishda "bekorchi" gaplarni hech qachon gapirishmaydi. Kichkina odam bizga ma'lum qilishga qaror qilgan har bir ma'lumot u qanchalik kulgili va aqlga sig'mas ko'rinishiga qaramay, bolakay uchun muhim sanaladi. Bu ibora bilan siz farzandingizga uning so'zlari u qadar muhim emasligini namoyish etasiz. Keyinchalik, uning sizdan yashiradigan sirlari erta paydo bo'lganiga ajablanmang.

Buning o'rniga nima deyishimiz mumkin? Bolaning so'zini bo'lishdan avval, uni diqqat bilan tinglash kerak. Agar bolakay sizga o'zining yangi kashfiyoti haqida gapirib bersa, u bilan birga quvoning, muammosidan so'z ochsa, birgalikda echim topishga harakat qiling.

2. Mana ol, lekin ket. Sinonimlari: "Mana ushla va meni tinch qo'y", "Ol va meni boshqa bezovta qilma".

Nima uchun mumkin emas? Bu bolaning talablariga rozi bo'lishning eng yomon usuli. Sizni tinch qo'yishi uchun biror narsa berishingizdan tashqari, u evaziga hayotingizdan ketishi kerak. Bolalar mana shu yo'l bilan o'zi istagan narsasiga erishishni o'rganib oladi. Ota-onalar esa keyin hayron bo'ladilar: begonalik hissi bolada qaerdan paydo bo'ldi?

Buning o'rniga nima deyishimiz mumkin? Hech kim farzandiga doimiy ravishda yo'q deya olmaydi, bu talab ham etilmaydi. Faqat "Meni tinch qo'y" so'zidan voz kechsangiz ancha yaxshi bo'ladi.

3. Sening qo'lingdan kelmaydi, kel buni yaxshisi men bajaraman. Sinonimlari: "Sening qo'lingdan kelmaydi", "Tinch qo'y, bari bir bajara olmasan".

Nima uchun mumkin emas? Sinab ko'rish imkoniyati huquqidan mahrum etib, siz bolaga qo'lidan kelmaslik hissini singdirasiz va uni muvaffaqiyatsizlik sari etaklaysiz. Psixologiyada mazkur holatning natijasi "o'rganib qolingan yordamga muhtojlik" deb ataladi-inson mazkur holatda oldindan, hali hech nimaga qo'l urmay turib, hech nimani o'zgartira olmasligini biladi.

Buning o'rniga nima qilish mumkin? Agar farzandingiz qo'lidan kelmaydigan ishni amalga oshirmoqchi ekanligini ko'rsangiz, yaxshi unga "Kel senga yordam beray" deganingiz

maqul. Yoki unga sizga yordam berishiga ruxsat bering. Agar bu imkonsiz bo'lsa, misol uchun farzandingiz elektr simini tuzatmoqchi bo'lsa, bu u uchun xavfli ekanini tushuntiring.

4. Boshqa bolalar bajara oladi, sen esa eplay olmaysan. Sinonimlari: "bajara oladi" so'zining o'rnida ko'plab variantlar bo'lishi mumkin (quloq solishadi, yaxshi o'qiydilar, bilishadi, nimagadir erishishgan).

Nima uchun mumkin emas? Bolani o'zgalarga qaraganda yomon deya his etishga majbur etib, unda to'la qimmatga ega emaslik hissini shakllantirasiz. Ba'zilar aynan shu yo'l bilan bolada yaxshiroq bo'lishga sabab paydo bo'ladi, deya fikrlashadi. Biroq kattalar bilan ham mazkur usul har doim ham natija beravermaydi. Bolaga kelsak-bu juda yomon holatlarga olib kelishi mumkin.

Buning o'rniga nima deyish mumkin? Zigmund Freydg tomonidan aytilgan fikr mavjud: "O'zingizni taqqoslashingiz mumkin bo'lgan yagona odam bu o'tmishdagi o'zingizdir". Mazkur prinsippga ko'ra ish ko'rish oqilona yo'l hisoblanadi.

5. Seni ko'rmasam edi. Sinonimlari: "Ko'zimdan yo'qol", "Seni ko'rgim kelmayapti".

Nima uchun mumkin emas? Mazkur so'zlar bolaga uning o'zi ham, uning muammolari ham ota-onasiga kerak emasligi haqida xabar beradi. Ba'zida ota-onalar shu yo'l bilan sodir bo'lishi mumkin bo'lgan mojaroning oldini olmoqchi bo'ladilar, biroq muammodan qochish uni hal etishni anglatmaydi, aksincha u yanada chuqurlashadi.

Buning o'rniga nima deyish mumkin? Farzandlarni tinglash, ularga yordam berish lozim. Mojaroli vaziyatlar sodir bo'lib turishi tabiiy hol, bunday vaziyatlarda o'zgacha usullarni qo'llash lozim.

6. Haqoratli so'zlar. Sinonimlari: ularni hamma biladi

Nima uchun mumkin emas? Nutqda haqoratli so'zlarning zarurligi, mumkinligi haqidagi bahsni boshlamaymiz. Buning o'rniga nima deyish mumkin? Mazkur so'zlarni 99 foiz holatda haqoratli bo'lmagan so'zlarga almashtirish yoki umuman nutqdan chiqarib tashlash mumkin.

7. Agar sen bo'lmaganingda... Sinonimlari: "Seni nimaga ham dunyoga keltirdim", "Abort qilganimda yaxshiroq bo'lardi".

Nima uchun mumkin emas? Bunday iboralar bolada aybdorlik hissini uyg'otadi. U o'zining mavjudligi bilan ota-onasiga og'riq, yomonlik olib kelayotganligi hissini o'zlashtiradi. Bu esa bola psixikasi uchun ongini zararlantiruvchi holatdir.

Buning o'rniga nima deyish mumkin? Bunday o'ylar-o'zingizni anglab olish uchun sabab hisoblanadi. Siz farzandingizni shaxsiy muvaffaqiyatsizlik va omadsizligingizda ayblayapsiz. Bu haqda yaxshilab o'ylab ko'ring.

8. Sen yomonsan! Sinonimlari: "Vahshiysan", "Ahmoqsan", "Quloqsizsan".

Nima uchun mumkin emas? Bolalar o'z ota-onalari tomonidan berilgan baholarga juda ishonadilar. Bunday tavsifnomalar berganingizda farzandingiz uni o'zlashtirib, aynan shunday bo'lishga harakat qilishiga tayyor bo'ling. Bu esa kelajakda o'ziga past baho berish va ulkan muammolarni anglatadi.

Buning o'rniga nima deyish mumkin? "Sen yomonsan" deyish o'rniga "sen yomon ish qilding". "Sen ahmoqsan" emas, "bu noto'g'ri qaror". Bolani emas, uning harakatlarini baholaganingizda uni yaxshiroq bo'lish uchun ruhlantirasiz.

9. Men seni yaxshi ko'rmayman! Sinonimlari: "Agar sen u yoki bu narsani qilsang, yoki qilmasang, u holda men seni yaxshi ko'rmayman".

Nima uchun mumkin emas? Ota-onaning muxabbati hech qanday shartlarsiz bo'lishi lozim. Undan ayrilib qolish tahdidi hayotga bo'lgan tahdid bilan teng. Oxir-oqibat, siz haqiqatan ham farzandingizni yaxshi ko'rmaysizmi? U holda bu darajada qo'rqinchli yolg'onni unga aytishning nima keragi bor?

Buning o'rniga nima deyish mumkin? Keyingi bandga tegishli bo'lgan fikrlarni aytish mumkin.

10. Men seni tashlab ketaman. Sinonimlari: "Mana shu erda qoldirib ketaman", "Anavi amakiga berib yuboraman".

Nima uchun mumkin emas? Ota-ona farzand uchun eng muhim insonlardir. Uning hayoti aynan ularga bog'liq, farzand onasiz mavjud bo'lishni xayoliga ham keltira olmaydi. Shuning uchun, bunday iboralar shu darajada samarali-ki, faqatgina dastlabki vaqtlarda. Be'mani tahdidlarni bola tezlik bilan qabul qilmay qo'yadi. Biroq nevroz shakllanib ulgurishi uchun vaqt bimalol etarli bo'ladi.

Buning o'rniga nima deyish mumkin? Istagan gapingizni aytishingiz mumkin. Jismoniy jazo bilan tahdid qilish odatda bolani tashlab ketish, yaxshi ko'rmay qo'yish bilan qo'rqitishning oldida u qadar qo'rqinchli usul bo'lmay qoladi. Yaxshisi bola bilan qo'rquv va jazoga asoslanmagan munosabatlarni o'rnatish lozim. Bu oson emas, biroq natija bunga arziydi.

Xulosa qilib aytganda so'zlarning o'zigina emas, ota-onalarning mazkur so'z ortida turuvchi munosabatlari muhim sanaladi. Ota-onaning xulq-atvori esa bundan ham muhimroqdir. Shuning uchun nafaqat yomon so'zlar, balki yomon odat va ishlardan ham voz kechish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Soatov. A.J. Bo'lajak pedagog-psixologlarda psixologik maslahat berish ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi. 2020.
2. www.xabardor.uz

Urinova Latofat Shovkatovna
(Qarshi, O'zbekiston)

DIQQAT VA UNING NAZARIY TAHLILI

Diqqat deb, ongni bir nuqtaga to'plab, muayyan bir ob'jektga faol qaratilishini aytamiz. Biz o'z faoliyatimiz jarayonida idrok va tasavvur qiladigan har bir narsa, har bir hodisa, o'zimizning qilgan ishlarimiz, o'y va fikrlarimiz diqqatning ob'ekti bo'la oladi.

Diqqat – idrok, xotira, xayol, tafakkur va nutq singari alohida psixik jarayon emas. Diqqat hamma psixik jarayonlarda ko'rinadi. Biz “shunchaki” diqqatli bo'la olmaymiz, balki biz diqqat bilan idrok qilamiz (qaraymiz, eshitamiz), diqqat bilan esda olib qolamiz, o'ylaymiz, diqqat bilan muhokama yuritamiz, gaplahamiz. Diqqat aqliy jarayonlarning sifatini ta'minlaydigan ichki faollikdir. Diqqat har qanday faoliyatning zaruriy shartidir.

Nyutonga “Siz butun dunyo tortilish qonunini ochishga nima tufayli muyassar bo'ldingiz” deb bergan savolga: “Fikri-zikrim doimo shu masalaga qaratilganligidan muyassar bo'ldim”, deb javob bergan.

Keng tarqalgan afsonaga ko'ra, kimyoviy elementlarning davriy jadvalini yaratish haqidagi g'oya Mendeleyevga tush vaqtida kelgan ekan. Bir kuni undan bu haqida so'rashganida, u shunday javob qaytargan ekan: «Men u haqida 20 yil o'ylangan bo'lishim mumkin, siz esa shunchaki, u ozroq o'tirgan va to'satdan... barchasi tayyor bo'lgan, qolgan», deb o'ylaysiz.

Albatta, diqqatga bunday baho berish uning ahamiyatini haddan tashqari oshirib ko'rsatishdir. Lekin bu baho diqqatning inson faoliyatining barcha turlari uchun ahamiyati katta ekanligini ko'rsatib beradi.

Diqqat o'qish ishining ham zaruriy shartidir. O'quvchilarning dars materiallarini muvaffaqiyat bilan o'zlashtirishlari, diqqatning mavjudligiga bog'liq. K.D. Ushinskiyning aytishicha: “Diqqat ruhiy hayotimizning shunday yagona bir eshigidirki, ongimizga kirib keladigan ma'lumotlarning barchasi shu eshik orqali o'tib kiradi”.

Ayrim o'quvchilarda uchraydigan o'zlashtira olmaslik holatining sababini, avvalo, ular diqqatining yetarli emasligidan qidirish kerak. Xotiraning bo'shligi, o'quv materiallarini o'zlashtirishning bo'shligi, asosan, diqqatning bo'shligidan kelib chiqadi. Shuning uchun ham pedagoglar o'qitish ishida yuqori natijalarga erishishlari uchun o'quvchilar diqqatini, xususan, eng barqaror va eng kuchli diqqatni rivojlantirish hamda tarbiyalash haqida jon kuydirishlari lozim.

Diqqatning turlari. Diqqat o'zining faolligiga ko'ra ixtiyorsiz, ixtiyoriy va ixtiyoriydan keying turlarga

Biron tashqi sabab bilan va bizning xohishimizdan tashqari hosil bo'ladigan diqqat **ixtiyorsiz diqqat** deyiladi. Ixtiyoriy diqqat kuch va zo'r berishni talab qilgani uchun irodaviy deqqat deb ham ataladi. Ixtiyoriy diqqatning kuchi qiyinchiliklarni yengish bilan bog'liq bo'lgan irodaviy zo'r berish darajasi bilan xarakterlanadi.

Diqqatimiz qaratilishi lozim bo'lgan narsani oldindan belgilab olib, ongli ravishda qo'yilgan maqsad bilan ishga solingan diqqat **ixtiyoriy diqqat** deyiladi.

Ixtiyoriydan keyingi diqqat-diqqatning muayyan ob'ektga avvalo ixtiyoriy ravishda qaratilib, so'ngra uning ahamiyati tushunilgan sari o'z-o'zidan qaratilib boriladigan (avtomatlashgan yoki muvofiqlashgan) diqqat turi. Ushbu tushuncha psixologiya faniga N. F. Dobrinin tomonidan kiritilgan.

Diqqat yo'nalishiga ko'ra ichki va tashqi turlarga bo'linadi. Manbai bizning ongimizdan tashqarida bo'lgan diqqatga tashqi diqqat deyiladi. O'quvchining o'qituvchi bayonini tinglashdagi, kitob o'qishdagi, suratlarni ko'rishdagi va tabiat hodisalarini kuzatishdagi diqqat tashqi diqqatdir. Narsa va hodisalarni qaysi sezgi a'zolarimiz bilan idrok qilayotganimizga qarab, tashqi diqqatni ko'rish, eshitish, tuyish, hid bilish va ta'm bilish turlariga ajratish mumkin.

Manbai bizning tasavvurlarimiz, fikrlarimiz, hissiyotlarimiz va mayllarimizdan iborat bo'lgan diqqat ichki diqqat deb ataladi. Biz o'z fikrlarimizni kuzatayotganimizda, bu fikrlarimizni tekshirayotganimizda, pushaymon qilish hissini boshimizdan kechirayotganimizda, o'z-o'zimizni tanqid qilayotganimizda va o'z istaklarimizni mulohaza qilayotganimizda ichki diqqat namoyon bo'ladi. Ichki diqqat odamning o'z-o'zini tarbiyalashi bilan uzviy bog'liqdir. Ichki diqqat o'z-o'zini tarbiyalashning tarkibiy qismlaridan bir bo'lib ko'proq ixtiyoriy bo'ladi.

Diqqatning xususiyatlari

Diqqatning asosiy xususiyatlariga uning ko'chuvchanligi, bo'linishi, ko'lami, kuchi va barqarorligi kiradi. Bu xususiyatlarning rivojlanganligiga qarab, faoliyat jarayonida kishilar diqqatining ma'lum bir ijobiy yoki salbiy sifatlari farqlanadi.

Diqqatning ko'chuvchanligi. Diqqatning ko'chishi deganda uning bir faoliyat turidan boshqa bir faoliyat turiga o'tishini tushunamiz. Masalan, o'quvchilar diqqatni bir darsdan ikkinchi darsga yoki bir fanni o'qishdan boshqa bir fanga ko'chiradilar. Bu jarayon ixtiyorsiz va ixtiyoriy tarzda amalga oshishi mumkin.

Diqqatning ko'chirilishi ko'p hollarda qiyinchiliklar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Masalan, ba'zida diqqatni bundan oldingi ob'ektdan ajratish qiyin bo'lsa, boshqa hollarda oldingi ishning ketidan qilinadigan yangi ishga kirishib ketish qiyin bo'ladi. Diqqatni ko'chirishning yengilligi yoki qiyinligi turli sabablarga bog'liq. Bulardan biri ketma-ket qilinadigan ish mazmunlari o'rtasida bog'liqlik bor yoki yo'qligidadir. Agarda bunday bog'liqlik yo'q bo'lsa, diqqat tez va yengillik bilan ko'chishi mumkin. Diqqatni ko'chirishning qiyinlik yoki yengillik sabablaridan yana biri diqqat qaratilgan narsalarga va bajarilayotgan ishlarga nisbatan kishining munosabatidadir. Masalan, agar kishi ilgari qilgan ishga zo'r qiziqish bilan qarab, undan keying qilinayotgan ishga aytarli qiziqmasa, bunday paytda ilgari ishdan diqqatni ko'chirish qiyin bo'ladi va sekinlik bilan amalga oshiriladi. Aksincha, agar keyingi qilinadigan ish oldingisiga qaraganda qiziqarli va yoqimliroq bo'lsa, diqqat tez va osonlik bilan ko'chadi. Agar qilinayotgan ish to'la tugallansa, u paytda kishi o'z diqqatini bir faoliyatdan ikkinchisiga yengillik bilan ko'chira oladi. Aksincha, agar oldingi ishini oxirigacha yetkizmay turib, qandaydir sababga ko'ra, diqqatni yangi bir faoliyatga ko'chirish lozim bo'lib qolsa, bu narsa ancha qiyin bo'ladi.

Eng yaxshi diqqat albatta, bir faoliyat turidan ikkinchi faoliyatga tez ko'cha oladigan diqqatdir. Diqqatning shu xususiyati tufayli kishi atrof muhitga tez moslasha oladi. Diqqatning ko'chuvchanligi kishining ishini ham tezlashtiradi. Diqqatning tez ko'chuvchanligi, uning boshqa sifatlari kabi kishining amaliy faoliyati jarayonida taraqqiy etib boradi.

Diqqatning bo'linishi. Ma'lum faoliyat jarayonida diqqat birgina narsaga yoki ikki va uch narsaga ham qaratilishi mumkin. Faqat birgina narsaga qaratilgan diqqat konsentratsiyalashgan (yig'ilgan yoki to'plangan) diqqat deyiladi. Masalan, ignaga ip o'tkazishdagi, matematik masala yechishdagi, ma'ruza eshitishdagi diqqat shunday diqqatdir. Agarda diqqat faqat bir murakkab ish jarayonining o'zida ikki yoki uch narsaga qaratilgan va faoliyatning turli usullari bilan bog'liq bo'lsa, bunday diqqat bo'lingan yoki taqsimlangan diqqat deyiladi. Masalan, haydovchi o'z ishi davomida diqqatini ayni bir vaqtda piyoda yuruvchilar, boshqa avtomobillar harakatini hamda shuning bilan birga, motorning ishlashini kuzatib boradigan qilib taqsimlashi lozim. O'qituvchi darsni tushuntirish paytida o'z diqqatini o'quvchilar xulqiga, ko'rgazma qurollarni ko'rsatishga, sinf doskasiga va shu kabilarga taqsimlashi lozim. Bo'lingan diqqat bu diqqatning bir narsadan ikkinchi narsaga juda tezlik bilan k'chishidir.

Inson diqqatining ijobiy xususiyati o'z diqqatini bir narsa ustida to'play olish va faoliyat xarakteriga qarab, uni tegishli ravishda bo'la olishidadir. Ayrim kishilarda konsentratsiyalashgan diqqat taraqqiy qilgan bo'lsa, boshqa kishilarda bo'lingan diqqat taraqqiy qilgan bo'ladi. Kishilar diqqatidagi bu farq ularning qiladigan ishi va kasbiga qarab, amaliy ish jarayonida hosil bo'ladi.

Diqqatning ko'lami. Diqqatning ko'lami – diqqatga qisqa vaqt ichida sig'ishi mumkin bo'lgan narsalar soni bilan belgilanadi. Diqqat ko'lami jihatdan tor yoki keng bo'lishi mumkin.

Tajriba qilib tekshirishda diqqatning ko'lami, odatda, tekshirilayotgan odamga ayni bir vaqtning o'zida bir qancha o'zaro bog'lanmagan harflarni, so'zlarni, narsalarni va turli shakllarni ko'rsatish yo'li bilan aniqlanadi. Tekshirilayotgan kishi bu narsalardan ayni vaqtda qanchalik ko'pini birdaniga idrok eta olsa (diqqat doirasiga sig'dira olsa), uning diqqat doirasi shunchalik keng bo'ladi.

Diqqat ko'laminin kengligi aniq idrok etish bilan birga qo'shilgan taqdirdagina yaxshi sifatlaridan hisoblanadi. Diqqat ko'laining keng bo'lishi, masalan, sinfda mashg'ulotlar o'tkazilayotgan paytda o'qituvchi uchun zarurdir. O'qituvchi sinfda o'tirgan barcha o'quvchilarga nazar solib turishi lozim.

Diqqatning kuchu. Diqqat kuchli va kuchsiz bo'lishi mumkin. Diqqat qanchalik kuchli bo'lsa, u diqqat ob'ektiga shunchalik ko'p to'planadi. Boshqa keraksiz narsalarga kam chalg'iydi. O'quvchining diqqati dars paytida qalamning tushib ketishiga, qo'shni partadagi o'rtoqlarining pichirlashiga, koridorda bo'layotgan gaplarga chalg'ib ketaversa diqqatining kuchsizligidan dalolat beradi. O'quvchining bunday chetki qo'zg'ovchilar (ba'zan hatto kuchli qo'zg'ovchilar) ta'sirini sezmay muayyan bir ishga berilib qunt bilan ishlasa, buq o'quvchi diqqatining kuchliligidan dalolat beradi.

Eng kuchsiz diqqat tarqoq diqqat, parishon diqqat yoki parishonlik deyiladi. Parishonlik odamning o'z diqqatini biron bir muayyan ishda tutib turolmasligidir. Parishonlikda odamning diqqati bir narsadan boshqa bir narsaga beixtiyor ravishda o'tib turadi, bu narsalardan birortasida ham to'xtab turmaydi.

Diqqatning barqarorligi. Diqqat ma'lum darajada barqaror yoki beqaror bo'lishi mumkin. Uzoq muddatgacha bir narsaning o'ziga qaratilib tura oladigan diqqat barqaror diqqat deyiladi. Agar diqqat biron bir faoliyat jarayonida boshqa narsalarga chalg'iyversa bunday diqqat be'qaror diqqat deyiladi. Masalan, o'quvchi butun dars davomida darsning borishiga

diqqat qilib o'qituvchining tushuntirishlarini boshqa narsalarga chalg'imag tinglab borsa, uning diqqati barqaror diqqat deyiladi. Bordi-yu o'quvchi o'qituvchining tushuntirishlariga avval boshdan quloq solib borib, 10-15 daqiqadan keyin boshqa narsa bilan shug'ullansa, yoki boshqa narsalar to'g'risida xayolga berilib ketsa, uning diqqati be'qaror diqqat deyiladi. Har bir kishining diqqati amaliyotda, faoliyat jarayonida, tarbiya qilish va o'z-o'zini tarbiyalash yo'li bilan o'sib, ma'lum darajada kuchli va barqarorlashib boradi.

Diqqatning kuchli va barqarorligini ta'min etadigan shart-sharoitlar. Diqqatning kuchli va barqaror bo'lishi bir qator shartlarga: diqqat ob'yektining mazmundorligiga, faoliyatga, ish bajarilayotgan vaziyatga, odamning ruhiy holatiga, irodasiga va qiziqishlariga bog'liq. Diqqatning kuchli va barqaror bo'lishi diqqat ob'yektining mazmundorligiga ko'p jihatdan bog'liq.

Diqqat ob'yekti qanchalik mazmundor bo'lsa, diqqat ham shu qadar kuchli va barqaror bo'ladi. Mazmunsiz narsalarga diqqatni qaratish va tutib turish ancha qiyin ish. Masalan, bir varaq toza qog'ozga chizilgan doiraga uzoq vaqt diqqat bilan qarab turish yoki qimirlamay turgan nuqtaga tikilib qarab turish ancha qiyindir. Odam mazmundor ishga diqqat qilganida, uning diqqati 15-20 daqiqa va undan ko'p vaqt hech bir narsaga bo'linmay hamda chalg'imag to'xtab tura oladi. Diqqatning muttasil 20 daqiqa qaratilganidan keyin boshqa narsaga bir necha soniya chalg'ishi ishning borishiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Agar mazmunsiz narsalar ustida diqqatimizni to'xtatib turishga urunib ko'rsak, diqqatimiz har 3-5 soniyadan keyin boshqa narsalarga chalg'iydi yoki tebranib turadi, ya'ni har 3-5 soniya oralig'ida odam goh qunt bilan diqqat qiladi, goh diqqati sustlashadi, bu ikki hol biridan ikkinchisiga o'tib turadi.

Diqqatning fiziologik asosi. I. P. Pavlov va A. A. Uxtomskiylarning ta'limotlariga binoan diqqatning holatlari, sifatlari, xususiyatlari, birinchidan, qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining o'zaro birgalikdagi harakati bilan, ikkinchidan, miya strukturasida hukm suruvchi qo'zg'aluvchanlik bilan uyg'unlikka egadir. I. P. Pavlovning taxminiga ko'ra, vaqtning har bir lashzasida miya qobig'ida qo'zg'alish uchun ancha qulay (senzitiv) va maqbul sharoitga ega ekanligi bilan ajralib turuvchi u yoki bu qism hukm suradi. Alohida ajratib ko'rsatiladigan mazkur qism nerv jarayonlarining induksiya qonuniyatiga binoan vujudga keladi. Bosh miya qobig'ining biron bir qismida to'plangan (markazlashgan) nerv jarayonlari induksiya qonuniga muvofiq boshqa uchastkalarni tormozlanishga olib keladi. qo'zg'alishning eng optimal markazida yangi shartli reflekslar vujudga keladi, differensiallash esa muvaffaqiyatli amalga oshadi. Qo'zg'alishning optimal o'choqi o'zgaruvchanlik xususiyatiga ega.

Diqqatning fiziologik asosini tushunib yetishda A. A. Uxtomskiyning ilmiy ishlari katta ahamiyatga egadir.

Muallif diqqatning fiziologik mexanizmlari to'g'risida tadqiqot o'tkazib dominanta prinsipini kashf qiladi. A. A. Uxtomskiyning nuqtai nazaricha, miya po'stida qo'zg'alishning ustun va hukmronlik qiluvchi markazi hukm suradi. Dominantaning hukmronlik xususiyati bundan iboratki, u qo'zg'alishning yangi vujudga kelayotgan markazlarining faoliyatini cheklash bilan qanoat hosil qilmasdan, balki zaif qo'zqtatuvchilarni o'ziga tortadi va ana shu yo'l bilan ularning hisobiga kuchayadi, muayyan darajada ustunlikka erishadi. A. A. Uxtomskiyning fikricha, dominanta qo'zg'alishning barqaror markazidir. Shuning uchun dominanta tushunchasi diqqatning harakatlantiruvchi mexanizmini ilmiy jihatdan dalillash uchun xizmatildi.

A. A. Uxtomskiyning ta'rifiga binoan, dominant - bu bir davrning o'zida ana shu markazda yuz beradigan reaksiyalar xususiyatini belgilab berishga qodir hukmron qo'zg'olish o'chog'idir. Uning fikricha, dominantalar vujudga kelgan paytda boshqa qo'zg'olish o'choqlari, ya'ni "subdominantlari" nisbatan kuchsiz qo'zg'olish o'choqlari mutlaqo yo'qolib ketmaydi, balki ular o'zaro qo'shilib, dominanta bilan kurasha boshlaydilar. Mazkur qo'zg'olish o'choqlarining o'zaro kurashishi natijasida subdominanta dominantaga aylanishi yoki oldingi dominanta esa subdominanta bilan o'rin almashishi mumkin hukmron qo'zg'olish o'chog'i hisoblangan dominanta diqqatining muayyan ob'ektga yo'naltirishi, to'planishi, mustahkamlanishi, barqarorlanishining fiziologik asosidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ivanov. P.I, Zufarova. M.YE. Umumiy psixologiya. Toshkent: O'zbek faylasuflari milliy jamiyati. 2015. - 127 b.
2. Soatov. A.J. Bo'lajak pedagog-psixologlarda psixologik maslahat berish ko'nikma larini shakllantirish texnologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi. 2020. – 85 b.
3. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. Toshkent: O'zbek faylasuflari milliy jamiyati. 2015. - 127 b.

Аллахвердиева Фуада
Нахчыванский Государственный Университет
(Нахчыван, Азербайджан)

ВЛИЯНИЕ ИКТ НА ПСИХОЛОГИЮ МОЛОДЕЖИ (СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АСПЕКТ)

Abstract. *It is investigated influences of informative-communicative technologies to psychology of human. There, is indicated physical and psychological dependence from computer. Also, it is given attention to people and especially young people who depend on computer and its social networks. At the same time, it is defined of dependence on the factors that make up internal, external and psychological influence.*

Keywords: *computer, virtual reality, internet-addiction, internet vampirism*

Аннотация. В статье изучаются формы психологического воздействия информационно-коммуникативных технологий человеческой психологии. Были показаны психологические и физиологические симптомы компьютерной зависимости. Особое внимание уделяется компьютерной зависимости молодежи и интернет-зависимости в социальных сетях. Выявляются как внешние, так и внутренние психологические факторы этой зависимости.

Ключевые слова: компьютер, виртуальная реальность, интернет-зависимость, информационный вампиризм

В наше время общественная жизнь невозможна без информационных и коммуникационных технологий. Хотя компьютерные технологии быстро развивались в 1980-х годах, они сначала были применены в определенных промышленных комплексах и исследовательских центрах, но вскоре расширили географию их применения. Банки, библиотеки, учебные заведения и даже домашние хозяйства были оснащены новыми компьютерными технологиями. Появление глобальной информационной сети - Интернета - стало настоящей революцией в этой области, и число пользователей компьютеров начало быстро расти.

Исторический опыт показывает, что каждое нововведение в жизни общества, наряду с пользой, которую оно приносит человечеству, привело к определенным негативным последствиям. В этом смысле не исключено применение новых технологий в различных сферах общественной жизни. Их негативное влияние, в частности, на психологическое состояние людей очевидно.

Параллельно с постоянным развитием компьютерных технологий растет число людей, использующих компьютеры и социальные сети для развлечений, как деловых, так и экстремальных. Социологические наблюдения показывают, что большинство пользователей информационно-коммуникационных технологий - это представители более молодого поколения (10-30 лет). Известно, что люди этой возрастной группы более чувствительны к психологическому воздействию.

Некоторые исследователи рассматривают компьютерные технологии как вторжение во внутренний мир человека и в результате подчеркивают возможность экзистенциального кризиса пользователей, сопровождающегося когнитивными и эмоциональными нарушениями. В то же время человек склонен переоценивать ценности, которые уже сформировались традиционным способом, исследовать мир и его место в нем (1).

Представляют интерес и взгляды российского ученого П.С. Гуревича на влияние новых информационных и коммуникационных технологий на человека. Заявив, что сформировался новый мир жизни - информационное пространство, исследователь подчеркнул последствия этого и выдвинул интересные идеи: «Сможет ли человек жить в информационном пространстве? До сих пор нет серьезных исследований, доказывающих, что новые технологии благотворно влияют на психику человека. Напротив, многие исследователи отмечают, что массовая компьютеризация трансформирует человеческую природу, изменяя его сознание. Люди лишены эмоционального мира. Они дети компьютерного века» (2, 12-13).

Основываясь на теории культурно-исторического развития психики, А.В. Минаков пишет, что возникает группа людей с определенными психологическими характеристиками. (1) стимулирует компьютерную зависимость.

Люди, особенно в указанной возрастной группе, знакомятся с новыми технологиями в самых разных ситуациях. Распространение компьютерных игр, использование компьютеров в качестве средства обучения, появление новых средств коммуникации, развитие новых методик обучения и дистанционного обучения на основе компьютерных телекоммуникаций - все это влияет на психику и личные качества человека, его мировоззрение как целое.

Оснащение компьютерными технологиями различных сфер общества - это наиболее распространенная форма информатизации - и ее негативные последствия для разных возрастных групп по-разному классифицируются разными авторами. По мнению российского исследователя О.В. Дорония, это: технотрессы, компьютерная фобия, пристрастие к компьютерным играм (индивидуальным, групповым и др.), Интернет-зависимость, хакерство, сужение интересов, аутизм, трансформация идентичности, отсталость социального интеллекта, социальные компоненты общения, и др. (3, 53) Таким образом, растущие темпы информатизации во всех сферах человеческой деятельности создают новые проблемы и стимулируют развитие новых направлений исследований. Особую актуальность приобретает изучение психологических и социальных аспектов взаимодействия человека и ИКТ, а также поиск новых и более эффективных методов применения ИКТ.

Исследования в этой области показывают, что применение компьютерных технологий существенно меняет структуру и динамику человеческой деятельности. Новые технологии - это качественно новый уровень посредничества деятельности, который требует комплексного и фундаментального изменения самой деятельности.

При работе с современными компьютерными технологиями происходит перестройка и развитие руководящего и оперативно-технического аспектов деятельности, формируется мотивационная система, регулирующая взаимодействие и

содержащая познавательные, коммуникативные, социально-нормативные и творческие мотивы.

Отметим два важных момента во взаимоотношениях человека и компьютера. Первый - это чрезмерное использование компьютеров в связи с определенной работой, в результате чего у человека возникают определенные физиологические и медицинские проблемы. Во-вторых, не увлекайтесь компьютерами в целом. Если первое - это медико-физиологическая проблема (также называемая профессиональным заболеванием), то второе - чисто психологическая проблема.

Зависимость от современных компьютерных технологий проявляется в двух основных формах:

- Интернет-зависимость (или Интернет-зависимость);
- крайнее пристрастие к компьютерным играм.

Обе формы имеют как сходства, так и различия. Существует ряд психологических и физических симптомов, которые связаны с обеими формами компьютерной зависимости и тесно связаны друг с другом. Эти симптомы включают:

- психологические симптомы: хорошее самочувствие за компьютером (компьютерная эйфория); увеличение времени нахождения за компьютером; безразличие к семье и друзьям; чувство опустошенности вне компьютеров; депрессия; испытывают серьезные проблемы в профессиональной деятельности или учебе, повышенное чувство безразличия.

- физические симптомы: сухость глаз; головные боли мигренозного типа; нездоровое питание; равнодушие к личной гигиене; бессонница и нарушения сна.

Компьютерная зависимость, или в другой принятой на Западе терминологии, последствия патологического использования компьютера для людей, безусловно, не так опасны, как алкоголизм или наркомания (химическая зависимость). Однако негативное влияние компьютерной зависимости на личность человека и его социальную активность также вызывает определенные осложнения у людей, особенно у молодежи.

Таким образом, исследования показывают, что существуют различные психологические проявления компьютерной зависимости у наших подростков и молодых людей. Прежде всего, давайте рассмотрим зависимость от компьютерных игр и психологические проблемы, которые возникают в результате этого.

Ряд психологов, беседовавших с компьютерными наркоманами и их ближайшими соратниками, обнаружили, что у них были эмоциональные расстройства, характеризующиеся высоким уровнем тревожности и депрессии. Беседы с родственниками наркоманов показывают, что они «крайне раздражительны», легко раздражаются, замкнуты, эмоционально неуравновешенны. У любителей компьютерных игр есть постоянный спрос на игры, но они не в состоянии полностью удовлетворить эту потребность. Скорее, они находятся в состоянии разочарования (дисбаланс между желаниями и способностью их реализовать), даже если у них есть способность удовлетворять потребности. Ключом к пониманию этого парадокса является разделение ментальной реальности наркоманов на виртуальный и реальный миры.

Исходя из этого разделения, проблема может быть представлена следующим образом: в реальном мире наркоманы постоянно расстроены и находятся в плохом

настроении, что, в свою очередь, подтверждается их высокой тревожностью и депрессией с использованием клинических психопатологических методов. Объективно выяснить, что происходило с ними во время игры, очень сложно, поэтому любое вмешательство, отделяющее их от игры, можно рассматривать как удаление их из виртуальной реальности.

Однако разговоры с наркоманами показывают, что в процессе игры их настроение значительно улучшается, у них развиваются положительные эмоции. Однако после игры, а точнее параллельно с выходом из виртуального мира, настроение снова ухудшается, опускается до уровня выхода и остается в этом состоянии до повторного входа в виртуальный мир.

Социальная обусловленность компьютерной зависимости - неоспоримый факт. Таким образом, подавляющее большинство наркоманов - это те, кто испытывает трудности с адаптацией к обществу: ряд бытовых, семейных проблем, работы, образования, серьезные проблемы во взаимоотношениях с представителями противоположного пола. Поэтому реальный мир скучен, неинтересен и полон различных опасностей для игровых наркоманов. Как прямой результат, человек пытается жить в другом мире - виртуальном мире, где все «разрешено» и правила игры определяются им самим. Можно предположить, что уход из виртуальной реальности болезнен для наркомана: он снова сталкивается с ненавистной им реальностью, что приводит к ослаблению активности и ухудшению настроения, плохому самочувствию. Таким образом, одной из возможных причин ухудшения настроения у наркозависимых является постоянная потребность в компьютерных играх, и в то же время невозможность полностью удовлетворить эту потребность.

Вторая возможная причина - эмоциональное расстройство наркомана, при котором наркоман сознательно и субъективно понимает практическую бесполезность компьютерных игр и, как следствие, считает себя бесполезным, не будучи в состоянии положить конец бесполезной привычке из-за психологической зависимости. Это вопрос когнитивного диссонанса - противоречия между восприятием человеком нормального, социально приемлемого образа жизни и образом жизни наркомана. Другими словами, наркоман оказывается в противоречивой ситуации.

Вторая форма компьютерной зависимости - это «интернет-зависимость». Первыми эту проблему обнаружили психотерапевты, а также менеджеры и менеджеры крупных компаний, активно использующих Интернет. Последний почувствовал проблему, когда эффективность работы снизилась из-за чрезмерной зависимости сотрудников от сети. Хотя интернет-зависимость имеет много общего с компьютерными играми, между ними есть некоторые отличия.

Чаще всего интернет-зависимость определяется как «нехимическая зависимость от использования Интернета» (Гриффитс). В поведении интернет-зависимость проявляется, когда люди проводят восемнадцать часов в день в виртуальной реальности, в социальных сетях, предпочитая «жизнь» в Интернете.

По направлению и содержанию деятельности необходимо отличать интернет-наркомана от человека, который больше времени проводит в Интернете на работе. Прежде всего, следует отметить, что аддиктивное поведение характеризуется как

попытка отклониться от реальности путем изменения своего психического состояния. Скорее, вместо того, чтобы решать проблему «здесь и сейчас», человек выбирает захватывающую реализацию и, таким образом, достигает более комфортного психологического состояния, оставляя проблему «позже». Этот процесс можно проделать и другими способами. Элементы поведения, вызывающие привыкание, характерны практически для каждого человека (употребление алкоголя, азартные игры и т. д.). Проблема зависимости (патологической зависимости) начинается, когда попытка отклониться от реальности из-за изменения психического состояния доминирует над разумом и становится центральной идеей. Это процесс, при котором человек не только избегает решения жизненно важных проблем (например, бытовых, социальных), но и замедляет свое личностное развитие.

Здесь возникает важный вопрос: что делает Интернет привлекательным как средство ухода от реальности? Однозначно ответить на этот вопрос очень сложно. Таким образом, разные исследователи и психологи по-разному отвечают на этот вопрос. На наш взгляд, этому есть несколько причин. Их можно выразить следующим образом:

- Возможность общаться анонимно;
- настройка воображения и реализация фантазий (в том числе возможность создания нового образа «Я»; вербализация фантазий или фантазий, реализация которых в обычной жизни противоречит определенным социальным правилам);
- предоставить необычайно широкую возможность найти нового собеседника, который предоставит наркоману практически любые критерии;
- неограниченный доступ к информации (этот фактор чаще всего называют «информационным вампиризмом»).

Первым американским психологом, продемонстрировавшим научный подход к изучению феномена «интернет-зависимости», был Кимберли Янг, автор знаменитой книги «Сетевые люди» (5). В 1996 году он разработал оригинальный тест, помогающий выявлять интернет-наркоманов.

Согласно исследованию К. Янга, к интернет-зависимости склонны следующие факторы:

- старайтесь регулярно проверять электронную почту;
- в связи с очередным онлайн-сеансом;
- постоянное увеличение онлайн-времени;
- увеличенные онлайн-затраты;

Однако К. Ян выделил следующие основные типы интернет-зависимости:

- Виртуальные знакомства страсть - это всегда новые знакомства и многочисленные друзья в сети;
- Требование пользоваться сетью.

Если мы сравним интернет-зависимость с другими типами зависимости, мы сможем найти между ними довольно много общего. Некоторые исследователи считают, что существует аддиктивный тип личности (аддиктивное поведенческое расстройство), и люди с этими чертами легко подвергаются риску: злоупотребление психоактивными веществами, психологическая зависимость от других людей, пищевая зависимость, интернет-зависимость. Эти черты включают крайнюю независимость, неспособность

протестовать и сказать «нет» из-за страха быть отвергнутым другими людьми (даже в повседневном языке таких людей называют безвольными), страх критики, неспособность брать на себя ответственность и принимать решения и так далее.

Из вышесказанного можно сделать вывод, что влияние новых компьютерных технологий на психологию человека неоспоримо. Это подтверждается частыми инцидентами в ежедневных СМИ, которые имеют прямое отношение к Интернету и социальным сетям, а в некоторых случаях и серьезными преступлениями. Все это заставляет проводить как клинические, так и медицинские и психологические исследования в этой области.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ

1. Минаков А.В. Психологические особенности лиц, склонных к Интернет-зависимости // <http://www.nedug.ru>
2. Гуревич П.С. Конфигурация могущества // предс. В.Кн. Тоффлер Э. Метаморфозы власти. М.: АСТ, 2003, 669 ст.
3. Доронина О.В. Страх перед компьютером: природа, профилактика, преодоление. // Вопросы психологии, 1993, №1 ст. 47-58
4. Зависимость от интернета. // <http://narcot.com/index.php/razdelnedug/36-zavisimosti/198-zavissimost-ot-interneta>
5. Диагноз-интернет-зависимость // <http://www.narcom.ru/ideas/common/15.html>

Ахрарходжаева Дилфуза
студентка
ТГПУ имени Низамий
(Ташкент, Узбекистан)

ОСОБЕННОСТИ МЕЖЛИЧНОСТНОГО ОБЩЕНИЯ СО СВЕРСТНИКАМИ И ВЗРОСЛЫМИ У ДЕТЕЙ С ЗАИКАНИЕМ

В последние годы в народном и дошкольном образовании актуализируются ценности инклюзивного образования, которое нацелено не только на традиционные образовательные достижения, но и на обеспечение полноценной социальной жизни, активное участие в коллективе всех его членов. Организация инклюзивной практики предполагает творческий подход и определенную гибкость образовательной системы, учитывающей потребности и особенности детей с ограниченными возможностями здоровья. Комплекс нарушений речевого и когнитивного развития у детей с заиканием препятствует становлению у заикающихся детей полноценных коммуникативных связей с окружающими, приводит к изоляции в коллективе сверстников.

Целью данной статьи является изучение особенностей вербального и невербального общения со сверстниками у детей дошкольного возраста с заиканием

Общение бывает вербальным и невербальным.

Под **вербальным общением** понимается привычный нам звуковой язык.

Человеческая членораздельная речь – особая информационная система, недоступная большинству животных, но ставшая основным средством общения для людей.

Под **невербальным общением** понимаются такие средства общения, как мимика, жесты, позы, прикосновения, интонации, изменение обстоятельств общения – то есть такие, которые осуществляются без использования слов.

Понятия «язык» и «речь» кажутся синонимами, хотя наука их всё-таки разграничивает. Язык – это конкретный набор знаков и правил их согласования и сочетания. А речь – сама способность передавать информацию звуковым (и письменным) способом, а также конкретное звучащее «произведение» (разговор, выступление и др.).

Вербальное общение может производиться путём взаимного обмена информацией, и тогда это диалог. А может производиться и в форме монолога – выступления одного лица. При этом факт общения всегда осознаётся всеми его сторонами. То есть чтобы что-то сказать словами, нужно очень этого захотеть. Это составляет одно из главных различий вербального и невербального общения.

Инструментом такого общения становится человеческое тело, имеющее огромное количество выразительных возможностей.

При этом «внеречевое общение» зачастую происходит неосознанно для одного или всех участников коммуникации. «Язык тела» способен выдавать даже то, что мы бы не хотели обнаруживать в себе. И реакция на невербальное сообщение тоже нередко

происходит неосознанно. Между тем есть смысл научиться распознавать внеязыковые сигналы, чтобы сделать процесс общения более эффективным.

Чаще всего оба средства общения задействованы одновременно. Многие люди при разговоре склонны жестикулировать, подкрепляя руками и гримасами свои слова и уточняя их смысл. В некоторых культурах жестикуляция считается дурным тоном, однако даже там полностью избавиться от этой «вредной привычки» не удаётся.

Научно доказано что методы вербального общения доносят лишь около 40% информации до слушателя. Однако без него сложно представить нормальную коммуникацию. Тем, кто вынужден по долгу службы часто общаться с различными людьми необходимо научиться строить взаимоотношения и стремиться к взаимопониманию.

Анализ раскрывающей особенности психики детей с заиканием позволяет утверждать, что повышенная возбудимость, лабильность нервных процессов или их заторможенность, неустойчивость и истощаемость психических процессов, пониженная способность к отсроченной реакции у заикающихся ведут к отставанию в развитии регуляторной функции внутренней речи, неблагоприятны для овладения развитыми формами речевой коммуникации и социальной адаптации. Неправильная речь заикающихся и особенности их поведения сказываются на развитии игровой деятельности детей, которые чаще выступают в роли зрителей или берут на себя подчиненные роли, отказываются от игр со сверстниками. Чувство собственной неполноценности может порождать неправильное отношение заикающегося ребенка к коллективу сверстников, лишает его радостного настроения. Недостаточно развитая речь, возможные нарушения движений затрудняют полноценное участие заикающихся детей в играх, способствуют фиксации на своем дефекте. Дети начинают испытывать затруднения во время ответов в группе, волнуются при разговоре с незнакомыми лицами. Постепенно увеличивающиеся потребность и необходимость в речевом общении, усложнение взаимоотношений со сверстниками, нарастание требований, предъявляемых к речевой коммуникации, приводят к тому, что для подавляющего большинства заикающихся речь становится источником постоянной психической травматизации.

Советы родителям с заикающимися детьми.

Преодоления заикания зависит от многих условий, в первую очередь от его механизмов, от сроков начала комплексного воздействия и полноты его применения. Но в первую очередь – от желания самого заикающегося. В большинстве случаев прогноз при заикании благоприятный и социальная адаптация заикающихся осуществляется в высокой степени.

Необходимо нормализовать взаимоотношения семьи и заикающегося ребёнка, это достигается:

- общей спокойной, доброжелательной обстановкой; - отсутствием выяснений отношений между взрослыми, «взрослых» разговоров; ссор при ребёнке;
- последовательностью требований взрослых к ребёнку;
- учётом страхов ребёнка, его тревог. Заикающийся ребёнок не должен чувствовать себя ни ущербным, ни привилегированным. Родителям, в свою очередь, не

нужно показывать своего волнения ребёнку, если он говорит с запинками, и стараться не произносить при ребёнке слово заикание

Необходимо правильно организовать домашний режим, для этого нужно:

- выделить специальное время на выполнение заданий логопеда;
- строго придерживаться рекомендаций детского врача, касающихся

правильного питания и его регулярности, организации дневного и ночного сна;

- ежедневно гулять с ребёнком;
- ежедневно делать физическую зарядку;
- избегать перегрузки ребёнка впечатлениями от зрелищных мероприятий

(избегать положительных и отрицательных эмоций); %

- ограничить занятия такими видами спорта, которые связаны с большим физическим напряжением и носят соревновательный характер.

2) Необходимо организовать специальный речевой режим, соблюдая следующие условия:

- спокойная, неторопливая, выразительная речь родителей;
- обязательно дослушивайте речь ребёнка до конца (при возникновении

запинок);

- совместное произношение слов и фраз, отражённое произношение; - выполнение движений с проговариванием слов, фраз (с мячом, прыжки и т.п.), оречевление движений в процессе выполнения какой-либо деятельности (например, при изодетельности);

- как можно чаще заниматься пением;

- читать любой ритмизированный текст (стихотворения, считалки);

- выполнять дыхательные упражнения, которые ребёнок отрабатывает с логопедом (надувать шарик, дуть на воду, движущиеся предметы и т.п.);

- создание щадящего речевого режима в течение недели (особенно в период обострения);

- усвоение детьми речевых правил, которые также должны выполнять и взрослые.

В заключении можно сказать что, вербальное и невербальное общение – это как бы две стороны одного и того же процесса. С помощью языка и речи можно сказать многое, но есть такие моменты, которые лучше всего передаются именно языком тела. Знание возможностей разных форм общения позволяет многое. К примеру, добиваться расположения других людей, предугадывать последствия своих действий и их влияние на окружающих.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ

1. Артемьева, Т.В. Психолого – педагогическая диагностика нарушений развития детей \ Т.В. Артемьева - Germany, Palmarium Academic publishing, 2012 – 194 с.
2. Ахметзянова, А.И. Развитие системы специального (дефектологического) образования и научно – методического обеспечения психологопедагогического сопровождения лиц с особыми образовательными потребностями в Республике Татарстан // Специальное образование»: VIII Международная научная конференция,

- 26 - 27 апреля 2012/ под.ред.проф. В.Н. Скворцова. - АОУ ВПО «Ленинградский государственный университет им. А.С. Пушкина», 2012.-Т.1. - С. 39-44.
3. Малофеев, Н.Н. Стратегия и тактика переходного периода в развитии отечественной системы специального образования и государственной системы помощи детям с особыми проблемами / Н.Н. Малофеев // Дефектология.- 1997.- № 6.- С. 3-10.
 4. Сорокоумова С.Н. Психологическое сопровождение инклюзивного образования дошкольников с ограниченными возможностями здоровья: автореф.дис. на соиск.степ.докт. псих.наук (19.00.10) / Сорокоумова Светлана Николаевна; - Нижний Новгород, 2011. – 44 с.
 5. Аюпова М.Ю. Логопедия. Национальное общество философов Узбекистана. Т.: 2007, 2011 г.

Эгамбердиев Фарход Тухтаевич
научный сотрудник
Каршинский государственный университет
(Карши, Узбекистан)

ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ СПЕЦИФИКА ПРОЯВЛЕНИЯ ВОЛЕВЫХ КАЧЕСТВ В СПОРТЕ

Аннотация. Статья посвящена психологической специфике проявления волевых качеств в спорте. Кроме того, в статье рассматриваются деятельность спортсмена и его особенности, волеизъявление спортсмена, волевые качества и их роль в спорте, произвольная подготовка спортсменов, воля и ее действия, развитие эмоциональной сферы, психологические методы. развития воли, успехов и неудач, выносливости в спорте, устойчивости в жизненных ситуациях, психологических условий целеустремленности, психологических факторов, обеспечивающих волевые качества, борьбу мотивов, уровень индивидуализма.

Ключевые слова: спортсмен, юный баскетболист, воля, волевые качества, цель, успех, победа, выносливость, внутренний контроль, самоконтроль, целеустремленность, настойчивость, ответственность.

Annotation. The article is devoted to the psychological specificity of the manifestation of volitional qualities in sports. In addition, the article examines the activity of an athlete and his characteristics, the expression of the will of an athlete, volitional qualities and their role in sports, voluntary training of athletes, will and its actions, the development of the emotional sphere, psychological methods. development of will, success and failure, endurance in sports, stability in life situations, psychological conditions of purposefulness, psychological factors that provide volitional qualities, the struggle of motives, the level of individualism.

Key words: athlete, basketball, young basketball player, will, volitional qualities, goal, success, victory, endurance, internal control, self-control, purposefulness, perseverance, responsibility.

Известно, что объективные и субъективные трудности, возникающие при занятиях спортом, препятствуют свободному движению спортсмена и отражают негативные эмоциональные состояния, такие как беспокойство по поводу травм, полученных на предыдущих тренировках, застенчивость из-за негативной реакции окружающих, боязнь соперника. Для преодоления этих трудностей требуется развитие воли спортсмена. Развитие воли спортсмена имеет общие и специализированные направления. Если общее направление - это развитие силовых качеств, которые проявляются у спортсмена во всех сферах жизни, то особое направление связано с развитием силовых качеств, характерных для конкретного вида спорта и отвечающих его требованиям.

Несколько правил, которым нужно следовать, чтобы развивать силу воли во время тренировки: начните с самых простых упражнений во время тренировки; необходимо сформировать у спортсменов стремление выполнять поставленные перед

ними задачи, провоцировать быстрые и смелые движения; им необходимо развить способность противостоять длительным произвольным нагрузкам с помощью упражнений на выносливость. По мнению Н.А. Батуриной, развитие у спортсмена следующих волевых качеств позволяет преодолевать трудности и предотвращать негативные эмоциональные состояния [1, 142]:

1. Развитие самостоятельности и инициативы основано на формировании способности спортсмена самостоятельно повышать спортивное мастерство, самостоятельно принимать необходимые решения;

2. Для развития смелости и отваги необходимо развивать у спортсмена способность своевременно принимать правильные решения, преодолевать сомнения, застенчивость, страх, способность принимать решения в рискованных и опасных ситуациях.

3. Настойчивость и настойчивость - умение постоянно добиваться поставленных целей, противостоять физическим нагрузкам, которые слишком велики и в пределах возможностей, противостоять переутомлению и другим трудным ситуациям. Кроме того, произвольные действия спортсмена характеризуются приобретением сложного психологического смысла. Стоит отметить, что возникновение борьбы мотивов в личности спортсмена основано на возникновении ответственности, чувства ответственности, необходимости совершать добровольные действия, пробуждении сомнений и неуверенности в данной ситуации. Чтобы объяснить или объяснить эту реальность, необходимо рассмотреть ее структуру, чтобы определить, состоит ли она из компонентов волевого акта с психологической точки зрения. По мнению П.П. Зимина, произвольные действия имеют практический результат только благодаря появившейся у спортсмена идее достижения цели. Понимает способы достижения поставленной цели с помощью этого действия, расставляет в определенном порядке потребности, которые необходимо удовлетворить, считает необходимым разделить их на первичный и вторичный уровни. Движущей силой этого процесса является мотив, который служит для объяснения стремления к цели и ее достижения [2, 75].

Прежде всего, начало произвольного действия проявляется тогда, когда четко обозначены направления достижения цели. Этот процесс проходит без труда, когда решается, что выбранное действие является подходящим. Однако во многих случаях принятие решения становится сложным процессом, в результате которого возникает борьба мотивов, и, как следствие, период отбора несколько удлиняется. Например, у спортсмена может быть желание сменить команду, но у него могут быть идеи другого характера. Эти мысли также мешают ему сменить команду. Хотя желание сменить команду связано со способностью спортсмена больше демонстрировать свои способности, оно также требует адаптации к новой среде и команде, к новым обстоятельствам, к другим требованиям. Этот тип отношений приводит к борьбе мотивов, борьба схожих мотивов приводит к решению или принятию решения, в котором такие качества, как сомнение, медлительность, безразличие, нерешительность (иногда недостатки) вытесняются из сферы деятельности, и все внимание сосредоточено на принятии решений. Если даже после принятия решения трусость продолжает приводить человека к колебаниям, то добровольное действие отражает полное отсутствие решения,

смелости, настойчивости и стремления к поставленной цели. Е.Р. Ильин подчеркивает, что человек готовится к достижению цели, обобщая данные о различиях между психологическими и статистическими ожиданиями. Изучение мотивов также очень важно при анализе волевых качеств [3, 89]. По словам американских ученых Д. Макклелланда, существует два основных типа мотивации, позволяющих человеку делать разные вещи: мотивация стремиться к успеху и мотивация избегать неудач. Люди различаются и в зависимости от того, к какому мотиву они стремятся, занимаясь тем или иным делом.

Например, только те, кто работает с мотивом успеха, заранее начнут работать с уверенностью, так что успех в любом случае будет для них высшей целью. Они ожидают успеха до того, как приступят к работе, и если они это сделают, они знают, что люди одобряют все их действия. Таким образом, они полностью используют свою мощь и возможности [4, 123]. Также мотивация стремиться к успеху в занятиях спортом связана с достижением спортивных достижений и отношением к спорту. Например, у теннисистов с высоким уровнем мотивации к успеху была понятная цель, они не только стремились добиться высоких результатов и лидировать в соревнованиях, но и обладали хорошо развитым чувством ответственности.

Спортсмены, которые мотивированы на стремление к успеху, обычно более активны, чем другие, не взволнованы, верят в свои силы и могут мобилизовать все свои ресурсы для достижения успеха, когда это необходимо. По словам Т.С. Коноревой, спортсмены, которые полагаются на мотивацию избегать неудач, в отличие от первых, думают, что ни в чем не потерпят неудачу, прежде чем приступить к деятельности. В результате у них появляется больше неуверенности, неверия в успех и пессимизма. Вероятно, поэтому они все равно терпят неудачу [5, 101].

По словам А.Ц. Пуни, мотивы деятельности - очень важный инструмент в управлении поведением спортсменов. Поэтому педагогам необходимо всесторонне изучить уровень мотивации своих учеников. Зная мотивы, тренер сможет повысить активность спортсмена в процессе тренировки и выполнения упражнений, улучшить волевые качества, важные для его успешного участия в соревнованиях [6, 77]. Мотивы избегания неудач проявляются в следующем: неуверенность в себе, усиление проявления защитных черт в поведении, снижение активности в овладении инструментами, связанными с переходом к атаке.

В заключение, спортивная деятельность - это добровольная деятельность. Без ожесточения воли человека добиться результата нереально. Поэтому в обучении будущих мастеров спорта и чемпионов развитие и совершенствование их силы воли - наиболее оптимальный путь к достижению успеха. Если больше исследований будет проводиться по психологическим аспектам проявления волевых качеств у спортсменов, психологическим показателям формирования волевых качеств у спортсменов, то не исключено, что любые препятствия на пути к эффективному выполнению спортсменов будут предотвращены.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ

1. Батурин Н.А. Психология успеха и неудач в спортивной деятельности / Н. А. Батурин // Психология в спорте.- Омск: Сфера, 2008. – 195 с.
2. Зимин П.П. Воля и ее воспитание у подростков. - Ташкент, 2011. - С. 47.
3. Ильин Е.П. Психология физического воспитания: учебник / Е.П. Ильин. – Санкт-Петербург: РГПУ им. А.И. Герцена, 2000. – 486 с.
4. Макклелланд Д. Мотивация человека / Д. Макклелланд. СПб.: Питер, 2007. – 615 с.
5. Конорева Т.С. Волевая активность (параметр настойчивости) и ее формально-динамическая сторона / Т.С. Конорева. – Свердловск: РГППУ, 2009. – 112 с.
6. Пуни А.Ц. Очерки психологии спорта / А.Ц. Пуни. - М.: Физкультура и спорт, 2009. - 164

Маҳмудова Хулкар Тилабовна
доценти, психология фанлари номзоди
Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси,
Сулаймонова Х.
номидаги РСЭМ эксперт-психологи
(Тошкент, Ўзбекистон)

ЗЎРЛАБ НОМУСГА ТЕГИШДАН ЖАБРЛАНГАН ВОЯГА ЕТМАГАНЛАРНИ ЎРГАНИШДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЁНДАШУВ

Аннотация. Мақолада жинсий тажаввузкорлик оқибатида жабрланган вояга етмаганларнинг психик ҳолатлари ҳақида илмий-амалий ёндошувлар кўриб чиқилган. Вояга етмаган жабрланувчининг айбланувчи ҳаракатлари моҳиятини тушуниш, унга қаршилиқ кўрсатиш, жинсий етуклик, мазкур ҳаракатларнинг маъновий жиҳатларини англаш ёки англамаслик моҳиятлари ёритилган.

Калит сўзлар: вояга етмаганлар, жабрланувчи, ёш хусусиятлари, руҳий ҳолат, руҳий жараёнлар, етуклик, жиноятчи.

XXI аср – тараққиёт ва илмий технологиялар асри, бунда олдинги авлодларга қараганда ўзгача дунёқараш ҳамда ҳаёт ва унинг ҳодисалари тўғрисида маълумотга эга бўлиш даражаси бутунлай бошқа бўлган ёш авлоднинг акселерациясида (тез улғайишида) акс этади. Ёшга тегишли психик ривожланишнинг ўзига хос хусусиятларини билиш юридик амалиётда вояга етмаганлар жиноятларини тергов қилишда катта аҳамият касб этади. Қонун ёш тўғрисида фақат битта - паспортга тегишли, яъни яшаган йиллар сони билан боғлиқ тушунчани ўрнатади. Шу билан бирга қонунда вояга етмаганлар психик ривожланишининг кечиши ёшга тегишли қонуниятлардан оғиб, ақлий қолоқликка олиб келадиган ҳолатлар ҳам кўзда тутилган. Бундай ҳолларда вояга етмаганлар ҳулқ-атворининг хусусиятлари ва психологик имкониятлари билан боғлиқ масалани ҳал қилишга психологик текширишлар ёрдам беради.

Л.С. Выготский психологик ёш тушунчаси мазмуни тўғрисида «психологик ёшни биз ривожланишнинг муайян даври, цикли ёки босқичи сифатида, ривожланишнинг маълум нисбатан берк даври сифатида таърифлашимиз мумкин», - деб таъкидлайди [1].

Д.Б. Элькониннинг илмий тасаввурига кўра, муайян даврларда «1, 3, 5 ёшда» шахснинг мотивацион-эҳтиёжларга оид шаклланиши рўй беради, бошқа даврларда - «2, 4, 6 ёшда» болаларнинг интеллектуал-билиш кучлари шаклланади. Ҳар бир алоҳида бола шахсининг ривожланиши индивидуаллашган. Шу билан бирга ижтимоий қонуниятлар ва психиканинг бирлиги мавжуд бўлиб, улар бир хил ёшдаги одамларга умумий бўлган типик психологик хусусиятларни белгилаб беради. Бу эса психологик ёшни диагностика қилиш имконини яратади. Диагностика умумий қонуниятларни билиш ва улар билан вояга етмаганларнинг реал ривожланиш даражасини таққослашга асосланади [2].

Ўсмирлик ёшига хос кескин ифодаланган психологик ўзига хос хусусиятлар ўсмирлар комплекси деб ном олган, унга кайфиятнинг кескин ўзгариб туриши киради. Ўсмир кайфиятининг бундай алмашиб туришининг етарли сабаби ҳам бўлмаслиги

мумкин. Ўспирин қизларда бундай вазиятларда ҳайратда қолдирадиган тошюраклик ва раҳмдиллик, носоғ тортинчоқлик (ибо) ва одобсизлик, ҳурмат қозониш истаги ва ёлғондакам мустақиллик ёнма-ён мавжуд бўлади. Бу ёшда вояга етмаган қизлар тафаккур тарзи уларнинг асаб тизими тури (ҳаракатчан, суст (инерт)) билан белгиланади. Асаб фаолияти турига боғлиқ равишда биз кўраётган шахслар контингентининг мантиқий фикрлаш даражаси турлича бўлади. Демак воқеликни ва атрофдан келаётган турли сигналларни сифат жиҳатдан англаш ҳам турлича бўлади. Мазкур ёшда ўсмирлар мантиқий тафаккури шаклланиш даврида бўлиб, амал қилиб турган образлилик ва инфантил ҳаёл қилиш билан суғорилиб туради.

11-16 ёшдаги шахслар хулқ-атвори бавосита ижтимоий муносабатлар билан белгиланади, лекин шу билан бирга реактивлик, нарсалар билан бевосита ҳиссий ўзаро таъсирда бўлиш характери охиригача йўқотмайди. Шаклланиб келаётган қадриятлар ахлоқий тизими билишнинг тушунчаларга оид, ахборотли усуллари билан боғланган, лекин хулқ-атворни тартибга солувчи даражага етмаган. Тенгдошлар муҳити ўсмирларнинг ижтимоий хулқ-аворининг муҳим соҳаси ҳисобланади, унда ижтимоий ўхшатиш, қиёслаш воситасида вояга етмаганларда ўзини ўзи англаш шаклланиб боради. Жинсий балоғатга етиш билан боғлиқ қарама-қарши жинсга қизиқиш қиз ва ўғил болаларда турлича намоён бўлади. Жабрланувчининг у билан содир қилинаётган ҳаракатларнинг характери ва аҳамиятини тушуниш тўғрисида сўз кетганда, аввало, мазкур ҳаракатлар унинг онги ва англашида қандай акс эттириляётганлиги кўзда тутилади. Бундай акс эттириш жабрланувчининг жинсий масалалар тўғрисида, яъни жинслар ўртасидаги муносабатлар моҳияти, уларнинг намоён бўлиш шакллари ҳамда жинсий муносабатлар физиологиясидан хабардорлигига асосланади.

Жабрланувчининг айбланувчи ҳаракатларини тушуниш деганда жабрланувчи онгида ҳам жиноятчининг мотивлари ва мақсадлари нуқтаи назаридан, ҳам у билан содир қилинаётган ҳаракатларнинг жабрланув-чининг келажагига таъсир қилувчи оқибатлари нуқтаи назаридан мазкур ҳаракатларнинг маъновий ва баҳолаш жиҳатлари акс эттирилиши назарда тутилади. Булар инсоннинг жинсий муносабатлардан хабардорлиги даражаси ҳамда айбланувчи ниятини тўғри тушуниш билан боғлиқ. Бунинг учун ҳаёт тажрибаси зарур, у ўзга шахс ниятлари, мотивлари ва мақсадлари тўғрисида ҳулоса чиқариш, шунингдек вазиятни бир бутуликда ангаш учун алоҳида фактларни бири-бири билан мантиқий боғлаш имконини беради. Айбланувчи ҳаракатлари аҳамиятини мумкин бўлган оқибатлар нуқтаи назардан тушуниш шахс структурасининг етарли даражада ривожланганлигини талаб этади. Баҳолашнинг ахлоқий жиҳати шахснинг ахлоқий онгининг яхши ривожланганлигини, ўз хулқи ва фаолиятини тартибга солиш қобилиятига эга бўлишни талаб қилади.

Шуни таъкидлаш керакки, жабрланувчининг жинсий муносабат-ларнинг ташқи томонидан формал жиҳатдан хабардорлиги, айбланувчининг жинсий ҳаракатларини тушуниши, жабрланувчида улар аҳамиятини тўғри англаниши мавжудлигини тақозо қилмайди. Машхур россиялик олим М.М. Коченов жабрланувчининг у билан содир этиляётган ҳаракатлар характери ва аҳамиятини тушуниш ва қаршилик кўрсатиш лаёқатини тавсифловчи қуйидаги кўрсаткичларни ажратади:

1. Вазиятнинг бошиданоқ хавфлилигини тушиб етиш, айбланувчининг ҳақиқий ниятлари ҳақида гувоҳлик берувчи айбланувчининг хатти-ҳаракатлари белгиларига кўра унинг ривожланишини эрта англаш.

2. Содир булаётган ҳодисанинг ахлоқий-эстетик томонини тўғри тушуниш.

М.М. Коченовнинг зўрлик қилувчининг жабрланувчи билан содир қилган ҳаракатлари аҳамияти ва характерини тушуниш нуқтаи назарини тадқиқ қилиб, биз тахмин қиламизки, ахлоқий-эстетик мутаносиблик масаласи ёки зўрловчига қаршилиқ кўрсатиш масаласини ҳал қилишда жинсий тажрибанинг мавжудлиги масаласи мунозаралидир. Бизнинг фикримизга кўра, жинсий суиқасд ҳодисаси бу – тасодифий зўрлаш бўлиб, унда ҳар бир жабрланувчининг ахлоқий билимларга таяниши ва улардан фойдаланиши қийинчилик туғдиради [3].

И.А. Кудрявцев фикрича, жабрланувчининг айбланувчи ҳаракатлари характерини тушуниши мумкинлигини аниқлаш асосан унинг жинслар ўртасидаги муносабатлар ҳақида хабардорлигининг тўлиқлигини баҳолашга асосланади. Буни жабрланувчи билан йўналтирилган суҳбат давомида, унинг қизиқиш доираси ҳақидаги объектив маълумотларни ўрганиш давомида, унинг ҳулқида кескин жинсий ўзгаришнинг (метаморфоз) бошланиши тўғрисида маълумотларни ҳисобга олиб, аниқлаш мумкин. Охириги ҳолда жабрланувчида қарама-қарши жинс билан жинсий алоқа тажрибаси борлиги, унинг шакли, халқ-атвор стеретиплари, шунингдек жабрланувчи референт гуруҳида ушбу масалага доир қабул қилинган қарашлар ва фикрларни махсус аниқлаш лозим бўлади [4].

Маъновий жинсий тажриба чегараларини аниқлаштириш, намоён бўлиш шакллари ва жинсий қизиқишнинг шахс мотивацион тузилишидаги ўрнини диагностика қилиш – вояга етмагanning айбланувчи жиноий ҳаракатлари моҳиятини тушуниш, криминал вазиятнинг ривожланишини прогноزلash ва унинг ўзи учун мазкур вазиятда ва келажақдаги оқибатларини олдиндан англаб етиш лаёқатини аниқлашнинг муҳим таркибий қисми ҳисобланади.

Шунингдек мазкур тажриба билан танишиш вояга етмаганда жинсий интилишларни тийишнинг ҳулқ-атворга оид воситалар диапозонини, исталмаган алоқалардан ўзини четга олишни баҳолаш, жиноятчининг аниқ усуллари ва зўрлаш ҳолини ҳисобга олган ҳолда, уларнинг етарли эканлигини баҳолаш имконини беради.

Жабранувчи вояга етмагanning айбланувчи ҳаракатлари моҳиятини тушуниш ва унга қаршилиқ кўрсатишни эксперт баҳолашда вояга унинг онги ва ўзини ўзи англашини таҳлил қилиш марказий ўрин эгаллайди. Ўзига ўзи баҳо бериш характерини, идеал ва реалнинг, ҳозирги даврдаги ва келажақдаги “Мен-образ”ининг характерини, мазкур образни ташкил қилувчи субъектнинг энг муҳим қадриятларини аниқлаш муҳим аҳамият касб этади. Бунда жабрланувчи ахлоқий онгининг шахсга оид таркибий қисмларини аниқлаш алоҳида аҳамиятга эга. Бурч, масъулият, ор-номус ва қадр-қиммат каби энг муҳим ахлоқий ҳис-туйғуларнинг шаклланганлиги айбланувчи ҳаракатларини фарқ қилинган (дифференциациялашган) ҳолда баҳолаш имконияти борлигидан далолат беради. Ўз ҳулқини самарали тартибга солиш, қаршилиқ кўрсатишнинг мақсадга мувофиқ ташкил қилиш имконини берувчи ташқи ва ички назоратнинг етарли даражада ривожланганлигининг мезони бўлиб хизмат қилади. Ахлоқий онгнинг

шакланмаганлиги, ривожланмаганлиги – айбланувчи жиноий ҳаракатлари моҳиятини тўғри баҳолаш мумкин эмаслиги мезони, онгли равишда қаршилик кўрсатишга лаёқатсизлик белигисидир.

Жабрланувчининг қаршилик кўрсатиш имкониятларини аниқлаш учун, унинг хабардорлиги, прогноз қилиш ва маъновий баҳолаш қобилиятидан ташқари, фаолиятни бирор нарса воситасида ифодалаш, амалга ошириш тарзини таъминловчи маъноли ва мақсадли установакаларини кўриб чиқиш жиддий аҳамият касб этади. Бунда вояга етмагanning характери қай даражада шахснинг қадриятлар “ядриси” билан “олинганлиги”, яъни унинг долзарб эҳтиёжлари олий қадриятлар билан бавосита ифодаланганлиги қай даражада онгли эканлиги, қай даражада у мотивацион йўналишларини онгли равишда бирга бўйсундира олишга қодирлиги, қай даражада ўз хулқини вазиятни қандай бўлишига қарамасдан қуришга, бир дақиқали ва истиқболдаги мақсадларини фарқлашга қодирлигини аниқлаш катта рол ўйнайди. Ушбу фазилатлар нафақат жабрланувчи хулқ-атворининг ихтиёрий ва анланганлиги даражасини тўлиқ акс эттиради, балки унинг шахсининг умумий ижтимоий етилганлиги тўғрисида тасаввур беради.

Ахлоқий установакалар, шахс сифатида етуклик ва бавосита ифодалаш қобилияти, айбланувчи хатти-ҳаракатларини олдиндан ҳис қилишларни кўриб чиқишда И.А. Кудрявцев жабрланувчилар қолган аҳволнинг жадаллиги, низолилиги, динамикасини, фожиавийлиги, ночорлиги, иложсизлиги сифатидаги жиддий омилга эътибор бермайди. Бизнинг фикримизча, жабрланувчиларни жинсий суиқасд (тажовуз) факти бўйича психологик текширишда вазиятнинг ўзини, зўрлаш инцидентини юзага келтирувчи айбланувчининг характери ва ҳаракатларини таҳлилига юқори даражада аҳамият бериш зарур.

В.Ф. Енгальчев ва С.С. Шипшин жабрланувчи унга нисбатан содир этилаётган ҳаракатлар характери ва моҳиятини тушунишга ва қаршилик кўрсатишга лаёқатсизлигини кўрсатиши мумкин бўлган белгиларни, улар СПЭ тайинлаш учун асос бўлишини кўриб чиқадилар [5]. Мазкур муаллифлар саккиз ёшга етмаган текширилувчиларга нисбатан экспертиза ўтказилганда айбланувчи ҳаракатлари характери ва моҳиятини тушуниш ва жабрланувчининг қаршилик кўрсатиш (юқорида кўрсатилган сабабларга кўра) лаёқати тўғрисида савол қўйиш фойдасиз, деб ҳисоблайдилар. Бундай ҳолларда жабрланувчининг иш ҳолатларини адекват идрок қилиш, уларни эслаб қолиш ва улар тўғрисида тўғри кўрсатма беришга тегишли саволлар қўйиш лозим. Бунда текширилувчининг ҳаёлпарастликка ва таъсирга берилишининг юқори даражадаги мойиллиги билан боғлиқ саволлар қўйилиши ҳам мақсадга мувофиқ эмас.

В.В. Нагаевнинг фикрига кўра, айбланувчи (тажовуз қилувчи) ҳаракатлари характерини тушуниш жабрланувчининг жинсий масалада хабардорлиги (хусусан жинсий ўзаро муносабатларнинг моҳияти, намоён бўлиш шакллари, жинсий муносабатларнинг физиологик жиҳатлари, бола туғиш, шунингдек жинсий алоқага кирилишининг жамият томонидан маъқул топилган ёши) асосида уларнинг мазмунини тўғри акс эттира олишини кўзда тутади.

В.Л. Васильева фикрича, «содир бўлаётган ҳодисанининг характери ва моҳиятини тушуниш лаёқати шахс олий хусусиятларининг – ўзини ўзи англаш, эмпатига лаёқат, меъёр ва қадриятлар структурасининг иерархияси, ривожланган танқидий ва прогноз қилиш қобилияти, коммуникатив (алоқа қилиш) кўникмалари, ҳуқуқий ва ахлоқий онг ва бошқаларнинг етарли даражада шаклланганлиги тақозо этади. Ушбу структураларнинг ривожланганлик даражаси интеллектуал қобилиятлар, темпераментнинг ўзига хос хусусиятлари, характернинг жиҳатларига боғлиқ. Оиладаги тарбия шароитлари ва тарзи ҳал қилувчи аҳамиятга эга: нуқул оилавий вазият, ота-она, айниқса, она томонидан эмоционал жиҳатдан четлаштириш, “ибони йўқотмаслик” мақсадида қаттиқ тарбиялаш, қўрқитиш шахснинг баркамол ривожланишига, ахлоқий меъёр ва тамойилларни ўзлаштириш, криминал вазиятда ўзини адекват равишда тутишга тўсқинлик қилади». Муаллиф фикрига кўра, жабрланувчиларнинг криминал вазиятда ҳулқ-атворини белгиловчи жиҳатлардан бири уларнинг психосексуал ривожланиш даражаси ҳисобланади [6].

Етти ёшгача бўлган болаларнинг психосексуал ривожланишини ўрганиб, М.А. Догадина, Т.А. Смирнова, А.А. Ткаченко каби муаллифлар таъкидлайдиларки, «бу даврда жинсий ўз ўзини англаш шаклланади: биринчи навбатда ўзининг қайси жинсга мансублиги ҳақида тўғри тасаввур шаклланади, 3-4 ёшга келиб болалар атрофдаги одамларни ташқи жинсий белгиларига қараб фарқлашлари мумкин (кийими, ташқи кўриниши, бадан тузилиши ва жинсий органлари, овозининг тембри ва бошқалар). Сўнг жинсий органларга, ҳайвонлар ва инсонларнинг ўзини тутиши ҳамда уларнинг ўзаро жинсий муносабатлари элементларини қайд қилишга қизиқиш пайдо бўлади, катталардан бадан тузилиши, боланинг туғилиши, никоҳ тўғрисида сўрайдилар, жинсий муносабатни имитация қилувчи “оила”, “доктор-доктор” ўйинларни ўйнайдилар, бундай ўйинларга кўп ҳолларда кийимларни ечиш, жинсий органларни кўриш ва намоиш қилишлар киради. Бундай ёшдаги болалар криминал вазиятни ўйин ёки жазо сифатида баҳолаши мумкин. Жабрланувчи сифатида улар ҳодисанинг фақат ташқи, формал томонини идрок қилиб, уларга нисбатан содир этилаётган ҳаракатларнинг на характери, на моҳиятини тушуниб етмайдилар» [7].

В.Л. Васильев таъкидлашича, «7-13 ёшдаги давр психосексуал ривожланишнинг иккинчи босқичига тўғри келади, унинг асосий характе-ристикаси боланинг психофизиологик хусусиятлари ва микроижтимоий муҳитда ҳукмрон эркаклик ва аёллик стереотиплари асосида болада жинсий рол стереотипининг шаклланиши ҳисобланади. Бу даврда болаларнинг тахминан ярмиси жинсий алоқа тўғрисида маълумотга эга бўлади, учдан бир қисми қарама-қарши жинс болалар билан сексуал ўйинларда иштирок этади, болаларнинг жинсга мансублиги белгилари бўйича ажратилиши кузатилади, шундай тарзда эркаклар ва аёлларга хос стереотип ишлаб чиқилади, фарқланади ва ўзлаштирилади. Жабрланувчининг жинсий ролга оид ўзини тутишининг, ҳулқининг шаклланганлик даражасига боғлиқ равишда унга нисбатан содир этилаётган ҳаракатларнинг характери ва моҳиятини тушуниш қобилияти тўғрисида ҳулоса чиқариш мумкин. Иккинчи босқич шаклланишининг тугалланмаганлиги бундай жабрланувчининг унга нисбатан содир этилаётган ҳаракатларнинг фақат характерини, фактик томонини

тушуниши, айбланувчи ҳаракатларининг моҳиятини тушуниб етмаслиги тўғрисида ҳулоса чиқаришга олиб келади» [6].

Бизнинг фикримизга кўра, вояга етмаган жабрланувчиларнинг психосексуал ривожланганлик даражаси зўрлаб номусга тегиш бўйича суд-психологик текширишда устунлик қилмаслиги керак, чунки ҳам бизнинг авлод, ҳам олдинги авлод ўсмиралари учун ўсмирлик даври чегаралари “жинсий аҳамиятга эга омилни” чеклайди.

Ф.С. Сафуановнинг фикрича, жабрланувчида унга нисбатан содир этилаётган зўрлаш ҳаракатларининг жинсий йўналганлиги ва ижтимоий аҳамиятини тушуниш қобилиятининг сақланиши криминал вазиятнинг хусусиятлари (мураккаблиги, структураси ва динамикаси) билан ўзаро таъсирда бўлган кўплаб психологик омилларга боғлиқ, улар ичида етакчилари қуйидагича:

1. Экспертиза қилинувчининг психик ривожланиш даражаси;
2. Жабрланувчининг криминал вазиятдаги эмоционал ҳолати.

А.А. Реан концепциясига кўра, жабрланувчининг зўрлаб номусига тегиш оқибатидаги аҳволини икки жиҳатдан келиб чиқиб талқин қилиш мумкин:

1) жабрланувчининг жинсий муносабатлар соҳасида амал қилувчи ижтимоий, ахлоқий меъёрларни билиши;

2) экспертиза қилинувчи шахс томонидан мазкур меъёрларнинг қабул қилиниши [8].

Муаллифнинг фикрича, билим (“никоҳсиз эрта жинсий алоқаларни барча одамлар ахлоқсиз деб ҳисоблашини биламан”) шахсий нуқтаи назарга (“бу ҳеч қандай ваҳимали иш эмас”) мос келмаслиги ҳоллари бўлиши мумкин. Жабрланувчининг ахлоқий меъёрларни шахсан қабул қилмаслигини тадқиқ қилинаётган вазиятни тушунмаслиги деб талқин қилиш ва бунга мос равишда унинг аҳволини психик жиҳатдан ожиз аҳволда деб ҳисоблаш ҳато бўлади. Кўрилаётган вазиятнинг парадоксал-лигига (кескин фарқлигига) қарамасдан, деб таъкидлайди муаллиф, яъни бир томондан, жабрланувчининг зўрлаб номусига тегилганлиги тўғрисидаги ариза, иккинчи томондан эса – келиб чиққан оқибатларга у томонидан ахлоқий жиҳатдан салбий баҳо берилмаганлиги. Зўрлаб номусга тегиш тўғрисидаги ариза ташқи стимуллар таъсири остида: жамоатчиликка маълум бўлиши, қариндошларнинг таййиқи ва ҳ.к. натижасида берилиши ҳоллари учрашини ҳисобга олиш зарур.

Бизнинг фикримизча, жабрланувчининг зўрлаш вазиятига жалб қилиниши ситуатив характерга эга бўлиши мумкин, бунда айбланув-чининг унга нисбатан содир этаётган ҳаракатлари ахлоқсизлигини билиш унинг қаршилиқ кўрсатишга лаёқатсизлиги билан мос келиши мумкин. Мазкур ҳолда биз қуйидаги вазиятларни ажратамиз: ахлоқий қадриятларнинг аниқ эмаслиги, ғаразли моддий манфаатдорлик, зўрлаш фактининг ўзига бепарволик билан қараш ва уни жинсий жиҳатдан тан олинishi сифатида идрок қилиш, жабрланувчиларнинг - ижтимоий жиҳатдан эътироф қилинмаган ўсмирларнинг ўзига ўзи берадиган баҳосини ошириш эҳтиёжини қондиришдек тушунилиши. Зўрлаб номусга тегиш бу – кучли руҳий жароҳат келтириб чиқарувчи ҳодисадир, у ўз навбатида ички мослашув (адаптация) механизмлари ва ташқи дунё ўртасидаги мувозанатни бузади. Нейдельсон ва бошқалар (1998г.) фикрларига кўра, зўрлаб номусга тегиш стресснинг барча жиҳатларига эга ва жинсий тажовуздан жабрланган кишининг

мослашув механизмларининг бутунлигига хавф туғдирувчи экстремалликни ўз ичига олади.

Шундай қилиб, юқорида келтирилган муаллифлар фикрлари нуқтаи назарларини ҳисобга олган ҳолда, биз вояга етмаган жабрланувчиларга нисбатан содир этилган жинсий тажовуз бўйича психологик текширувда қуйидаги омилларни ажратишни мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз: зўрлаб номусига тегишдан жабрланганларнинг психологик ёши, криминал тўқнавушдаги жабрланувчининг эмоционал ҳолати, индивидуал психоло-гик мойилликлари ва жинсий тажовуз фактига жароҳатдан сўнгги (посттравматик) реакцияларидир.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ

1. Выготский Л. С. Собранные сочинения, т. 4. – М., 1983. – С. 260.
2. Эльконин Д.Б. К проблеме периодизации психического развития в детском возрасте. // Вопросы психологии. – № 4. 1971. – С. 7.
3. Нагаев В.В. Основы судебно-психологической экспертизы / Учебное. пос. для вузов. – М., 2000. – С. 16–22, 106–122.
4. Кудрявцев И.А. Судебно психолого-психиатрическая экспертиза. – М., 1988. – С. 180–190.
5. Нагаев В.В. Основы судебно-психологической экспертизы / Учебное. пос. для вузов. – М., 2000. – С. 16–22, 106–122.
6. Васильев В.Л. Юридическая психология / Учебник для вузов. 6-е изд. – СПб. 2009. – С. 352 – 356, 518 – 523.
7. Догадина М.А., Смирнова Т.А., Ткаченко А.А. Некоторые особенности судебно-психиатрической экспертизы несовершеннолетних потерпевших - жертв сексуального насилия // Социальная и судебная психиатрия. История и современность. М., 1996. С. 356- 358.
8. Реан А.А. Судебно-психологическая экспертиза по делам об изнасиловании // Психологический журнал, – №2. 1990. – С. 74-81.

Тохтиярова Ш.Э.
PhD, ўқитувчиси,
Махаммадиева Ю.Р.
магистри
Низомий номидаги ТДПУ
(Тошкент, Ўзбекистон)

АЛАЛИЯГА ЭГА БОЛАЛАР НУТҚИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Ушбу мақолада мотор алалияга эга катта мактабгача ёшдаги болаларда нутқнинг психологик базасини шакллантиришни, восита соҳасини, нутқни шакллантиришнинг артикуляцион шартларини назарий ўрганиш натижаларини таҳлиллари келтирилган.

Калит сўзлар: алалия, мотор алалия, сўзнинг бўғин тузилиши, кинестетик ва кинетик праксис.

В данной статье представлен анализ результатов теоретического исследования сформированности психологической базы речи, моторной сферы, артикуляционных предпосылок к формированию речи у детей старшего дошкольного возраста с моторной алалией.

Ключевые слова: алалия, моторная алалия, слоговая структура слова, кинестетический и кинетический праксис.

The article presents the analysis of results of theoretical studies of formation of speech psychological basis, motor sphere, articulating backgrounds to the speech formation of preschool children with motor alalia.

Key words: alalia, motor alalia, syllabic word structure, kinesthetic and kinetic praxis.

Алалияда нутқ бузилишлари системали характерда бўлиб, унинг барча таркибий қисмлари учун хос: фонетик-фонематик ва лексик-грамматик.

Устунлик қилувчи белгилари бўйича болаларни фонетико-фонематик ривожланмаганлик устунлик қилувчи гуруҳга (улар камчилик) ва лексик-грамматик ривожланмаганлик устун бўлувчи гуруҳларга бўлиш мумкин. Тахминларга кўра, биринчи гуруҳ-доминант ярим шар пўстлоғининг марказий мотор соҳаларидаги пастки бўлимларнинг дастлабки жароҳатланишларига асосланади. Бу ерда артикуляцион ҳаракатларни бажаришда ёки умумий мускултурада (бошқа ҳаракатларни бажаришда) келиб чикувчи мушаклар, пайлардан гуруҳ мия пўстлоғи мотор соҳасининг олдинги бўлимлари жароҳатланишига асосланади.

Алалияли болаларда талаффуз тизими ривожланиши сифат ва миқдори жиҳатидан ўзига хослиги билан характерланади. Бу барча болаларда у ёки бу даражада ва нутқий ривожланишнинг ҳар бир этапида намоён бўлади.

Нейрофизиологик жиҳатдан ёндошилган ишларда артикуляцион бузилишлари бош миянинг маълум бир пўстлоқ зоналарининг шаклланмаганлиги билан боғлиқ кўрсатилади (Р.А. Белов – Давид, А.Н. Траугатт).

Психолого-педагогик жиҳатдан ёндошилган ишларда /Р.Е. Левина, В.К. Орфинская, А.К. Маркова, Е.Г. Корицкая, В.А. Минашина, Е.Ф. Собонович, Усанова В.Х./ алалияли болаларда нутқнинг фонематик бузилишлари лексик ва грамматик ривожланиш хусусиятлари билан ўзаро болиқ деб баён этилади. Нутқнинг фонетик ривожланиши луғат бойлигининг ривожланиш даражасига боғлиқ.

Бир қатор ҳолларда товушлар луғат ривожланиши таъсири остида спонтан ҳосил бўлади, бироқ уларни сўз таркибиде қўллаш маълум миқдордаги қийинчиликлар билан боғлиқ. Алоҳида товушларни улар томонидан тўғри талаффузи шароитида ҳам бола томонидан сўзнинг товуш таркибини кўчириб ёзишдаги кўп сонли хатолар бунга гувоҳлик беради.

Айрим ҳолларда луғатнинг кенгайиши янги товушларни ҳосил бўлишига олиб келса, айрим ҳолларда эса аввал алоҳида артикуляциялар вужудга келади, сўнг улар сўзларда мустақамланади. Нутқнинг алоҳида таркибий қисмларини бир бутун ҳолатга келтириш имкониятларида қийинчиликлар кузатилади.

Алалияда мураккаб ҳаракат дифференцировкалари қийинчилик билан ўзлаштирилади, динамик артикуляцион стереотик шаклланмайди – товушларни тўғри ёки нотўғри такрорлаганда товушларнинг бирикиши қийинлашади. А.Р. Луриянинг таъкидлашича алалияда ўтган артикуляция денервациясида қийинчиликлар ва бир артикуляциядан иккинчисига силлиқ ўтишда қийинчиликлар аниқланган. Бу товуш ва бўғинлар ўрнини ўзгариб қолишга, сўз тузилишининг соддалашиши ва бузилишига олиб келади.

Алалияли болаларда нутқ аппаратининг нозик ҳаракат координациялари шаклланмайди. Нутқ ҳаракат анализаторининг аномитик – синтетик бузилишлари турли кўринишларга эга: орал апраксия, кетма-кетликнинг бузилиши ва ҳоказо. Бунда керакли артикуляция ҳолатини излаш, маълум бир артикуляция ҳаракатини бажара олмаслик, кетма-кетлики эгаллашда қийинчиликлар кузатилади. Бу ҳолларда нутқий артикуляция бузилишларини белгилловчи ҳаракат бузилишлари етакчи ўрин эгаллайди. Шунингдек кинетик ва кинестетик апраксиялар оқибатида нутқнинг фонетик ва фонематик томонларида камчиликлар кузатилади. Нутқ аппаратидан бош мия пўстлоғига борувчи кинестетик импульслар билан боғлиқ артикуляция ҳаракатлари нормал шароитда товуш тахлили ва тавсифи жараёнида муҳим ўрин эгаллаб, сўзнинг товуш таркибини аниқлаш, керакли товуш кетма-кетлигини сақлашга ёрдам беради. Алалияда эса бола сўзнинг керакли товуш кетма-кетлигини аниқлашга қийналади, бир сўзни иккинчи бир сўз билан алмаштира олмайди. Бу эса парафазиянинг кўпайишига, асосий сабаб жараёнларининг ҳаракатчанлигининг бузилишларидан далолат берувчи камчиликлар, яъни персеверация в.к., қўзғалиш ва тормозланиш ўчоғларидаги камчиликларга олиб келади. Бунинг натижасида эса, болада эшитиш ва нутқни тушуниш етарлиги сақланган ҳолда, нутқни мустақил ривожланишига тўсқинлик қилувчи артикуляция мускулатурасининг парез ва лаб параличлари кузатилмаганда, нутқ мустақил равишда ривожланмайди, узоқ вақтгача у айрим товушлар талаффузи билан чекланади.

Мия пўстлоғи ривожланмаганлиги даражаси қанчалик юқори бўлса, нутқ функцияларининг шаклланмаганлиги шунчалик чуқур ва қўпол бўлади. Артикуляцион праксис бузилишлари ва нутқий ҳаракатларнинг орасида бевосита алоқа мавжудлиги кузатилган, бинобарин бир томондан нутқнинг фонетик тизими, икки томондан нутқни тушуниш, идрок қилиш.

Алалияда майда артикуляцион ҳаракатларнинг бузилиши, нутқ ҳаракат анализатори мия томони тонусининг пасайишига олиб келади, бунинг натижасида заиф ва нозик кинестетик импульсларни идрок қилиш қийинлашади ва ҳатто бутунлай чекланади. Пўстлоқ томонилан фақат бирмунча йирик кинестезиялар қабул қилинади ва таҳлил қилинади. Бунинг натижасида, мотор алалияда, гоҳида ўзига қаратилган нутқни етарли идрок қилолмаслик, грамматик шакллар ва кенг ёзилган матнни тушунишни секинлашуви ва қийинлашуви кузатилади. Н.Н. Трауготт маълумотида кўра мотор алалияли 70% болалар ўзига қаратилган нутқни тўла тушунадилар, 20% болаларда тушуниш биров пасайган ва 10% болалар ёмон тушунадилар, бироқ бундай ҳолларда болаларнинг ўз нутқи ҳар доим тушунишига қараганда ёмонроқ бўлади.

Кўпинча, товушларни аниқ идрок қилолмаганидан болалар, фразаларнинг фақат алоҳида элементларини илиб оладилар ва уларни ягона мазмун тузилишга боғлай олмайдилар. Тушунишнинг бундай чегараланганлиги асосий нуқсоннинг иккиламчи кўриниши ҳисобланади.

Ҳаддан ташқари камбағал фаол нутқга эга бўла туриб, болалар етарлича пассив луғатга эга бўлишлари мумкин. Бир қарашда нутқни тушуниш ҳолати шубҳа туғдирмаслиги мумкин, аммо нутқнинг мураккаб вариантларини тушунишда барибир айрим қийинчиликлар бўлади. Тушунишнинг турли даражалари аниқланган: грамматик шаклларни бутунлай тушунмаганликдан, ягона грамматик конструкцияларни тушунишдаги алоҳида қийинчиликларгача.

Фонематик тасаввурларнинг диффузлиги, товушни идрок қилиш ва қайта такрорлашнинг ноаниқлиги, сўзнинг товуш ва бўғин таркибида заиф мўлжал олиши ҳолатлари, болаларда, сўз ва ибораларнинг структурали шаклланмаганлиги, грамматик воситаларни қўллашда етарлича вариативликнинг камлиги асосида кузатилади.

Сўзларни акс эттиришда бола сўз ўрнига шунга яқин келуви ноаниқ товушлар комплексини ифодалайди, бир сўзнинг бир нечта бузилган вариантларини қўллайди: “фрэл”, “вараль”, “фараль”-феврал. Луғат бойлигининг кўпайишига қараб, сўз структурасини эгаллашдаги қийинчиликлар бирмунча сезиларли бўлиб қолади. Бундай бузилишлар миқдори бирданига ўсиб кетади. Нутқий оқимда нотўғри айтилган сўзлар кўп бўлади.

Мотор алалияли болаларда луғат бойлиги секин, нутқий амалиётда нотўғри фойдаланилган ҳолда ривожланади.

Лексик-семантик воситаларнинг камбағаллиги ўхшашлиги, яқинлиги, бир-бирига зидлиги бўйича турли хил алмаштиришларга олиб келади (пиёла-идиш). Кўпинча предметларнинг ташқи белгилари бўйича алмаштиришлар кузатилса, камроқ функцияларига асосланганлар кузатилади (ички белгилар). Сўзарни аҳамияти бўйича алмаштириш бола нутқи ривожланишининг бирмунча юқори даражасини характерлайди. В.К. Воробёванинг кўрсатишича, аҳамиятнинг диффузлиги ва

алмаштириш кўпинча отларга нисбатан феълларни қўллашда кузатилади. Болалар синоним, антоним, умумлаштириувчи сўзлардан фойдалана олмайдилар. Уларда сифат, равиш заҳиралари бир хилда ва жуда тор. Нутқ ривожланишининг барча этапларида луғатни фаоллаштириш қийинчилиги, болаларнинг луғат заҳирасидан сўзларни тўғри танлай олмаслиги ва тўғри қўллай олмаслиги аниқланади.

Бундай болаларнинг луғат бойлиги кундалик-турмуш мавзулари билан чекланиб, бола сўзни маъносини тушунтириб бера олмайди, сўз ҳосил қилиш воситаларидан фойдалана олмайди.

Болалар от ва феълни нутқда мувофиқлаштиришда қийналадилар, қўшимча ва боғловчилардан фойдаланмайдилар, уларнинг нутқида турдош ва сон қўшимчаларининг аниқлиги йўқ ва ҳ.к. Мазмун фарқловчи олд қўшимчаларни нотўғри қўллайдилар. Турланганда сўз охирининг ўзгаришдан маҳрум ўзак сўзлар устунлик қилади, баён қилишнинг морфологик тўлдирилмаганлиги кузатилади. Алалияли болаларда грамматик воситаларни қўллашда варитивлик етишмайди; деярли барча грамматик шаклларни фарқлаш ва қўллаш мураккаблашгандир. Болалар тил ҳодисаларини кузатаолмайдилар, таҳлил қилолмайдилар, умумлаштиролмайдилар, нутқий материал устидан фикрлаш операциясини амалга оширолмайдилар, нутқий белгини тушуниб тўғри қўллай олмайдилар. Улар от, феълларнинг сонли шакллари эгаллашда қийналадилар, шаклсиз ва флексийсиз, ўзгармайдиган сўзлардан фойдаланадилар (“китоб, лола” ва илтимос жести). Бундай аморф иборалар, аниқ грамматик бирикмаларсиз (флексия, боғловчи ва бошқа воситаларни талаб қилувчи) фақат маълум вазиятлардагина тушунарли бўлади.

Алалияли болаларда гап шаклланиши жараёни, ривожланишнинг барча этапларида бир қатор хусусиятларни намоён қилади. Аграмматизмнинг турли кўринишлари кузатилади (экспрессив аграмматизм-шахсий нутқнинг грамматик қурилишини бузилиши, импрессив-грамматик конструкцияларни тушунишдаги қийинчиликлар): структурали аграмматизм, семантик аграмматизм ва гапда сўзларни нотўғри боғлаш билан боғлиқ аграмматизм.

Структурали аграмматизм деганда сўз тартибининг бузилиши, гапда сўзларнинг миқдори ва кетма-кетлигини бузилиши тушунилади. Аграмматизмнинг бу кўриниши, нисбатан оғир нутқий шаклланмаганликда кўпроқ кузатилади. Бола имо-ишора билан бирга бир, иккита сўзлар билан жавоб беради. Лексик-грамматик, фонетик воситаларнинг етишмаслигидан болада мулоқотнинг мимика-имо-ишора шаклининг ривожланиши кузатилади. Фикрни ифодалаш учун у кўпинча отнинг номинал шаклини тўғри ёки бузилган келишикларда ифодалайди. Алалияда грамматик қурилиш секин ва нотекис ривожланади, шакл ўзгартириш ва шакл ҳосил қилишда камчиликлар кузатилади, грамматик мезонлар ўзлаштирилмайди, синтактик конструкциялар соддалиги билан фарқ қилади.

Сўзларнинг лексик-грамматик вариативлиги ва грамматик конструкцияларни қўллашда уйғунликни етишмаслиги, камлиги характерли ҳисобланади. Семантик эквивалентлар тўплами ва қулай грамматик воситаларнинг йўқлиги, мазмун ўрнини босишга, бир қатор сўзлар ва грамматик моделлар ичидан танлашнинг (берилган контекст учун муҳим) чегараланганлигига олиб келади.

Бу ҳолда, алалияли болаларда нутқнинг ривожланмаганлиги мулоқот мотивациясининг шаклланмаганлиги билан, фаолиятнинг турли компонентлари фаоллигини бузилиши билан уйғунлашади.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:

1. Визель, Т.Г. Основы нейропсихологии: учебник для студентов вузов / Т. Г. Визель. - М.: АСТАстрель Транзиткнига, 2005. - 384 с.
2. Глозман, Ж.М. Нейропсихологическая диагностика в дошкольном возрасте / Ж.М. Глозман, А.Ю. Потанина, А.Е. Соболева. - СПб.: Амтер, 2006. - 80 с.
3. Громова, О.Е. Изучение детского лексикона на ранних этапах развития речи / О.Е. Громова // Дефектология. - 2003. - № 6. - С. 55-60.
4. Громова, О.Е. Норма и задержка речевого развития у детей 2-3 лет: разработка анкеты для дифференцированной оценки речи в раннем возрасте / О.Е. Громова // Дефектология. - 2009. - № 2. - С. 66-77.
5. Ковшиков, В.А. Экспрессивная алалия и методы ее преодоления / В.А. Ковшиков. - СПб.: КАРО, 2006. - 304 с.

SECTION: PEDAGOGY

Botashev Innatullo Qo'ng'irovich
Qashqadaryo TXQTMOHM
(Qarshi, O'zbekiston)

MAKTABDA IQTIDORLI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH METODIKASI

Bugungi kunda jamiyatdagi odamlar ijtimoiy taraqqiyot jarayoni davomida intellekt, zehn yoki ijod mahsuli bo'lgan g'oya ham mulk ekanligini aniq va ravshan anglab yetdi. Intellektual mulk deb ataladigan bu boylik, turli sohalarning turlicha ko'rinishlarida o'z ifodasini topmasin, bu jamiyat taraqqiyotining asosiy omili, ma'naviy va moddiy boyligidir. Insoniyat va jamiyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shishga qodir asosiy boylik egasi, intellekt mulk sohibi, aql-zakovati cheksiz, rivojlanish imkoniyatiga ega bo'lgan mukammal shaxs o'zining tafakkuri bilan ijod qiladi, turli kashfiyotlarni yaratadi.

Shu sababli bugungi kunda axloqan sof, mantiqiy tafakkuri kuchli, aqliy madaniyati yuqori bo'lgan o'quvchilarga e'tiborni kuchaytirish, ularni maxsus o'qitish va har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadga muvofiqdir. Kelajak avlod, jamiyat taqdirini aynan shunday iste'dodli, zukko farzandlar belgilaydi. Shunday ekan, ta'lim muassasalari o'quvchilari orasidan asosli ravishda iqtidorlilarini tanlab, ularni layoqati, qobiliyati va qiziqish yo'nalishlariga qarab u yoki bu sohaga, kasb-hunarga to'g'ri yo'naltirish ta'lim tizimi mutaxassislarining oldida turgan eng asosiy vazifalardan biridir.

Bu xususiyat, ayniqsa, umumta'lim maktablarida ishlash jarayonida boshqa bolalardan o'zining u yoki bu shaxsiy sifatлари bilan ajralib turadigan bolalarda yaqqol ko'rinadi. Bulardan biri iqtidorli bolalarni saralash, ular bilan ishlash, qiziqishlari, qobiliyatlarini o'rganib, iqtidorlikni rivojlantirish.

Ta'lim tizimida iqtidorli bolalarni saralash va ularning bilim olishlarini to'g'ri tashkil etishda yechimini topishi kerak bo'lgan muammolar hali talaygina. Bu muammolarni bartaraf etish uchun, eng avvalo, har bir pedagog, ota-ona va tarbiyachi boladagi iste'dodni ko'ra bilishi va uni his eta olishi lozim. Buning uchun esa, ular "iste'dodli" yoki "iqtidorli" bolaning individual psixologik va fiziologik xususiyatlari haqida umumiy ma'lumotga yoki tasavvurga ega bo'lishlari shart.

Shu o'rinda maktab rahbari va maktab psixologi bilim olishga intilayotgan iqtidorli bolalar bilan olib borilishi lozim bo'lgan ishlari haqida qisqacha to'xtalib, ularga xos bo'lgan ba'zi bir psixologik-fiziologik xususiyatlarni ko'rsatib o'tishni lozim deb topdik.

Iqtidorli bolalarni aniqlash yo'llari. Iqtidorning ilk ko'rinishi bolaning yoshlik chog'ldanoq namoyon bo'la boshlaydi. Bu bolada nutqning erta paydo bo'lishiga sabab juda ko'p lug'at boyligiga egalidadir. Ular tevarak-atrofdagi sodir bo'layotgan voqealarga qiziquvchan bo'ladilar. Mutaxassislarining e'tirofi etishicha, iqtidorli bolalarning xotiralari juda yaxshi rivojlangan bo'lib, ularda uzoq muddatgacha bo'lib o'tgan voqea-hodisalarni, ko'rgan-bilgan narsalarini eslab qolish va kerak paytda uni yana qayta xotirada tiklash imkoniyatlari kengdir.

Iqtidor yoki iste'dod asosan uch o'zaro bog'liq parametrlar bilan aniqlanadi: bilimlar darajasining rivojlanishidagi ustunlik, psixologik rivojlanish va fiziologik sifatlar.

Bilish jarayonlari: bir vaqtning o'zida bir necha ish bilan mashg'ul bo'lish, qiziquvchanlik darajasining kengligi, kuchli xotira va diqqatni bir joyga to'play olish imkoniyatining mavjudligi.

Psixologik rivojlanish: xayolning o'ta rivojlanganligi, hissiyotlarda realikka moyillikning kuchliligi, hazil hissining mavjudligi, har qanday topshiriqlarni yechishga harakat qilish, ba'zida qo'rquv holatini oshirib yuborish hamda egotsentrizmning kuchliligi.

Fiziologik sifatlar: iqtidorlilarda ikki xil stereotip mavjud: biri o'zg'in, kichkina, nimjon yoki uning aksi. Ular juda kam uxlashadi.

Iqtidorli bolalar bilan ish olib borishda nimalarga e'tibor berish lozim?

- har bir boladagi qobiliyat o'ziga xos takrorlanmasdir. Ular turli narsalarga qiziqishlari mumkin. Oddiy maktabda musiqaga qobiliyati bor o'quvchini ham ajrata olmaslik mumkin. Ba'zi bir bola esa yuqori intellekti bilan ajralib turadi, lekin bu bolaning o'zini baholash mezonini juda past bo'lishi mumkin. Asosli ravishda har bir bolaning kuchli va kuchsiz tomonlari o'rganilgandan so'ng ular bilan ishlash rejasi tuzilishi lozim.

Iqtidorli bolalar o'zlariga nisbatan juda talabchan va tanqidchan bo'ladilar. Qarindoshlarining ta'siri iqtidorli bolalar uchun juda muhimdir, ular yaqinlarining fikrini inobatga oladilar. Yuqori intellekt va jismoniy rivojlanishning mos kelmasligi bolada noqulaylikni vujudga keltirishi mumkin.

1. Iqtidorli bolalarning rivojlanishi va kamol topishida oilaning o'rni juda kattadir. Agar oila, maktab o'zaro doimiy aloqada bo'lsa, bu eng yaxshi natijani berishi mumkin.

2. Iqtidorli bolalar uchun turli xil ish rejalarini ularning qiziqishlari va ehtiyojlarini inobatga olgan holda tuzish lozim.

3. Iqtidorli bolalar oddiy bolalar bilan o'qigan taqdirda ham, ularga iste'dodli boshqa bolalar bilan muloqot qilish imkoniyatini yaratish kerak bo'ladi.

4. Iqtidorli bolalarni o'qitish uchun tuzilgan rejani shu sohadan xabardor bo'lgan rahbarning o'zi nazorat qilgan taqdirdagina samara berishi mumkin.

Doimiy faoliyatdagi tizimning yaxshi rejalashtirilgan namunali dasturini ishlab chiqish va bunda ota-onaning o'rnini ham ta'kidlab o'tish zarur.

Optimal dastur bolaning bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tishini ta'minlashi zarur.

Dastur qat'iyatlilik va maqsadga intilishni rivojlantirishi kerak. Buning uchun bolalarning iqtidori yuqori bo'lishi juda katta ahamiyatga ega emas. Maqsadga intilish va boshlagan ishini oxirigacha yetkazish muhim.

Dasturning asosiy maqsadlaridan biri ijodiy qobiliyatni rivojlantirishga qaratilganligidir.

Iqtidorli bolalar bilan ishlashda tajribali, talantli tarbiyachi, o'qituvchilarni jalb qilish maqsadga muvofiq. Bunday mutaxassislar maktabga ham, kollejga ham, ota-onalarga ham juda zarurdir.

Fikrimizni xulosa qilib aytadigan bo'lsak, iqtidorli bolalarni aniqlash juda murakkab masala. Chunki bu jarayon bir qator psixologik, pedagogik va ijtimoiy shart-sharoitlarni amalga oshirishni talab qiladi. Bular muntazam aniq maqsadga yo'naltirilgan holda ish olib borish, iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashning yaxlitligi, iqtidorlikni rag'batlantirish, iqtidorli bolalar bilan ishlashda o'qituvchilar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, maktab va ota-onalar hamkorligi, o'qituvchilarning iqtidorli bolalar bilan ishlashda yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishidan iborat.

Iqtidorli bolalar bilan maxsus ishlar olib borish qobiliyatli o'quvchilarni kelajaqda o'z Vataniga, xalqiga foyda keltiradigan, uning nomini butun jahonga tanitadigan, olimlar, sportchilar, davlat arboblari, siyosatchilar sifatida tarbiyalab voyaga yetkazishga imkon beradi. Iqtidorli bolalar o'zlarini namoyon qilolmay qolib ketishlari mumkin, ularning qobiliyatlari yuzaga chiqmay qolib ketmasligi uchun sinf rahbari, fan o'qituvchilari va maktab psixologi harakat qilishi va ular bilan muntazam ravishda ish olib borishlari lozim.

Maktab psixologi faoliyatining foydali tomoni shundaki, u psixologik sharoitni yarata bilishi va o'quvchilarni komil, sog'lom qilib tarbiyalash imkoniyatlarini izlab topa olishi lozim. U o'quvchilar faoliyatidagi hali ochilmagan tomonlarni ko'ra bilishi, yosh va psixologik xususiyatlariga asoslangan holda ularda o'zlariga ishonch hissini shakllantira olishi kerak.

Avvalambor, maktabda iqtidorli bolalarni aniqlashda rahbar psixolog bilan hamkorlikda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

1. Iqtidorli bolalarni baholashni (qobiliyatlari qay darajada ekanligi, ayniqsa, qaysi qobiliyatlar yuqoriligini) kompleks ravishda amalga oshirish lozim.

2. Iqtidorli bolalarni aniqlash uzoq davom etadigan jarayondir, shunda olingan natijalar ob'yektiv bo'ladi.

3. Iqtidorni aniqlashda psixotrening mashg'ulotlari (bolani tekshirishdan oldin undagi stress holatini yuqotish, bolani ruhiy tayyorlash) samarali natija beradi.

4. Iqtidorli bolalarning imkoniyat darajasini aniqlashda sun'iylik bilan cheklanib qolmay, sun'iydan olingan natijani real hayotda qo'llash kerak.

5. Iqtidorli bolalarni aniqlashda turli mutaxassislar (psixolog, pedagog, fiziolog, ota-onalar, tengdoshlari)ning bergan bahosi alohida ahamiyatga egaligiga e'tiborni qaratish.

6. Boladagi iqtidorni aniqlashda bolaning o'ziga bergan bahosi ham alohida ahamiyatga ega ekanligini hisobga olish muhimdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, hozirgi zamonaviy maktab rahbariga qo'yiladigan talablar doirasida rahbar iqtidorli bolalarga e'tiborni qanchalik yuqori qo'ysa, ularga o'z qobiliyatlarini rivojlantirishi va namoyon etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishi lozim. Shu bilan birga, fan o'qituvchilari iqtidorli bolalarning qalbi va ongiga qay darajada kirib borishi, ularni qo'llab-quvvatlashi va yo'naltirishi, ota-onalar bilan hamkorlikda ish olib borishi, ularning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, iqtidorli o'quvchilarning ta'lim-tarbiya jarayonida erishgan muvaffaqiyatlarini o'z vaqtida rag'batlantirib, ta'kidlab turilishi nihoyatda zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ivanov. P.I, Zufarova. M.YE. Umumiy psixologiya. Toshkent: O'zbek faylasuflari milliy jamiyati. 2015. - 127 b.
2. Soatov. A.J. Bo'lajak pedagog-psixologlarda psixologik maslahat berish ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi. 2020.

Djo'rayeva Zulayxo Xo'jamovna
Qarshi shahar 1-DMTT direktori
(Qarshi, O'zbekiston)

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA ILK MATEMATIK TASAVVURLARINI
RIVOJLANTIRISHNI «ILK QADAM» TAYANCH DASTURI ASOSIDA AMALGA OSHIRISH**

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ilk matematik tasavvurlarini shakllantirishning rivojlanganligi ularning maktabga sifatli ta'lim olishini ta'minlaydi. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat dasturida «Bilish jarayonining rivojlanishi» sohasi kompetensiyalari quyidagicha belgilangan. «Bilish jarayonining rivojlanishi» sohasidagi o'quv-tarbiyaviy faoliyat yakunida 6-7 yoshli bola:

- bilim olishga katta qiziqish bildiradi;
- o'quv va hayotiy faoliyat uchun axborotni mustaqil ravishda izlab topadi va undan foydalanadi;
- buyum, voqea, hodisa va holatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liq aloqalarini tushunadi va ularni yaxlit bir butunlik sifatida idrok qiladi;
- raqamlar, hisob-kitobni biladi va ularni hayotda qo'llaydi;
- makon, holat va vaqtga mos ravishda ish tutadi;
- matematik oddiy hisoblashlarni amalga oshiradi;
- atrof-muhitdagi voqea hodisalar va holatlarni kuzatadi hamda tadqiq qiladi;
- atrof-muhitni asrab-avaylash va g'amxo'rlik ko'rsatish munosabatni namoyon etadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya berishda eng asosiy vazifalardan biri bolalarga ilk matematik tasavvurlarini shakllantirish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini oshirish, diqqat va xotirasini shakllantirish, fazoviy munosabatlarni tushunish, matematik bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishdir. Ilk matematik tasavvurini shakllantirish mashg'ulotlar davomida bolalar umumiy bilimlarni o'rganish bilan birgalikda jamoa bilan kelishishni, o'zaro bir-birini qo'llab-quvvatlashni, o'ziga bo'lgan ishonch, mustaqil fikrlash, o'z fikrini chiroyli ifoda etish fazilatlari shakllanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida o'tkaziladigan matematik faoliyatlarida odatda ko'p turdagi buyumlar to'plamidan, ko'rgazmalardan foydalaniladi. Tarbiyachilar esa faoliyatlar davomida o'zlashtirgan matematik bilim va ko'nikmalarini bolalarga rivojlantirish uchun harakat qiladilar. Maktabgacha ta'lim muassasasining asosiy maqsad va vazifalaridan biri bolalarning bilish jarayonini rivojlantirishdagi ta'lim-tarbiyaviy faoliyat davomida buyum, voqea, hodisa va holatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqligi, raqamlar, shakllar, hisob-kitob, makon, vaqtga mos ravishda ish tutishni bilish kabi holatlarni shakllantirishdan iboratdir.

Matematik tasavvurlarini shakllantirish uchun bola tarbiyalanayotgan hayotiy vaziyat – unga qarov, atrofda kattalarning munosabati, ularning tarbiyaviy ta'siri, shuningdek, o'z faolligi (bolaning turli faoliyatdagi faolligi) katta ahamiyatga ega.

Maktabgacha ta'lim umuman olganda, uzluksiz ta'limning birinchi bo'g'ini hisoblanib, u maktabda o'qish uchun tayyor bo'lgan, sog'lom va to'laqonli shaxs sifatida shakllangan bolani tarbiyalashni ko'zda tutadi.

Bolani maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olishga tayyorlash maqsadida hamda har

tomonlarni barkamol rivojlanishi uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish zarur.

Bolalarda ilk matematik tasavvurlarini rivojlantirishni, «Ilk qadam» tayanch dasturi asosida amalga oshirish zarur. Ushbu dasturda atrof-olam haqidagi bilimlar doirasi va aqliy rivojlanishi, har bir yosh bosqichida bolalarda shakllanishi lozim bo'lgan aqliy rivojlanishida malaka va ko'nikmalar, kompetensiyalar belgilangan bo'lib, u shaxsning muayyan sifatlar (tezkorlik, kirishimlilik, aniqlik, mantiqiy to'g'ri fikrlik, o'ziga ishonch)ni tarbiyalash mashg'ulotlar davomida amalga oshiriladi.

Maktabgacha yoshidagi bolalarda ilk matematik tasavvurlarini shakllantirishni rivojlantirish "Ilk qadam" Davlat dasturida ilmiy asoslangan bo'lib, u butun mazmuni bilan bola shaxsini har tomonlarni rivojlantirishga qaratilgan.

Maktabgacha yoshidagi bolalarda ilk matematik tasavvurlarini shakllantirish bolalarning bilish qobiliyatini rejalari, aniq maqsadni ko'zlagan holda rivojlantirish, ularning atrof-olam haqidagi eng oddiy bilimlarini va tegishli matematik tasavvurlarini shakllantirish, mantiqiy fikrlash, aqliy faoliyatlarini oshirishda malaka va ko'nikma, kompetensiyalarni shakllantirish jarayonidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ilk matematik tasavvurlarini shakllantirishning asosiy shakli – o'yin faoliyatidir.

Didaktik maqsadlar bo'yicha quyidagi mashg'ulotlar turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- yangi materialni ma'lum qilish mashg'uloti;
- bilimlar, malaka va ko'nikmalarni mustahkamlash, kompetensiyalarni egallashga oid mashg'ulotlar;
- bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirishga oid mashg'ulotlar;
- yakuniy mashg'ulotlar yoki hisob-tekshiruv (nazorat) mashg'ulotlari.

Bolalarga ilk matematik tasavvurlarni shakllantirishni o'ragatishga doir mashg'ulotlar har bir guruhda bolalarning yosh imkoniyatlarini va har bir bolaning aqlan rivojlanganlik darajasini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Chunki bilimlar mazmuni, ularning tarkibi, metod va usullarni tanlash, haftasiga o'tkaziladigan mashg'ulotlar soni, har bir mashg'ulotning davomiyligi shunga bog'liq bo'ladi.

1 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalar tafakkurini rivojlantirishga doir mashg'ulotlarni didaktik o'yinlar, Mariya Montisori o'yinlari shaklida o'tkazish tavsiya qilinadi. Ular nafaqat ko'ngilochar tusga, balki albatta ta'lim tusiga ega bo'lishi lozim.

3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar tafakkurini rivojlantirish emotsional tusga ega bo'lishi lozim. Bunda mantiqiy o'yinlar, tarqatmali, ko'rgazmali qurollardan foydalangan o'yin usullari, ta'limiy hamda didaktik o'yinlarni keng qo'llash zarur.

5 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar tafakkurini rivojlantirishga doir mashg'ulotlar muayyan vazifaga ega, ya'ni u bolalarni maktabda o'qishga tayyorlashni ko'zda tutadi.

O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablarining elementar matematik malakalar bo'yicha kutilayotgan natijalari quyidagicha belgilangan.

1 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalarda:

- miqdorni "bitta", "ko'p" ga ajrata oladi
- predmetlarning rangi va shakliga qarab farqlaydi;
- predmetlarni kichigidan kattasiga qarab bir qator qilib joylashtiradi;

- shakllarni o'ziga mosini topadi (Segen doskasi).
- 3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalarda:
- predmetlarni 1-2 ta belgisi bo'yicha guruhlariga bo'ladi;
 - atrof-muhitdan "bitta" va "ko'p"ni topadi;
 - predmetlarni kattaligiga qarab topadi;
 - geometrik shakllarni (doira, kvadrat, uchburchak) shakllar (kub, shar)ni farqlaydi;
 - ko'plikni taqqoslaydi;
 - "uzunroq", "qisqaroq" tushunchalari ma'nosini bildiradi;
 - "yarim", "yarimtacha" tushunchalarini biladi;
 - sanoq va sonlar qatoridagi bog'liqlikni tushunadi;
 - mehanik tarzda 5 gacha sanaydi;
 - geometrik shakllarga o'xshash predmetlarni topadi;
 - geometrik figura va shakllarning nomini biladi;
 - miqdoriy aloqalarni belgilaydi;
 - sonning miqdoriy tarkibini biladi;
 - matematik tushunchalardan foydalanadi (ko'p, kam, jami, shuncha);
 - tartib bo'yicha sanaydi;
 - "ko'proq", "kamroq", "teng" tushunchalarini taqqoslaydi;
 - makonda o'z joyini aniqlay oladi (oldinda, orqada, tepada, pastda, yaqinda, uzoqda);
 - butun va uning qismlari tushunchasini tushunadi;
- 5 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarda:
- geometrik shakllarni biladi va ularni predmetlar orasidan ajratadi; predmetlarni uzunligi, eni, qalinligi va balandligiga ko'ra taqqoslaydi;
 - predmetlar guruhini taqqoslaydi;
 - muloqot davrida matematik atamalarni qo'llaydi;
 - belgilar tizimini tushunadi (son va belgilarni qo'llagan holda +, -, =);
 - 1 dan 10 gacha bo'lgan sonlarni to'g'ri va teskari sanaydi;
 - predmetlarni soni va sanog'iga qarab taqqoslaydi;
 - predmetlarni tengligi va tengsizligi guruhlarini aniqlaydi va ularni bir-biri bilan taqqoslaydi;
 - hayotda son va sanoqning ahamiyatini tushunadi;
 - geometrik shakllar va figuralarni biladi;
 - 20 gacha bo'lgan ayrim matematik amallarni bajaradi;
 - 10 gacha qo'shish va ayirishli sodda matematik masalalarni yechadi (son va belgilarni qo'llagan holda +, -, =)
 - son qatori haqida tushuchaga ega;
 - guruhlarini teng yoki teng emasligini tahlil qiladi (qanchaga ko'p?, qanchaga kam?);
 - hajmi, balandligi va qalinligiga qarab predmetlarni ketma-ket joylashtiradi;
 - shartli belgi asosida suyuq, sochiluvchan va qattiq materialni o'lchaydi.
- Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'tkazilayotgan faoliyatlar davomida pedagog matematikaga oid vazifalardan tashqari o'quv faoliyatini yo'lga qo'yish qobiliyatini shakllantirish (diqqat-e'tiborli bo'lish, pedagog topshirig'ini tinglash, tushunish va uni aniq bajarish, bolalar jamoasi oldida fikr yurita bilish, tengdoshining javobiga baho bera olish va

h.k.) vazifasini ham bajaradi;

- to'g'ri ta'lim berilgan taqdirda yetti yoshga kelib bola matematik masalalarni yechishni hamda raqamlar va ularning tartibi haqidagi bilimlarni egallay oladi;

- fikr yuritishda turli qismlarida taqqoslashlar, qiyoslashlar va solishtirishlarni qo'llaydi;

- savollarda tezkorlik bilan javob qaytarishga munosabat bildirib boshlaydi;

Bolalardagi ko'plab buyumlarni farqlash ko'nikmalari mashg'ulotlardan tashqarida shakllanadi.

O'yin faoliyati mobaynida pedagog ularni mustaqil buyumlarni taqqoslash faoliyatini shakllantiradi. Bolalarda mantiqiy fikrlash qobiliyati, xotirasi mashg'ulotlarda olingan bilim orqali mustahkamlanadi va faollashadi. O'yinlarda pedagogning ishtirok etishi bolalarning o'zlashtirishi, aniq va to'g'ri fikr yuritishini tarbiyalashga yordam beradi.

Qurilishga oid o'yinlarni tashkil etish jarayonida tarbiyachi bolalar uchun qiyin bo'lgan narsa-buyumlarning (miqdorni, hajmni va narsalarning fazoda joylashuvini belgilash va boshq.) katta guruhini aniqlashtiradi, faollashtiradi.

Didaktik o'yinlar yordamida bolalarda atrof-olam haqidagi bilimlar mustahkamlanadi, fikrlash doirasi kengayadi, aniqlashtiriladi va faollashtiriladi. Didaktik o'yinlar bolalarning diqqatini, xotirasini mustahkamlashni, malaka va ko'nikmalarni oshirishda qo'llaniladi.

Mantiqiy o'yinlar bolalarni har tomonlama rivojlantirishning qudratli vositasi bo'lib xizmat qiladi, u bolalar tafakkurini rivojlantirish va boyitishga ulkan ta'sir ko'rsatadi.

Maktabgacha yoshidagi bolalarda ilk matematik tasavvurlarini shakllantirishbola faoliyatining o'quv, didaktik o'yin va ta'limiy, mantiqiy o'yin kabi shakllarida amalga oshadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi. – T.: 2018.
2. Муродов Мухитдин Кадырович 2021. Роль самостоятельного обучения в формировании профессиональных навыков будущих учителей музыки в системе непрерывного образования. 4, 4 (апрель 2021 г.), 149–152. DOI: <https://doi.org/10.31149/ijie.v4i4.1625>.
3. Internet saytlari: www.edu.uz, www.Pedagog.uz, www.Ziyonet.uz

Eshonqulova Sarvinoz Yunusovna
Toshkent shahar Uchtepa tumani 116 – maktab
matematika – informatika fani o'qituvchisi
(Toshkent, O'zbekiston)

O'QUVCHIM KEIAJAGI UCHUN

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yunalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida fan va ta'lim sohasini isloh qilish, tizimni zamon talablari asosida rivojlantirish bo'yicha muhim vazifalar belgilangan. Bu o'quvchilarni zamon talablari asosida tarbiyalash bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. O'qituvchilar zimmasida ulkan mas'uliyat yuklaydi. O'qituvchi o'z sohasining mohir bilimdoni muammolarning oqilona yechimlarini topa oladigan, o'quvchilari qalbidan munosib o'rin egallagan bo'lishi lozim. Shuning uchun ham bugungi kunda o'qituvchining kasbiy kompetentligi masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu muammolarcha rivojlangan mamlakatlarda mutaxassis tayyorla shning asosiy tamoyillaridan biriga aylangan.

O'qituvchining professional kompetentligi bu- pedagogik faoliyatini mufaqqiyatli hal qilish uchun zarur bo'lgan kaspiy shaxsiy sifatlar yig'indisidir. Kompetentlik atamasi yetarli ma'lumotga ega bo'lgan, puxta bilimli, yaxshi biladigan, xabardor, omilkor kabi ma'nolarni anglatadi.

Pedagogik faoliyatni, pedagogik muloqotni yuqori darajada amalga oshiradigan, o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasi sohasida yuqori darajadagi stabil natijalarga erisha oladigan o'qituvchini professional kompetentli o'qituvchi deyish mumkin.

O'qituvchilik-sharaffi, mashaqatli kasb. Ayniqsa fanlar shoxi deb, ta'riflanayotgan aniqlikni talab etayotgan fan, matematika fan o'qituvchisi zimmasidagi mas'uliyat ikki hissa ko'proq. Chunki o'quvchilar ongini rivojlantirish mantiqiy fikrlash, kreativ yondashish, kitobga oshno etishimiz kerak. Yosh avlodga zamon talablari darajasida ta'lim-tarbiya berishda ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish davr taqozisi. Bugungi kunda ta'lim sohasida dunyoning rivojlangan davlatlari bilan xalqaro hamkorlik mustahkamlanmoqda. O'quvchilar bilimini xolisona baholash, pedagoglarning kasbiy malakasini oshirishda xorijiy talriba qo'l kelmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrda «Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmoni kelgusi vazifalarning istiqbolini belgilab beradi.

Mazkur farmonda umumta'lim muassalari reytingini tuzish maqsadida ularning faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini tasdiqlash belgilar berilgan. O'quvchilarning bilim darajasini baholash bo'yicha xalqaro dasturlar va tadqiqotlarda (PISA, TIMSS, PIRLS) dasturlari sosida o'qitish kiritilgan. Ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlarning tub mohiyati o'quv jarayonlarning mazmunini, o'yitish, turli metodlardan foydalanib shaklini takomillashtirishga qaratilgan. Fan-texnika taraqqiyoti, axborot miqyosining oshib borishi kabi omillar bugungi o'quvchining shaxsiy xususiyatlariga jumladan, idrok eta olish, tasavvur qilish va fikrlash, aqliy qobiliyatini rivojlantirishga o'z ta'sirini o'tqizadi.

Insonning bilish faoliyati nihoyatda ko'p qirrali, murakkab va ziddiyatli jarayon bo'lib, u insonning tabiat, jamiyat va o'zi to'g'risida bilimlar hosil qilishiga qaratilgan aqliy, ma'naviy

faoliyat turidir. Inson o'zini qurshab turgan atrof-muhit to'g'risida bilim va tasavvurga ega bo'lmay turib faoliyatning biror turi bilan muvaffaqiyatli shug'ullana olmaydi. Ta'lim kompetensiyalarining zarurati, ularni shakllantirish haqida amaliy mashg'ulotlar tavsiyasiga o'tishdan oldin, avvalo, ta'lim berish va o'qitish tushunchalarining qiyosiy tahlilini bilishimiz lozim. Ular 2 xil usulda bo'lib, quyidagicha:

1. O'qitish.

- tayyor bilimlarni berish

- bu hali mustaqil, maqsadli, ijodiy fikrlovchi, ma'naviyatli, muammolar va zamon talablarini anglash degani emas;

- madaniy me'yorlar, bilimlarni egallash,

Hayotni "fan" shaklida bilish demakdir. Bilimli kishi –bilimdon va bilganlarini amalda qo'llay oladigan qobiliyatli mutaxassis bo'lishi mumkin, lekin shu bilan birga ma'naviy noqis, hayot an'alarini ongsiz qayta ishlovchi bo'lishi mumkin.

2. Ta'lim berish

- ta'lim va tarbiyalash jarayonida insonning barcha: ma'naviy, aqliy, jismoniy kuch va imkoniyatlarini o'zaro muvofiq ravishda rivojlantirish;

- bir umrlik ijodiy jarayon. Ta'lim so'zining asosi "ilm" ekanligiga e'tibor qaratsak, inson shaxsi kamol topishi uchun butun umr ilm izlaydi, izlanadi.

Ilmli inson-abadiy qadriyatlar (ezgulik, idrok, vijdon, mas'uliyat, Muhabbat, hamdardlik...)ni himoya qiluvchi va yangilarini shakllantiruvchi madaniyat vakili.

Demak, ta'lim insonning tashqi olam, madaniyat, tabiat bilan aloqasi haqida bilishi va o'z vazifasini tushuntirishini, o'z aql-idrokidan boshqa bironing boshchiligisiz" foydalana olishini taqozo etadi.

Mustaqil O'zbekistonimizda bugungi kunga kelib, barkamol avlodga ta'lim-tarbiya berib kelayotgan, o'qituvchilarimizga barcha shart-sharoitlar yaratilib, ularning mehnatlari rahbatlantirib kelinmoqda. Bilamizki, o'qituvchilik-bu eng mashaqqatli, mas'uliyatli, qattiyatli va sharafli kasb hisoblanadi. Kelajagimiz poydevori navnihollarni jajji qullariga qala titib, ularni payvandlab, o'z fanining ustasi qilib, kamol topishida tarbiyalashda boshqa o'z xissalarini qo'shib kelmoqdalar. O'qituvchining vazifasi ta'lim – tarbiya berishdan iborat ekan, shu so'zning davomida, o'zbek pedagogikasining darg'asi Abdulla Avloniyning quyidagi satrlari yodimga tushdi:

Xudoning rahmati fayzi hama insonga yaksardur,

Va lekin tarbiyat birla etushmak sharti akbardur.

Tug'ub tashlov ila bo'lmas bola bo'lgay balo sizga,

Vujudi tarbiyat topsa, bo'lur ul rahnamo sizga.

Temurchining bolasi tarbiyat topsa, bo'lurolim,

Buzulsa xulqi, Luqmon o'g'li bo'lsa, bo'lg'usi zolim.

Yomonlarga qo'shuldi Nuhning o'g'li, o'ldi beiymon,

Yurudi Kaxf iti xo'blarila bo'ldi oti inson.

Bu she'rning mazmun mohiyatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, farzand tarbiyasi faqat o'qituvchiga yoki shaxsiy masalaga emas, u davlat, jamiyat ahamiyatiga ega bo'lgan buyuk ijtimoiy ishdir.

Bugungi kundagi ta'lim-tarbiya, hamda o'qituvchi va o'quvchilar orasidagi munosabatlar haqida to'xtalik. Darhaqiqat, hozirgi kunda ta'lim-tarbiya jarayoniga oid bir qancha o'zgarishlar va qonunlar joriy etilmoqda. Mana shu yangi qarorlarni belgilanishi bejizga emas, chunki yoshlarni kelakda jamiyatimizda o'z o'rnini topishi, boshqalarga ezgulik ulashuvchi va davlatimiz bayrog'ini ko'klarga ko'taruvchi yurtimizga munosib o'g'il-qizlar bo'lib etishishida biz o'qituvchilarning kumagi kerak bo'ladi. O'quvchilar o'rtasida uchrab turgan har xil diniy oqimlar, dangasalik va beboshlik, jinoiy va javobgarlik kabi qora illatlarni bartaraf etish uchun o'qituvchidan bilim, malaka, mahorat talab etiladi. Agarda bizdagi mana shu hislatlar dars jarayonida ko'proq qullanilsa, salbiy oqibatlarimizni tag-tomiri bilan sug'urib tashlagan bo'lar edik. Dars jarayonida oquvchilarimizni ko'proq fanimizga qiziqтира olishimiz ularni bo'sh vaqt topishishlariga yul quymasligimiz uchun, zamon talablariga mos AKT larni qullay olishimiz, turli qiziqarli metodlar hamda tarqatma materialdan foydalana olishimiz shart va majburiy. Ta'lim-tarbiya islohoti haqida gapirar ekanmiz, uning mazmunini lo'nda qilib ifoda etishimiz mumkin:

Bizga bitiruvchilar emas, maktab ta'lim-tarbiyasini ko'rgan shaxslar kerak. Mustaqil O'zbekistonning Birinch Prezidenti, istiqloq me'mori zamonamizning ulug' sisoyatchisi, vatanimiz ravnaqi yurtimiz tinchligi uchun ulkan hissa qo'shgan Islom Karimov aytganlaridek, biz kamol toptirayotgan barkamol avlod bizning kelajagimizdir. Darvoqe, shunday ekan, o'qituvchi o'quvchi uchun javobgar shaxs timsoliga aylanadi. Mana shunday mas'uliyat egalari qatotida men ham matematika fani o'qituvchisiman. O'quvchim kelajagi uchun bir qator ishlarni amalga oshirib kelyapman. Bilamizki, matematika fanida figura¹darning shakli, o'lchami, rangi, ob'ektlarning azoda joylashishi (tepada, pastda, chapda, o'ngda), aylana, doira, uchburchak, to'rtburchak, kvadrat kabi geometrik figuralarning o'xshashliklarini o'quvchilarning fazoviy tasavvurlarini shakllantirish uchun o'rgatiladi. Mana shu barcha aytib o'tilganlarimizni darsim davomida "Algebra charxpalagi", "Do'stlikda sonning darajasi", "Tir o'yinlari", "Ilm va Bingo" kabi metodlarimda qo'llab kelayapman. Matematika bilamizki fanlari shoxi, aniqlikni talab qilayotgan fan hisoblanadi. Darsim jarayoniga yanaham qiziqtirishim uchun, AKT lar asosida dars o'tish, ularni tinglay olish bolani psixologiyasini o'rganish, hamda javoblariga munosib rahbatlantirish o'quvchim kelajagi uchun, darsda qurol sifatida foydalanishim shart.

O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi motivatsitsiyani saqlagan holda ularni ko'proq mantiqiy fikrlashga tarbiyalashim, kreativlik (ijodkorlik) hissiyatini uyg'ota olishim kerak. Shoirlarimiz aytganidek: "Hayot ikki narsa bilan guzallashib boradi: Biri matematika bilan shug'ullanish, ikkinchisi o'qitish" - desa Puasson, Gassende esa: "agar biz hayotda nimanidir o'rgangan bo'lsak, buning uchun matematikadan minnatdor bo'lishimiz kerak" deydi.

Darhaqiqat, hamma narsaga bog'liq bu matematikani ta'lim standartlariga mos qilib chuqur o'rgata olsagina, butun dunyo bo'ylab rivojlangan xalqaro baholash mezoniga mos testlarni erkin echish huquqini hamda matematik savodxonligini oshirgan bo'lamiz. So'zimning yakunida oldda turgan barcha sinovlarni engib o'tish, yurtimiz ravnaqi uchun munosib fidoi o'g'il-qizlar bo'lib ulg'ayishida ularni to'g'ri munosib kasbga yunaltirib o'z sohasining yetuk mataxassisi bo'lib etishishida bor kuch - g'ayratimni ishga solish, ustozlik vazifam deb bilaman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. I.A. Karimov. «Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmoni. 2018
2. I.A. Karimov "Yuksak ma'anaviyat – yengilmas kuch". T.: 2008

Olimova Dono Shakirovna
Candidate of pedagogical science, docent
TMA Urgench branch,
Eshchanova Gulmira Komiljanovna
Teacher
High medical school named after Abu Ali Ibn Sina
(Urgench, Uzbekistan)

PSYCHOLOGY OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES

Abstract. *This article deals with an important role of psychology while teaching foreign languages at educational establishments.*

Keywords: *peculiarity, motivation, feature, research, mastering, curriculum.*

All scholars who deal with teaching foreign languages emphasize that in teaching foreign languages importance of the teacher's professional language competence, factors of accounting of educational subject's particularities and individual peculiarities of learners, especially motivation in learning foreign languages are equal. The process of teaching foreign languages consists of three equal components:

- the teacher and his/her professional skills;
- the learner and his/her aspiration;
- the subject which learner must acquire.

It is natural that in psychological-pedagogical analyses of education we must consider factors-components mentioned above. Thereupon in our opinion important factors and components of educational system are - psychological features of foreign language teachers; psychological features of learners of various age stages; psychological features of foreign language as educational subject; psychological analysis of speech activity as an object of mastering; pupil's educational activity in the process of learning foreign languages and the form of education.

English is known as an international language and is used as an international communication tool. Language is the only way of communication, even before the formation of human societies; people interacted together by engraving on the stones and walls. The learning of mother language is very important, but don't forget it if somebody doesn't learn an international language (English), they face many serious problems because technology and science are rapidly developing in the English language. Speaking about the factors which influence on successful learning foreign language it is necessary to note a close connection of psychology of teaching foreign language with psychological and pedagogical disciplines, particularly, with pedagogical psychology. All mentioned factors and components of education are the research subject of pedagogical psychology.

Educational psychology is a fulfill knowledge for the teachers to help the students improve their learning in the English classes. It doesn't matter a teacher teaches the English language at a school or at a university. In fact, teaching the English language as a second/foreign language is a difficult task. When a teacher manages the class who knew the

educational psychology very well, he/she can be more successful in teaching than other instructors.

Pedagogical psychology - are the most important branches of psychology. The basis for allocation of this branch of psychology is the psychological aspect of concrete activity of teaching and studying.

Pedagogical psychology is in close relationship with developmental and age psychology, which study 'age dynamics of person's mental development, ontogenesis of mental process and psychological quality of developing person'. Ontogenesis refers to the sequence of events involved in the development of an individual organism from its birth to its death. This developmental history often involves a move from simplicity to higher complexity. So all problems of development and age psychology are considered on the basis of accounting person's age features. Pedagogical and age psychology in their researching base on the theories of General Psychology, which opens the general psychological laws, studies mental processes, mental conditions and person's individual-psychological peculiarities.

Pedagogical psychology as independent branch started to form in the end of XIX century collecting experiences and achievements of pedagogical, psychological and psychophysical experiments and researches. Pedagogical psychology includes - Educational Psychology, Upbringing Psychology and Teacher's Psychology.

Educational psychology is the study of how humans learn in educational settings, the effectiveness of educational interventions, the psychology of teaching, and the social psychology of schools as organizations. Educational psychology is concerned with how students learn and develop, often focusing on subgroups such as gifted children and those subject to specific disabilities. Educational psychology can in part be understood through its relationship with other disciplines. It is informed primarily by psychology, bearing a relationship to that discipline analogous to the relationship between medicine and biology. Educational psychology in turn informs a wide range of specialties within educational studies, including instructional design, educational technology, curriculum development, organizational learning, special education and classroom management. Educational psychology both draws from and contributes to cognitive science and the learning sciences. In universities, departments of educational psychology are usually housed within faculties of education, possibly accounting for the lack of representation of educational psychology content in introductory psychology textbooks.

To understand the characteristics of learners in childhood, adolescence, adulthood, and old age, educational psychology develops and applies theories of human development. Often represented as stages through which people pass as they mature, developmental theories describe changes in mental abilities (cognition), social roles, moral reasoning, and beliefs about the nature of knowledge.

For example, educational psychologists have researched the instructional applicability of Jean Piaget's theory of development, according to which children mature through four stages of cognitive capability. Piaget hypothesized that children are not capable of abstract logical thought until they are older than about 11 years, and therefore younger children need to be taught using concrete objects and examples. Researchers have found that transitions, such as from concrete to abstract logical thought, do not occur at the same time in all domains. A child

may be able to think abstractly about mathematics, but remain limited to concrete thought when reasoning about human relationships. Perhaps Piaget's most enduring contribution is his insight that people actively construct their understanding through a self-regulatory process.

Piaget proposed a developmental theory of moral reasoning in which children progress from a native understanding of morality based on behavior and outcomes to a more advanced understanding based on intentions. Piaget's views of moral development were elaborated by Kohlberg into a stage theory of moral development. There is evidence that the moral reasoning described in stage theories is not sufficient to account for moral behavior. For example, other factors such as modeling (as described by the social cognitive theory of morality) are required to explain bullying.

Developmental theories are sometimes presented not as shifts between qualitatively different stages, but as gradual increments on separate dimensions. Development of epistemological beliefs (beliefs about knowledge) have been described in terms of gradual changes in people's belief in: certainty and permanence of knowledge, fixedness of ability, and credibility of authorities such as teachers and experts. People develop more sophisticated beliefs about knowledge as they gain in education and maturity.

Each person has an individual profile of characteristics, abilities and challenges that result from predisposition, learning and development. These manifest as individual differences in intelligence, creativity, cognitive style, motivation and the capacity to process information, communicate, and relate to others. Most learners would like to learn to speak the English language, but developing speaking skills isn't easy. They attempt to learn this language as a foreign language that's why they looking for the best teacher who teaches them the English language in an appropriate class. Teaching English in a variety of countries, including Iran, faces many problems. Most teachers and students involved in the teaching-learning process many hours in the class, but they haven't had much success. Which is why the researcher in this paper highlights the usage of psychology along with teaching? Every teacher should have complete knowledge of educational psychology so that helps to the learners in learning a foreign language.

REFERENCES:

1. Bloom L. Language Development. - Cambridge (Mass.), 1970. 564 p.
2. Carroll J.B. Language and thought. - Englewood Cliffs, 1964.
3. Clark H.N., Clark E.V. Psychology of Language. An Introduction to Psycholinguistics. New York, 1977. 165 p.

Qurbanova Nilufar Ravshanbekovna
o'qituvchi,

Matvafayeva Shaira Nurillayevna
direktor o'rinbosari

Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi
(Urganch, O'zbekistan)

DARSLARNI AKT VA DASTURIY VOSITALAR BILAN TASHKIL QILISHNING IJOBIY JIHATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada darslarda AKTdan foydalanish va dasturiy vositalardan foydalanishning ijobiy tomonlari haqida fikrlar bayon etilgan. Ta'lim tizimida yangi pedagogik texnologiyalar, shu jumladan, axborot texnologiyalari yordamida bilim olishni rivojlantirishi haqida qisqacha yoritilgan.

Kalit so'zlar: kompyuter, multimedia, Power Point, Photo Shop, Ispring, Macromedia Flash.

Аннотация. В этой статье обсуждаются преимущества использования ИКТ и программного обеспечения в классе. Кратко описывается развитие новых педагогических технологий в системе образования, в том числе информационных.

Ключевые слова: компьютер, мультимедиа, Power Point, фотوماгазин, Ispring, Macromedia Flash.

Annotation. This article discusses the benefits of using ICT and software in the classroom. The development of new pedagogical technologies in the education system, including information technology, is briefly described.

Key words: computer, multimedia, Power Point, Photo Shop, Ispring, Macromedia Flash.

Ma'lumki, davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi. Uchinchi tashabbus – aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan. Ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari asosida ta'lim-tarbiyani tashkil etish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari ta'lim jarayoni samaradorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil ishlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga qiziqish va ishtiyoqni oshiradi.

Hozirgi davr talablariga axborot texnologiyalarining tezkorlik bilan rivojlanishi o'quvchilarda kompyuter savodxonligini shakllantirishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, bunda Tibbiyot texnikumlarida uzluksiz ta'limning ajralmas qismiga aylanib ulgurgan "Informatika" hamda "Tibbiyotda axborot texnologiyalari" o'quv fanining ahamiyati katta hisoblanadi. Ushbu fanning ta'limiy maqsadlaridan biri o'quvchilarda kompyuter bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish muammolari va metodikasiga qaratilgan.

Kompyuter yordamida har bir darsning qiziqarli, mazmunli, tashkil etishda va ijobiy o'tishi uchun biz, avvalambor, video, audio, slayd, multimedia vositalar bilan darslarni tashkil etishimiz kerak bo'ladi. Barkamol inson ya'ni shaxsni rivojlantirishda ta'lim mazmuniga oid video va audio yozuv lavhalardan eshittirishlar olib borib, o'quvchilar qalbida insonparvarlik, vatansevarlik tuyg'ularini uyg'otishdan iborat. Jumladan, ta'lim jarayoni uchun qo'llaniladigan pedagogik dasturiy vositalar, elektron o'quv materiallari, jumladan, elektron o'quv qo'llanmalar ta'limning asosini tashkil etadi. AKTdand foydalanilganda ta'limda shaxsga-yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish oson bo'lib qoldi, butun o'quv jarayonini samarali tashkil qilish imkoniyati paydo bo'ldi.

Dars jarayonida tayyor multimediali mahsulotlari va kompyuter ta'limi dasturlaridan, o'quv va sinfdan tashqari ishlarda Internet tarmog'i vositalaridan foydalanib, multimediali ta'lim dasturlari va taqdimotlar, loyihalar yaratildi. Axborot texnologiyalarini barcha o'quv fanlarda qo'llash mumkin. Darslarda o'quv va o'yin dasturlaridan foydalanish katta samara beradi. Hozirgi kunda pedagogik dasturiy vositalar yaratish imkonini beruvchi dasturiy vositalar soni tobora ko'payib bormoqda. Ular tarkibiga kiruvchi bir necha dasturiy vositalarni, chunonchi, CourseLab Articulate, Storyline, Adobe Presenter, Adobe Captivate, PhotoShop, Macromedia Flash, Lectora, Ispring, Power Point, Course Builderlarni keltirish mumkin. Ularni ta'lim jarayoniga qo'llash talabalarda fizika, kimyo, matematika, elektronika, statistika va ayniqsa, tabiiy fanlarga oid mavzularni o'zlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, Macromedia Flash 8 dasturi yordamida web-sahifalar yaratish, ularga rasmi, grafikli, tovushli ma'lumotlarni joylashtirish usullarini, shuningdek, formalar, animatsiyalar yaratish va ularni joylashtirish hamda web-sahifalar orasida aloqalami o'rnatish haqida bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lish mumkin.

Microsoft Power Point dasturlari yordamida yaratilgan taqdimotlarda esa ta'lim jarayonida AKTdand foydalanish juda samarali shakli hisoblanadi. Taqdimotda asosiysi – axborotlilik, ko'rgazmaliligi, qiziquvchanligi hisoblanadi. Mazkur dastur orqali turli mavzu va fanlar bo'yicha taqdimotlar yaratishda fotosuratlar, rasmlar, animatsiya, qo'shimcha axborotlardan foydalanish mumkin.

Ispring dasturi orqali o'quvchilarning olgan bilimlarini test vositasida tez va qulay tarzda aniqlash va o'sha paytning o'zidayoq o'quvchini baholash imkoniyati mavjud. Photo Shop dasturi yordamida esa o'quvchilar quyidagi amallarni bajarishi mumkin: fotosuratlarining chekka qismlarini va undagi keraksiz obyektlarni olib tashlash, rasm o'lchami va undagi piksellar zichligini o'zgartirish, rasmni saqlash formatini o'zgartirish, rasmning yoki uning bir qismini boshqa tekislik yoki sirtida ko'rinadigan qilib transformatsiyalash, fotosuratni olish paytida yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish, masalan, uni olish paytida ko'p ushlab qolingani, oq rangining balansi o'zgarib ketishi, yorqinlik yoki kontrastlik ko'payib yoki kamayib ketishi oqibatida vujudga kelgan kamchiliklarni bartaraf qilish va yana ko'plab amallarni bajarish Photo Shop yordamida oson amalga oshiriladi.

Umuman olganda har bir dasturning ta'lim jarayonida o'z qo'llanilish o'рни bor.

Ta'lim natijasida o'quvchilar o'quv va oddiy amaliy masalalarni yechish uchun kompyuterdan foydalanish: fayllar bilan oddiy operatsiyalarni amalga oshirish (yaratish, saqlab qolish, izlash, dasturni ishga tushirish); dasturlarda amaliy topshiriqlarni va ijodiy ishlarni bajarishni biladilar: Word Pad, Microsoft Power Point, Microsoft Excel, Microsoft Word; keng

foydalaniladigan dasturlarni ishga tushirish: kompyuter ekranida matnli va grafik redaktor, trenajerlar, testlar; matnlar va tasvirlar (axborot), obyektlar bilan ishlash; izlash, oddiy o'zgartirishlarni, saqlash, foydalanish va axborot hamda ma'lumotlarni uzatishni amalga oshiradilar, mundarija, yo'l ko'rsatuvchi, kataloglar, spravochniklar, internetdan foydalanib, kompyuter yordamida kichik loyihalar va taqdimotlar yaratadilar.

Xulosa qilib aytganda, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o'quvchilarni qiziqarli olamga olib kirishda o'qituvchining imkoniyatlarini kengaytiradi, bunda o'quvchilar axborotlarni mustaqil ravishda izlab topadilar, oladilar, tahlil qiladilar va boshqalarga yetkazadilar. Bolani axborot bilan ishlashga, o'qishga o'rgatish – zamonaviy boshlang'ich sinflarning muhim vazifasi hisoblanadi. Boshlang'ich sinflar ta'lim jarayonida AKTdani foydalanish faqat asosiy yo'nalishlari shakllanadi. O'quvchilarning sinfdan tashqari ishlarini tashkil etishda AKTdani keng foydalanish, birinchi navbatda, o'quvchilarning qiziqishini oshirish va turli hisobotlarni tayyorlash, sinfdan tashqari tadbirlarni o'tkazish va shu kabilardan iborat bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. N. Taylaqov va b. Informatika va axborot texnologiyalari. – Toshkent: Extremum-pres, 2018-yil, 12-bet.

Internet ma'lumotlar

2. www.‘Ziyonet’.uz tarmog'idagi ma'lumotlar.

Rakhmatova Dilnavoz Azam qizi
1st year master's degree in speech therapy
Tashkent state pedagogical university named after Nizami
(Tashkent, Uzbekistan)

TECHNOLOGIES TO ELIMINATE STAMMER IN LOGOPEDIC CONDITIONS

Annotation. *This article discusses the research that has been done on various methods and systems for troubleshooting before a modern approach to stamping can be adopted. The large number and ineffectiveness of stuttering techniques is explained by the complexity of its appearance and the lack of knowledge about its nature.*

Key words: *stuttering, medical, pedagogical, therapeutic process, psychotherapy, speech therapy classes, speech therapy rhythmic, educational activities, speech therapy outlet.*

When studying the methods, tools and techniques of stuttering, it is advisable to consider the characteristics of the means of influence offered to the smoker (medical or pedagogical). In the first case - it is therapeutic measures (therapeutic, surgical, orthopedic, psychotherapeutic), in the second - pedagogical (didactic) measures, and in the third - the impact on the smoker by combining treatment and pedagogical processes in different situations.

Proponents of didactic teaching of correct speech in stutterers have suggested both a variety of elements of speech and a diverse and gradually complex system of speech exercises that cover speech in general.

A modern comprehensive approach to the elimination of stuttering means that different aspects of the mental and physical state of the stutterer are influenced by different specialists through different means and methods of pedagogical treatment. The scope of pedagogical and therapeutic activities includes therapeutic drugs and activities, physical therapy, psychotherapy, speech therapy, speech therapy rhythm, educational activities. Their purpose is to eliminate or alleviate the ailments associated with stuttering and voice impairment, breathing, movement and speech, and to strengthen and strengthen the nervous system and the body as a whole; it is about relieving the child of his or her speech impediment, relieving depression, re-educating his or her personality and behavior, and simplifying and coordinating the social aspects of the stuttering person.

The whole pedagogical-therapeutic complex can be divided into two groups depending on the nature of the impact on the stuttering: treatment-rehabilitation and pedagogical correction. The main tasks of the medical treatment include: strengthening and improving the nervous system and physical condition of the patient; elimination and treatment of deviations and pathological manifestations in their mental and physical state (relief or elimination of speech disorders, weakening of the autonomic nervous system, disorders of the autonomic nervous system, etc.).

The pedagogical-correctional work carried out by the speech therapist includes the following main tasks; speech impediments (re-education of incorrect speech) and mental

retardation. A speech therapist organizes a collaborative medical-pedagogical work of the necessary specialists (physicians, educators, a melodist, an exercise instructor, a musician, etc.) who can use their methods and tools to influence the stutterer.

Therapeutic activities include: the creation of favorable conditions for treatment, the organization of the agenda and diet, exercise, therapeutic physical training, drug therapy and psychotherapy.

It is necessary to create a calm and at the same time lively, cheerful mood for the child who stumbles in the conditions of specialized institutions, to free his attention from anxious thoughts about his shortcomings.

It is important to instill in the child a good mood, freshness, confidence in his recovery. Regularly changing activities and certain lifestyles are also important, as these methods normalize and facilitate the work of the upper parts of the nervous system and all organs of the stuttering child.

When creating an agenda, it is important to consider allocating enough time to relax. To this end, it is necessary to facilitate the learning process for school-age children, to take frequent breaks during the tasks assigned to them, not to stress them with extracurricular activities, homework and so on.

Stuttering activities are also included in the agenda of a child who stumbles. Daily walks, outdoor games, sports strengthen the nervous system, create an uplifting mood, air baths also have an active effect on the cardiovascular system, stabilize its functioning.

Watering, wiping, showering, and bathing are all important for a child's body to function.

The variety of exercises is strictly determined by the doctor individually, taking into account the health of the child and local conditions.

Therapeutic physical training and exercise develop the musculoskeletal system, improve the functioning of vital organs - the lungs and heart, increase metabolism. They strengthen the child's strength and morale, develop dexterity and precision, help to get rid of limitation or stagnation in movement, foster discipline and orderliness.

Speech therapy is considered as a system of pedagogical and correctional measures. It focuses on the development of the child's speech and personality. This takes into account the need to eliminate or freeze its defect.

At present, speech therapy has two main effects: direct and indirect. Direct speech therapy is performed in groups with stutterers and individually. These classes include the development of general and speech movements, breathing and moderation of speech speed and tone, activation of speech, development of attentive listening and phonemic perception, correction of pronunciation defects, slurred and active vocabulary. expanding its richness, improving the grammatical arrangement of sentences. Behavioral deviations are eliminated during the training with stutterers: (in students, adolescents), the correct attitude to the defect is formed, the perception of mental ability, etiquette and morality is developed., the content of a comprehensively developed person.

Individual training is carried out when it is necessary to conduct additional training on correct speech and behavioral skills (correction of mispronunciation, mental retardation). conversations, etc.).

Indirect speech therapy involves the whole agenda of the child in speech therapy activities and the attitude of others to him. Speech mode plays an important role in this system. Preschoolers' speech patterns are supported by a wide range of adults.

In doing so, they regularly monitor the children's transition from one stage of speech to another. The speech regimen of students, adolescents and adults involves them to choose the necessary speech exercises, to practice the correct speech requirements, the correct speech skills in different situations.

Speech therapy includes breathing, voice, and articulation functions, as well as the regulation and coordination of speech.

There are several perspectives on proper breathing in the literature. Some believe that it is recommended to do special breathing exercises using didactic breathing exercises. In others, the rhythm of breathing is restored through free and calm speech, that is, the non-hurried pace of speech is nurtured, and as a result, all components of speech, as well as breathing, are normalized. According to representatives of the School of Psychology, the exercise of the will helps to cultivate speech, and therefore breathing. If the work on breathing is carried out individually, depending on the structure of the speech defect, it is possible to find a positive side in each of these ideas.

Breathing is reinforced by speaking: one short exhalation during pronunciation, followed by short sentences, then gradually increasing the number of words. Develops the ability to pronounce long sentences with logical pauses, using punctuation or vice versa. Then proceed to the reading of prose or poetry.

Voice disorders are often associated with respiratory problems: stuttering is sometimes accompanied by a muffled sound when breathing and speaking; rapid, screaming sound during strong exhalation; as a result of the tension of the parts of the vocal cords, there is a severe attack of sound, and so on.

The work on sound education with stutterers begins with the relaxation of the muscles of the articular organs, primarily the lower jaw, the tongue (for example, the tongue is put in the position necessary for the n sound and nu - no - na is pronounced without a sound; the jaw is slowly lowered; the jaw is slowly raised). The exercise continues until the involuntary movement. Then there is the soft beginning of the sound, the continuous Light pronunciation of the sound with the vowels, then the pronunciation of the sonor sounds with the vowels in syllables, the pronunciation in sentences, and so on.

The necessary continuity of correct forms of speech is observed in the development of independent speech in the speechless. Light rhythmic speech is developed during the reading process by first repeating the text of the poem in a coherent manner. Then, in difficult situations, read independently with the help of a speech therapist, reading words in pairs or with the help of someone, in the same tone; read dialogic text; punctuation and conditional length reading; it is recommended to recite the studied poem.

Independent speech training takes more time than other forms of speech. Independent speech can be pre-prepared (poem, retelling, narration, storytelling) and unprepared (asking for answers to unexpected questions, talking about a given topic). The first part of the speech is repeated before the second, as it is very easy for the stutterer.

Some sample exercises for independent speech: answering a given question, completing a sentence, asking a question, composing a sentence based on a given word, re-composing a sentence, talking to a speech therapist or a friend, participating in staged performances, to tell a narrated story, a dramatic text on a picture, to tell about the theater, the cinema, personal observations, events; telephone conversation; lecture, debate, etc.

The content of speech therapy classes varies depending on the structure of the disorder, age, group of stutterers, course of stuttering, attitude of the stutterer to his defect, and many other factors. Taking these factors into account allows for in-depth study by stratification of the stutterer and the development of different methods for the elimination of stuttering.

The basic requirements for speech therapy for children with stuttering are:

1. Speech therapy classes reflect the main tasks of pedagogical-corrective influence on the speech and personality of a stuttering child.

2. Speech therapy classes in a certain order, continuous, step-by-step, taking into account the basic didactic principles, depending on the individual characteristics of each child; based on the awareness and activity of children; manuals, visual and technical aids are used in the lessons; the sessions help to reinforce the correct speech and behavioral skills that are being nurtured.

3. Speech therapy classes meet the requirements of the programs of education and training of preschool and school-age children.

4. The lessons take into account the need to practice the correct speech and behavior of children who stutter in different situations, for example: in the speech therapy room and beyond, in different life situations, with the participation of acquaintances and strangers, etc. For this purpose, various forms of speech therapy classes: many forms of work on speech development, didactic, action, role-playing and creative games, trips, matinees, preparation for and participation in concerts, speaking in front of a microphone and others.

5. Classes are organized in such a way that the child can speak without stuttering and without any disorders.

6. Exercises strengthen the child's good mood, endurance and self-confidence.

7. Classes of correct speech are regularly attended by speech therapists, effective children's speech, tape recordings and plates with speeches of masters of art of speech, ceremonial speeches of successful graduates of speech therapy courses, etc..

8. Classes are based on the right attitude of the child towards others and his proper upbringing.

The organization of the independent work of a stuttering child is aimed at the performance of the duties of a speech educator in the family, educational environment and in the community of his peers.

Thus, speech therapy rhythm is of great importance for the re-education of the stuttering person, for his social adaptation, as well as for the exercise and correction of his general and speech means of movement.

REFERENCES:

1. Ayupova M.Y. Speech therapy. Textbook. T.: National Society of Philosophers of Uzbekistan, 2007.
2. Speech therapy L.S.Volkova, S.I.Shakhovskaya. Izd-vo «Vlados» - M., 2002.
3. Golubeva G.G. Correction narusheniy foneticheskoy storoni rechi u doshkolnikov. Izd-vo «Soyuz» - M., 2001.
4. Krauze YE.N. Speech therapy. Izd-vo «Korone print» - M., 2003.
5. Muminov L., Ayupova M. Speech therapy. - T., 1993.
6. Chrestomathy on speech therapy T.2. (pod.red. Volkova S.L., Seliverstov V.I.) Izd-vo «Vlados» - M., 1997.
7. Chrestomathy on speech therapy T.2. (pod.red. Volkova S.L., Seliverstov V.I.) Izd-vo «Vlados» - M., 2002.

Shukurova Dilfuza Raupovna
(Qarshi, O'zbekiston)

MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA EKOLOGIK TA'LIMNING AHAMIYATI

Yurtimizning ertangi kunini hal qiluvchi bo'lgan yoshlar tarbiyasi hamma davrlarda ham o'ta muhim dolzarb vazifalardan biri bo'lib kelgan. Yurtimiz kelajagi yosh avlodlar qo'lida ekan, ularni har tomonlama yetuk, insonparvar, jamiyat va tabiat oldida mas'uliyatli shaxslar etib tarbiyalash eng ustuvor maqsadlarimizdan biridir. Ko'p asrlik beqiyos ma'naviy merosimiz va qadriyatlarimiz qayta tiklandi. Barcha turdagi ta'lim muassasalarida yoshlarimiz qalbida milliy iftixor, ekologik madaniyatni tarkib toptirishga jiddiy ahamiyat berilmoqda. Sayyoramizda yuzaga kelayotgan ekologik vaziyatlar va ularni oldini olishda yoshlarimizga ekologik tarbiyaning nechog'lik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Shunday ekan, bu tarbiya turini bevosita ta'lim tizimining ilk bosqichlaridan amalga oshirish kerak.

Maktabgacha ta'lim muassasasi 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni o'zqamroviga olgan bo'lib, bu davrda bolalarni asosan tasavvur dunyosini kengaytirish, ularda atrof-olam haqidagi qarashlarni shakllantirishdan iborat. Biz bevosita bu davrda ekologik va iqtisodiy tarbiyani tizimli amalga oshirsak, maqsadga muvofiq bo'ladi. Maktabgacha ta'lim muassasida ekologik ta'lim berishda muhim vazifalardan biri bu bolalarning bilimga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish hisoblanadi.

Psixologlar fikricha, bilimga bo'lgan qiziquvchanlik tevarak-atrofni o'rgatishga yetaklovchi kuch bo'lib, bolalarning olgan bilimlarini faollashtiradi, amalda qo'llash malakalarini shakllantiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologiyadan dastlabki ta'lim-tarbiya berishning maqsadi bolalarni atrof-olamni, ya'ni tabiatni sevadigan asrab avaylaydigan barkamol avlodni tarbiyalashdir. Bolalarda tevarak-atrof haqidagi dastlabki tasavvurlarni hosil qilish va ularga qiziqish uyg'otish maqsadida ularning e'tiborini bolalar guruhlar xonalarining undagi burchaklariga qaratish har bir xonaning o'z vazifasi borligi, xonani tartibli saranjom-sarishta tutish tizimi haqida tushuncha berib boriladi. Ekologik tarbiyani tashkil etish uchun quyidagi vazifalarni hal etish lozim.

1. Bolalarga mashg'ulot va mashg'ulotlardan tashqari jarayonda ekologik tushunchalarni tushuntirib borish;
2. Ularning tabiat va atrof-muhit ekologiyasi to'g'risida tasavvurini boyitish;
3. Bolalarda atrof-muhit muhofazasini ta'minlash ijtimoiy zaruriyat ekanligini shakllantirish;

4. Bolalarda tabiatda o'zini tutish malakasini, atrof-muhitni muhofaza qilish tuyg'usini tarbiyalash, hamda ularning tabiat va atrof muhit jarayonida faolishtirok etishlari lozim. Maktabgacha yoshdagi bolalarga boshlang'ich ekologiyani amalga oshirish uchun ularning saviyasiga mos keladigan turli xil ish shakllari, vositalari hamda uslublarini tanlab olish mumkin. Jumladan, tushuntirish, ko'rsatmalilik, samarali amaliy savol-javob suhbat, hadislar, hikoyalar, rivoyatlar o'qib berish, izohlash, ko'zdankechirish, kuzatish – qiyoslash va takrorlash tasavvur qilish, ishontirish, ibrat olish uchun namuna bo'lish turli xil oyinlar, sayr, ekologik kechalar va hokazo.

Hozirgi zamon psixologiyasi bolalarning bilimini va amaliy faolligini orttirish vazifalari bilan birga muammoli vaziyatlarni yechish yo'llarini ochib berdi. Bolalar oldiga fikr yuritib ishlash vazifasini qo'yish, ularning tafakkurini rivojlantirishga turtki bo'lib dunyoga bo'lgan ko'z qarashlarini shakllantiradi va bilish jarayonini tezlashtiradi. Psixolog S.L.Rubinshteyn aytishicha «Muammoli vaziyat o'ylash jarayonining dastlabki payti bo'lib hisoblanadi. Insonda biror narsani tushunish talabi paydo bo'lgandan o'ylana boshlaydi. Tarbiyachi bir xil sharoitda maydonchada qanday daraxtlar borligini, ularning soyasida odamlar dam olishini aytadi. Mevali daraxtlarning mevasi insonlar uchun oziq bo'lishini tushuntirib, daraxtlarni avaylab o'stirish, shoxlarini sindirmasliklarini, kuzda salqin tushushi bilan yaproqlari tushib ketishi va kuch yig'ib bahorda yana gullab yashnaganini ko'rib ko'zimiz qo'vonishini aytib suhbatini yakunlaydi. O'yinlar orqali ham bolalarning bilimiga bo'lgan qiziquvchanligi orttiriladi. Masalan: daraxtlarning turlari bilan tanishtirish vaqtida tarbiyachi «yaprog'iga qarab daraxt nomini ayt» degan oyindan foydalanadi. Dastlab bolalar daraxtlarning nomini aytib beradi, rangi, shakli, katta-kichikligi taqqoslanadi, belgilari aytib beriladi. Pedagogik jarayon shunday tashkil qilina bolalar tayyor bilimga ega bo'ladilar. Ayrımlari diqqatsiz bo'lib, bu bilim nima uchun kerakligini bilmaydilar.

Natijada:

– Nima uchun odamlar daraxtlarni parvarishlaydilar?

– Daraxtlarning odamlarga qanday foydasi bor?-degan oson savollarga javob bera olmaydilar. Tarbiyachi o'zi savol berib, o'zi javob beradi. Bolalar savollariga berilgan javoblarni esda saqlashga harakat qiladi. Bunda bolalar passiv kuzatuvchiga aylanadi. Ular tarbiyachining so'zini tinglab hech narsa haqida o'ylamaydi va aytilgan narsani tez unutadi. Agar bolalar bilimlarini o'zlashtirishda faollik ko'rsatsa, o'nda olgan bilimlari puxta o'zlashtiriladi. Tarbiyachi daraxtlarning insonlarga foydasi haqida nima bilishlarini aniqlash maqsadida tayyor javob bermay kuzatishni, fikrlashni, tegishli xulosa chiqarishni vazifa qiladi. Bolalar tug'ri javob berishlari uchun tarbiyachi bolalarni oldin quyosh nurlari ostida turishni, keyin daraxt soyasida turishni taklif qiladi. Bolalar taqqoslash yo'li bilan amalda qo'llagani asosida tug'ri javob beradi. Bolalar mevalarni eb, daraxt soyasida turib qiynalmasdan xulosa chiqaradilar.

Daraxtning shoxchasini sindirib olib suvga solib uni ko'zatamiz. Bu shoxcha rivojlanmaydi. Chunki bu erda shoxcha rivojlanishi uchun sharoit yo'q. Bolalarga daraxt o'sishi uchun to'proq suv, havo va quyosh nurlari zarur ekanligi isbotlanadi. Nazariy bilimlarimizni amalda qo'llay olsak bolalarga ilk ekologik bilimlarni bera olamiz. Bolalarimiz olgan bilimlarini boshqa faoliyatlar bilan mustahkamlaymiz. Rasm mashg'ulotlarida tabiatni aks ettiramiz, nutq o'stirishda she'r yodlaymiz, topishmoq va tez aytishlar aytamiz. Bolalarda yangi narsalarni o'rganish talabi paydo bo'ladi, inson va tabiat o'rtasidagi bog'liqlikni sezadi. Bu sezgida fikrlash, so'zlash va xayol qilish kabi psixik jarayonlar rivojlanadi. Bolalar o'z fikrlarini aytish uchun o'ylanadi, taqqoslaydi. Tarbiyachilar bolalarga ilk ekologik bilimlarni berishda turli xil metodlardan, usullardan qiziqarli sharoitlar yaratishlardan foydalansagina maqsadga erisha oladi.

Ekologik tarbiya berishning yana bir usuli maktabgacha yoshdagi bolalarga sayrchog'ida bola olgan bilimlarini tabiat oldidagi ma'suliyat hissini o'z irodasida sinab ko'radi. Bunda bolalarni sayr paytida dalada, o'tloqda o'tlab yurgan hayvonlar bilan yaqindan tanishtirish, ularning tabiat va inson uchun qanday foydasi va ahamiyati haqida hikoya qilib

boriladi. Bolalarning tabiatni muhofaza qilish amaliyotida 3 xil faoliyat turidan ya'ni: o'yin, ta'lim, mehnatdan keng foydalanish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilibaytganda maktabgacha yoshdagi bolalarga ongiga inson tabiatning bir bo'lagi ekanligini atrof-muhitni doimo asrab-avaylash lozimligini singdirib borishimiz zarur. Zero, tabiat barhayot ekan, dunyoda biror bir jonzot undan bebahra yashamog'i, nafas olmog'i, kun kechirmog'i mumkin emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T.: "O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti" T.: 2006.150-b.
2. Ivanov. P.I, Zufarova.M.E. Umumiy psixologiya. Toshkent: O'zbek faylasuflari milliy jamiyati. 2015.-127 b.
3. Муродов Мухитдин Кадырович 2021. Роль самостоятельного обучения в формировании профессиональных навыков будущих учителей музыки в системе непрерывного образования. Международный журнал интегрированного образования. 4, 4 (апрель 2021 г.), 149–152. DOI: <https://doi.org/10.31149/ijie.v4i4.1625>
4. Исмоилова М. Э. Роль инновационных технологий в повышении эффективности вокальных занятий //Science and world. – 2013. – С. 107.

Tajibaeva Akmaral Rahmetulla qizi
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
boshlang'ich ta'lim fakulteti talabasi
(Nukus, O'zbekiston)

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING MA'NAVIY TARBIYASIDA OILANING O'RNI

Annotatsiya. *Yosh avlodni tarbiyalash murakkab va ko'p qirrali jarayon. Darhaqiqat, yoshlarni har tomonlama, ham aqlan, ham jismonan barkamol, axloqan yetuk, ma'naviy pok qilib tarbiyalash shu kunning muhim va dolzarb muammolaridan biriga aylanib qoldiki, bu davr va bugungi turmushimizni taqozosidir.*

Kalit so'zlar: *Hadis, axloq, rostgo'ylik, samimiylilik, oilaviy munosabatlar, tarbiya, ijtimoiy vazifa, jismonan, aqlan.*

Inson va uning baxt -saodati haqida, uning qadryatlari haqida g'amxo'rlik qilish, qayg'urishni xayriyatki, hechdan ko'ra kech bo'lsada tushunib angladik. Bu yo'qotib qo'ygan milliy urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz yana qaror topdi. Bu albatta kelgusi avlod uchun katta baxt. Oila jamiyatning ajralmas zarur qismidir. Unda inson dunyoga keladi. Shu paytda oila insoniyatning uzluksiz naslini davom ettiruvchi bo'lib qolaveradi. Shundan kelib, oila ikkita ulkan ijtimoiy vazifani farzandlarni dunyoga keltirish hamda ularga to'g'ri tarbiya berishni yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega. Chunki oilada katta yoki kichik narsa bo'lmaydi. Hamma narsa, hatto eng oddiy bo'lib ko'ringan oilaviy munosabatlar bolaga katta ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, rostgo'ylik, samimiylilik, sadoqatli, shirinsuxan bo'lish bola kamolatida beqiyos hayotiy muhim vositadir. Bu borada axloq odobga oid – Hadis namunalari shunday deyiladi. Gaplarning yomoni bu yolg'onchilikdir. Yolg'onni hazil bilan ham jiddiy ham gapirib bo'lmaydi. Ota o'z bolalariga biron narsani va'da qilib so'ng uni bajarmay qo'ymasin! Rostgo'ylik ezgulikka boshlaydi, yovuzlik esa jahannamga. Rostgo'y odamga yaxshi baho, yomon odamga yomon baho beriladi. Chaqimchilik ham yomon illatdir, chunki u tufayli odamlar o'rtasi buziladi. Oilada yoshlarga yaxshiroq ta'sir ko'rsatish uchun avvalambor ularni sevishtirish va hurmat qilish lozim. Chunki kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha bolalar ularni sevishtirish qila olganlarning qadrlaydilar, bergan maslahat va yo'l-yo'riqlarning, turli topshiriqlarni bajonidil ado etadilar. Zero ota-onaning mehr-muhabati, chinakam hurmati bolalarda eng go'zal axloqiy tuyg'ularni, ayniqsa qadryatni his qilishda yordam beradi. Bu esa unda kattalar orasida ham kamyop bo'lib qolgan insoniylik sifatlaridan hisoblanadi. Bolaning kelajakda qanday inson bo'lib yetishishi ko'proq ota-onasi va o'z oilasiga hamda unda tarkib topgan muhitga bog'liq. "Bola ota-onasidan qayerga ortib boradi degan gap ayni haqiqat. Demak, farzandlar ota-onalarini davomchilardir. Yusuf Xos Hojib – oiladagi eng ulug' fazilat ezgu qiliq va go'zal xulqdir. Ikkinchisi rostlik, uchinchisi hayot hisoblanadi. Mana shu uch fazilat birlashsa kishi baxtiyor bo'ladi, qut iqbol uning huzuriga bosh urib keladi. Chunki kishining xulqi go'zal bo'lsa uni barcha xalq sevadi. Xulqi yuz bo'lgan kishiga to'rdan joy tegadi, degan edi. Oilada bola tarbiyasi xususida gapirilganda yuqorida eslatib o'tganimizdek, uning asosiy manbasi muhabbat, ishonch, o'zaro hurmatni tashkil qiladi. Hech kimga sir emaski oilaning ko'rki ham totuvligi ham bekamu ko'stligi ham farzandlarning qobilu mo'minligi ham asosan ana shu allomamizning onalik mahoratiga,

ayollik nozik qalbiga, yuksak hayosiga, qaynoq mehru muhabbatiga bog'liqdir. Oilda ota-onaning shu oiladagi kattalarni yurish turishidan tartib so'z madaniyati, kiyinishi, kishilar bilan muomalasi, hatto atrof-muhitga munosabati va shu singari oddiy bo'lib ko'rinadigan xolatlarni ham bola tarbiyasiga katta ta'sir qiladi.

Hozirda yoshlarni yetuk kishilar qilib tarbiyalash, ishlarga e'tibor keng tus oldi. Chunki jamiyatimizning kelgusi shu yoshlar qo'lida. Yoshlarni axloqan pok, jismonan sog'lom, yetuk kishilar qilib tarbiyalash oilaning oldiga qo'yilayotgan eng muhim talablardan biridir. Buning uchun har bir ota-ona o'z farzandining ezgu maqsadga intiluvchan, kattalarni e'zozlaydigan kichiklarga muruvvatli, o'qish va ishda matonatli qat'iy, tashabbuskor, uyushqoq, qiyinchiliklardan qo'rqmaydigan kishilar qilib tarbiyalashlari lozim. Ayniqsa oilada katta yoshli bolalar bilan to'g'ri munosabatda bo'lish juda muhim ahamiyatga ega. Bola ulg'aygan sari kattalar buyrug'ini yoqtirmaydigan bo'lib boradi. Bu buyruq ko'pincha qarshilik ko'rsatish, hatto oqilona talablarni bajarishdan bosh tortish holatlarini ham keltirib chiqaradi. Shunday paytlarda bolaga muomala tarzini o'rgatish lozim. Buyruq berish o'rniga ishortirish usulini qo'llash kerak, toki ana shu bola shu ishni qilishni shartligini tushunsin. Agar katta yoshdagi bolaga pand-nasihat qilinaversa uning g'ashiga tegishi mumkin. Shunday hollarda pedagogik usulga murojat qilinsa yanada yaxshi bo'ladi. Kuzatishdan ma'lum bo'lishicha bolaga ota-onalarnig yoki oilaning katta a'zolarini hadeb nasihat qilaverishi ham ma'qul emas ekan. Buning o'rniga u bilan hamfikir, do'st kabi munosabatda bo'lish yaxshi samara berar ekan. Ba'zan ota-ona va bola o'rtasida voqealar bo'lib o'tadi. Shunday paytlarda ilgari bo'lib o'tgan ko'ngilsizlikni gapirib ko'ngilni g'ash qilmaslik lozim. Xalqimiz milliy urf-odatiga ko'ra ko'pincha bolalarning tabiatiga baho berilganda uning ota-onasidagi mavjud xislatlariga nisbat berib baholanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. I.A. Karimov. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch – T.: Ma'naviyat, 2008
2. Inomova K.M. Oilada bolalarning ma'naviy–axloqiy tarbiyasi. Toshkent. Fan. 1999 y.
3. www.ziyouz.com

To'liqinboyeva MahliyoXon
Farg'ona davlat universiteti talabasi
(Fergana, Uzbekistan)

YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBİYALASHNING PSIXOLOGIK – PEDAGOGIK AHAMIYATI

Annotatsiya. *Ushbu maqola yoshlarni ma'naviy – axloqiy tarbiyasi tizimida Vatan tuyg'usi, vatanparvarlik his-tuyg'ularini shakllantirishga qaratilgan. Vatanparvarlik kishilarning eng qadimiy va asrlar davomida sayqal topgan tuyg'ularidan biri bo'lib, hamma vaqt konkret –ijtimoiy psixologik mazmunga, o'ziga xoslikka ega.*

Kalit so'zlar: *Vatanparvarlik, yoshlar, vatan tuyg'usi, kelajak, tarbiyalash, qadriyat.*

Mustaqil O'zbekistonning kelajagi, ko'p jihatdan, barkamol avlod tarbiyasiga bog'liq. Insonning ma'naviy yetukligi undagi vatanparvarlik, insonparvarlik va mehr – muhabbat qadriyatlarining shakllanishi zahirida paydo bo'luvchi, shakl-lanuvchi va shaxs ma'naviyatini belgilovchi qadriyatlar bilan belgilanadi. Birinchi prezidentimiz I.A. Karimov vatanparvarlik va insonparvarlik qadriyat-larini yoshlarimiz tarbiyasiga singdirib borish kerakligini uqtirib: "Avvalambor bizning tayanchimiz va suvanchimiz, umidimiz va kelajagimiz bo'lmish farzandlarimizni, yosh avlodni Vatan va insonparvarlik tuyg'usi va maqsadi ruhida tarbiyalashimiz ham qarz, ham farzdir",- deya ta'kidlaganlar. Yoshlarda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirishning ijtimoiy – psixologik xususiyatlarining psixologik diagnostikasi natijalari asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. E. Yusupov o'zining "Inson kamolotining ma'naviy asoslari " nomli asarida "vatanparvarlik" tushunchasini sharhladi. Muallifning fikricha, "vatanparvarlik – o'z taqdirini vatan, millat taqdiri bilan bog'lagan barcha kishilarga xos fazilat. Millat taraqqiyotining imkoniyatlari, shon – shuhrati, obro – e'tibori ham shu millat kishilaridagi vatanparvarlik qadriyatla-rining shakllanganlik darajasi bilan bog'liqdir". Yoshlarda vatanparvarlik ruhini shakllantirish jarayonida ulardagi kelajakka bo'lgan ishonch,istiqbolli rejalar tuzish va intilish hisslarini uyg'otadi.

Vatanparvarlik qadriyatlarini tarbiyalashda yoshlarda emotsional tuyg'ularni shakllantirishga imkon beradigan, xis etiladigan, ko'rgazmali materialning o'rne kattadir. Xozirgi davr o'smir yoshlarida vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirish sohasida psixologlar oldida turgan asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

1. Yoshlarda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirish muammosini o'rganishda ijtimoiy yondashish lozimligi.
2. Yosh avlodni har jihatdan rivojlanib borishini tahlil qilish.
3. O'quv mashg'ulotlarini olib borishda o'smirlarning yoshi, tafakkuri va qiziqishlarini hisobga olish.
4. Har bir o'smirning jamiyatimizning to'laqonli a'zosi ekanligini esda tutgan holda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirish bo'yicha olib boriladigan targ'ibot – tashviqot ishlarini amalga oshirish.

Yoshlarda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirish o'ta mas'uliyatli vazifa bo'lib, bu ish bevosita tarbiyachi - o'qituvchilardan o'ta yuksak pedagogik mahoratni, psixologik savodxonlik darajasini talab etadi.

Vatanparvarlik ruhni rivojlantirishda mahallaning o'rni va roli alohida aha-miyatga egadir. O'zbek mahallalari azaldan milliy qadriyatlar maskani bo'lib kelgan. Yoshlarda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllanishi, ularning oila va maxalla manfaatlarini o'zaro mutanosiblikda idrok etishlari asosida tarkib topishi zarur. Zero xalqimizda "Qo'shning tinch - sen tinch" maqoli bejiz aytilmagan.

"Vatan", "Vatanparvarlik" deganda biz nimani tushunamiz?

"Vatan" –bu ming yillar mobaynida sayqallanib, kishilar ruxiga ilhom beruvchi, mard o'g'lonlarni jasoratga, kerak bo'lsa ona - zamin uchun jonlarni fido etishga undovchi muqaddas bir tuyg'udir. Har bir insonning Vatanga bo'lgan muhabbati ona suti, ona allasi va ota – ona mehri bilan uning vujudiga singib boradi. Zero, hech bir inson Vatandan tashqarida baxt – saodat topa olmaydi. Vatan ham, Vatanga muhabat tuyg'usi ham ilohiy tuyg'u bo'lib, butun qon tomirlarida shu tuyg'u jo'sh urgan insonda vatanfurushlik, vatanga xiyonatdek jirkanch tuyg'ular xech qachon bo'lmaydi.

Istiqlolni ximoyalash, uni qadrlash, ulug'lash va unga xizmat qilish milliy ongimizga, aqidamizga aylansagina, bizni tanlagan yo'limizdan xech qanday kuch qaytarolmaydi, qaddimizni bukolmaydi. Bu g'oyalar bizlarga "Vatanparvarlik" so'zi qanday mazmunga, mohiyatga ega ekanligini, "Vatanparvar" qanday bo'lishi kerakligini to'la – to'kis ochib beradi.

Biz "Vatanparvar", "Millatsevar" dega so'zlarni eshitganimizda beixtiyor ko'z oldimizga buyuk ajdodlarimiz bo'lmish Shiroq, To'maris, Alpomish, Jaloliddin Manguberdi va buyuk sohibqiron Amir Temur qiyofalari gavdalanadi. Biz ham ular singari Vatan uchun, o'zbek xalqi uchun munosib avlod bo'lishga xarakat qilamiz.

Yaqin o'tmishimizdan, sho'rolar xukumati vaqtida yashab o'tgan millatimiz-ning asl o'g'lonlari Usmon Nosir, Fitrat, Cho'lpon va boshqa buyuk siymolar oldida bosh egamiz. Ularning vatanparvarligi, jasurligi, o'zbek xalqining yorqin kelajagi uchun jonlarini fido etganliklari, ularni millat ravnaqi uchun yashab, kurashib o'tgan xayotlari biz yosh avlod uchun bir xayot maktabi – vatanparvarlik maktabi bo'lib qoladi.

Yoshlarni xarbiy - vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning maqsadi yoshlarda jamiyatning turli tarmoqlari, ayniqsa, xarbiy soha bilan aloqador bo'lgan davlat xizmati turlarida faollik ko'rsatish, tinch va xarbiy sharoitda Konstitutsiya va harbiy burchga sadoqatli bo'lish, ularda o'z yurti va xalqi taqdiri uchun yuksak mas'uliyat va javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni shakllantirishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 – yil 23- fevraldagi 140- sonli qaroriga asosan mamlakatimizda "Yoshlarni xarbiy- vatanparvarlik ruxida tarbiyalash" konsepsiyasi qabul qilindi.

Xarbiy Vatanparvarlik tarbiyasining eng asosiy vazifalari:

Yoshlarni Vatanga muhabbat;

O'zbekiston Qurolli Kuchlariga xurmat va sadoqat;

Ajdodlarimizning mehnat va an'alariga sodiqlik;

Yoshlarda xarbiy kasblarga, Qurolli Kuchlar safida xizmat qilishdek sharaflı burchga qiziqish uyg'otish kabi vazifalardan iborat.

Yoshlarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasi milliy mafkuraga asoslanib, jangovor, hujumkor xususiyatlarga ega bo'lishi, yoshlarni Vatan ximoyasiga tayyorlash borasida uchrayotgan barcha kamchiliklarni qat'iy ochib tashlashi va ularni tuzatish tadbirlarini ishlab chiqishi kerak.

Xulosa shuki, xarbiy – vatanparvarlik tarbiyasi jarayonida, yoshlar o'z Vatanlari va xalqining o'tmishi naqadar buyuk bo'lganligini yaxshi bilishi va tushunib olishlari kerak. Biz kelajagi buyuk - O'zbekistoni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, o'lkamizning ana shu buyuk o'tmishi bizga katta ishonch, intilish, qobiliyat va kuch – quvvat baxsh etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" T.: "Ma'naviyat". 2008. 176 b
2. Karimov I.A. "Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori". T.: "O'zbekiston". 1998 – yil.
3. Karimov I.A. "Xotira va qadrlash muqaddas ma'naviy tuyg'u", T.: 1999 y
4. "Xarbiy – vatanparvarlik tarbiyasi asoslari". O'quv qo'llanma. Farg'ona-2020 y 6-10-16- bet
5. Ruvinskiy P.I. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. - T: 1991 y
6. Karimova V.M "Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot" Toshkent. 1999 y
7. Petrovskiy A.V. "Umumiy psixologiya" Toshkent. 1992.

Internet materiallari

1. www.ziyounet.uz
2. www.pedagog.uz.

Valixanova N.A.
(Andijon, Uzbekistan)

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. Kompetentli yondashuv o'qitish uslubini yanada aniqroq, maqsadga muvofiq, bir vaqtda uning amaliy (kasbga) yo'naltirilganligini kuchaytirish imkonini beradi. Hozirgi davrda mutaxassisning kasbiy faoliyatini samarali tashkil etishi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining funksional imkoniyatlaridan to'laonli xabardorligi, ulardan kasbiy maqsadlarni amalga oshirish yo'lida samarali foydalana olish, ijod mahsulini yaratish qobiliyati bilan bog'liqdir.

Kalit so'zlar: kompetensiyaviy yondashuv, kompetensiya, kompetentlik, axborot, kommunikativlik, axborot texnologiyalari, axborot muhiti.

Аннотация. Компетентный подход позволяет сделать метод обучения более точным, целенаправленным и в то же практическую (профессиональную) направленность. В настоящее время эффективная организация профессиональной деятельности специалиста связана с полным осознанием функциональных возможностей информационно-коммуникационных технологий, умением эффективно их использовать в достижении профессиональных целей, умением создавать креативные продукты.

Ключевые слова: компетентный подход, компетентность, информация, коммуникативный, информационные технологии, информационная среда.

Annotation. A competent approach allows the teaching method to be more precise, purposeful, and at the same time to strengthen its practical (professional) orientation. At present, the effective organization of professional activity of a specialist is associated with a full awareness of the functional capabilities of information and communication technologies, the ability to use them effectively in the pursuit of professional goals, the ability to create creative products.

Key words: competency approach, competence, information, communicative, information technology, information environment.

Kompetensiyaviy ta'lim («ta'limda kompetensiyaviy yondashuv») – murakkab va ziddiyatli mavzu bo'lib, bugungi kunda muammoga doir nashr ishlarining o'sib borayotganligiga qaramay, yetarlicha o'rganilmagan hisoblanadi. Kompetensiyaviy ta'limni o'rganishda kompetensiya va kompetentlik tushunchalarining mazmun-mohiyatini o'rganishni taqozo etadi.

Kompetensiya – u yoki bu soha bo'yicha bilimdonlik. “*Kompetensiya*” (lot. competo - erishayapman, munosibman, loyiqman) – 1) muayyan davlat organi (mahalliy o'zini o'zi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; 2) u yoki bu sohadagi bilimlar, tajriba. [5]

Kompetensiya – bu shunday bilimlar, ko'nikmalar, malakalar, sabab omillari, shaxsiy sifatlar, maqsadli vaziyatlarning umumiy uyg'unligi bo'lib, qaysikim aniq tashkilot, aniq guruh, aniq ish joyida, aniq ishlab chiqarish jamoasi ijrochilarining samarali yechimlarini ta'minlab beradi.

Kompetensiya tushunchasini kompetentlik tushunchasidan farqlash lozim. *Kompetentlik* tushunchasi deganda ma'lum bir sohada talaba (masalan, bo'lajak o'qituvchi) tomonidan egallangan kompetensiya, ya'ni ma'lum bir sifatlarning to'liq shakllangan majmui tushuniladi. Kompetentlik tushunchasi (lotinchadan *competentia*, *competere* so'zidan olingan bo'lib – birgalikda erishaman, qozonaman, mos kelaman, to'g'ri kelaman" degan ma'noni beradi) lug'atlarda esa "nimadir to'g'risida fikr yuritishga yo'l beradigan bilimlarga ega bo'lish", "xabardor bo'lmoq, huquqli bo'lmoq" degan ma'noni bildiradi. Amalda barcha lug'at tuzuvchilar "kompetentlik" va "kompetensiya" kategoriyalarini chegaralab qo'yadi. Kompetentlik ta'rifi o'xshash va bir-birini o'rnini egallaydi (to'ldiradi), shu bilan bir vaqtda kompetensiya so'zi uchun yagona izohlash yo'q, bu tushuncha "vakolatlar yig'indisi (huquq va majburiyatlar) qandaydir organ yoki lavozimli shaxsning qonun, nizomlar bilan belgilab qo'yilgan ushbu organ yoki boshqa holatlar", "nimanidir to'g'risida fikr yuritishga yo'l beradigan bilimlarga ega bo'lish (egalik qilish)", "kimdir yaxshi xabardor bo'lgan savollar to'plami (sohasi)" tushuniladi [1].

Kompetentlik – bu kasbiy faoliyatning mohiyatini tashkil etadigan funksional vazifalarni hal qilishga imkon beradigan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlarining tizimli namoyon bo'lishi bo'lgan faoliyat subyekting yangi shakllanishi [7].

Kompetentli yondashuv quyidagi vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

ta'lim oluvchilarning o'z maqsadlari bilan pedagoglarga qo'yilgan, ta'lim maqsadini muvofiqlashtirish;

o'qishda ta'lim oluvchilarning mas'uliyatligi va mustaqilligini oshirish hisobiga pedagogning mehnatini yengillashtirish;

ta'lim mazmunini mexanik qisqartirish hisobi emas, balki individual mustaqil ta'lim ulushini oshirish hisobiga ta'lim oluvchilarni ishini yengillatish;

o'quv va tarbiyaviy jarayonlar birligini nazariyotda emas, balki amaliyotda ta'minlash;

ta'lim oluvchilarni ongli va mas'uliyatli ta'limga tayyorlash.

Kompetentli yondashuv pedagogik nazariya va ta'lim amaliyoti uchun prinsipial jihatdan qanday yangilik beradi? *Birinchidan*, kompetentli yondashuv boshqaruv va ta'lim jarayonlarini loyihalashda didaktik shartlar chegaralarining ancha aniq bo'lgan o'zaro aloqasini ta'minlaydi va osonlashtiradi. *Ikkinchidan*, gnoseologik jihatdan kompetentli yondashuv o'qitishning metodik tizimi qismlari bo'lgan maqsad, mazmun va jarayonlarni samarali, mazmunli va instrumental jihatdan bog'laydi. *Uchinchidan*, kompetentli yondashuv ta'lim jarayoni maqsadi va mazmunini kadrlarga bo'lgan talab va o'zgarib boruvchi mehnat bozoriga aniq ta'sir etishini ta'minlaydi. *To'rtinchidan*, kompetentli yondashuv tizimning ba'zi qismlarida yaqqol ko'rinuvchi alohida kompetensiyalar yig'indisi sifatida kasbiy kompetentlikning umumiy maqsadini mazmunan, mantiqan va asosli ravishda batafsil tekshirish va izohlash imkonini beradi. *Beshinchidan*, kompetentli yondashuv o'qitish uslubini yanada aniqroq, maqsadga muvofiq, bir vaqtda uning amaliy (kasbga) yo'naltirilganligini kuchaytirish imkonini beradi. *Oltinchidan*, kompetentli yondashuv kasbiy fanlar bo'yicha o'quv jarayonlarini loyihalashda o'quv jarayoni maqsadlarini tuzish va aniq ifoda qilish jarayonining o'zini keskin o'zgartirishi,

ta'limni yanada sifatli, samarali, boshqariluvchan qilishi mumkin. *Oltinchidan*, kompetentli yondashuv kasbiy fanlar bo'yicha o'quv jarayonlarini loyihalashda o'quv jarayoni maqsadlarini tuzish va aniq ifoda qilish jarayonining o'zini keskin o'zgartirishi, ta'limni yanada sifatli, samarali, boshqariluvchan qilishi mumkin. *Yettinchidan*, aslida kasbiy kompetentlikni va alohida kompetensiyalarni hisobga olib o'quv jarayoni maqsadlarni tuzishda, kompetentli yondashuvni amalga oshiruvchi yangi didaktik vositalar ajralib turadi. *Sakkizinchidan*, kompetentli yondashuv o'zida ta'lim jarayonining yetarlicha kuchli bo'lgan motivatsion tashkil etuvchilarni namoyon etadi [6].

“Kommunikatsiya” – xabar yetkazish yo'li, o'zaro aloqa shakli, muloqot hodisasi ma'nolarini anglatib, muloqotning turli axborot vositalari yordamida amalga oshirilishini anglatga, kommunikativlik shaxsning muloqotni amalga oshirishga yordam beradigan xislati sanaladi.

Axborot-kommunikativ kompetentlik – mutaxassisning kasbiy faoliyatni samarali tashkil etish ko'nikma, malaka, tajribalarini o'zlashtirishi (motivatsion daraja), axborot-kommunikatsiya texnologiyaning funksional imkoniyatlaridan to'laqonli xabardorligi (kognitiv daraja), ulardan kasbiy maqsadlarni amalga oshirish yo'lida samarali foydalana olish, ijod mahsulini yaratish (faoliyatli-refleksiv daraja) qobiliyati. Ta'rif turli sohalarida faoliyat yurituvchi mutaxassislarning umumiy kasbiy sifatlaridan birini anglatadi. Unga tayangan holda, “pedagogning axborot-kommunikativ kompetentligi” tushunchasini sharhlash imkoniyati yuzaga keladi. Pedagogning axborot-kommunikativ kompetentligi – pedagogning kasbiy faoliyatni samarali tashkil etish ko'nikma, malaka, tajribalarini o'zlashtirishi (motivatsion daraja), axborot-kommunikatsiya texnologiyaning funksional imkoniyatlaridan to'laqonli xabardorligi (kognitiv daraja), ulardan pedagogik maqsadlarni amalga oshirish yo'lida samarali foydalana olish, ijod mahsulini yaratish (faoliyatli-refleksiv daraja) qobiliyati.

Axborot texnologiyalari – 1) axborotlarni izlash, yig'ish, saqlash, qayta ishlash, taqdim etish va tarqatish jarayonlari, metodlari hamda ushbu jarayonlarni amalga oshirish, metodlardan foydalanish vositalari; 2) ma'lumotlar yig'ish, saqlash, qayta ishlash hamda ma'lumotlardan foydalanishda hisoblash texnikasi vositalaridan foydalanish metodlari, vositalari va usullari; 3) axborotni yig'ish, qayta ishlash, saqlash va tarqatish uchun zarur bo'lgan resurslar. Til iste'molida “axborot texnologiyalari” tushunchasi “axborot-kommunikatsion texnologiyalar” sifatida ham qo'llaniladi. Ushbu vositalar yordamida ma'lumotlar, matnlar, grafiklar, bilimlar va moddiy borliq obyektlari to'g'risidagi axborotlar yig'iladi, saralanadi, qayta ishlanadi, saqlanadi va tarqatiladi. Axborot texnologiyalari o'tgan asrning 60-70 yillarida yaratilgan bo'lib, bugungi kunda axborot muhitining yetakchi vositalari sanaladi. Ushbu texnologiyalarning asosiy belgilari axborotni kompyuter yordamida qayta ishlash, axborot tashuvchilar (disketa, disk (CD, DVD, hard disk), flesh karta (USB card) va b.)da katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlash, shuningdek, har qanday masofaga qisqa muddatda zarur ma'lumot (axborot)ni yetkazib berish sanaladi.

AKTlari muhitida tashkil etilgan malaka oshirish jarayonlarida ta'lim oluvchilarning o'z-o'ziga ta'lim va o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyati ortadi, ijodiy qobiliyatlar, axborotni mustaqil izlash va yangi bilim olish, olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash qobiliyatlari rivojlanadi. Bunda ta'lim oluvchilarning kommunikativ kompetentligini, o'z-o'zini taqdim qilish qobiliyatini rivojlantirish; variativlikni ta'minlash; to'laqonli mustaqil ishlashi uchun sharoit yaratish (ularni

bilish, o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'ziga ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish; tez o'zgarayotgan sharoitlarda ta'lim oluvchilarning mobiligi va moslashuvchanligini oshirish imkonini beradi.

“Kommunikatsiya” va “muloqot” tushunchalarini ajratish shu darajada qiyinki, tadqiqotchi V.M. Kurbatov bu haqda mulohaza yuritib, o'zining quyidagi ikki ta'rifini taklif qiladi: “Kommunikatsiya – muloqot akti, ikki va undan ortiq individlar aloqasi, bitta inson tomonidan boshqasiga ma'lumotni yetkazish. Torroq ma'noda – yuboruvchidan oluvchiga (kommunikatordan retsipiyentga) ma'lumot uzatish jarayoni” sanaladi [3].

Pedagog shaxsining kommunikativ kompetentligi o'z mohiyatiga ko'ra shakllanish va yanada rivojlanish jarayoni asosini shaxslararo muloqotda to'plagan katta tajriba va mos ravishdagi hamkorlik tashkil qiladi. Tadqiq qilinayotgan kommunikativ kompetentlikning manbalari quyidagilar:

 xalq tomonidan insonlarning o'zaro tushunishiga oid to'plangan ijtimoiy-madaniy tajribasi;

 mukammal muloqot olib borish uchun chet tillarni ham bilish;

 maishiy sohada ham shaxslararo muloqotga doir tajribaga ega bo'lish;

 estetik idrok qilish tajribasiga ega bo'lish.

Shundan kelib chiqib, kommunikativ kompetentlik, eng avvalo, pedagogning zaruriy muloqotning tajribasiga egalik darajasini ifodalaydi.

Kompetensiya o'z bilimlarini tinmay boyitib borish, yangi axborotlarni o'rganish, shu kun va davr talablarini his etishni, yangi bilimlarni izlab topish mahoratini, ularni qayta ishlash hamda o'z amaliy faoliyatida qo'llashni talab qiladi. Kompetensiya egasi bo'lgan mutaxassis muammolarni yechishda o'zi o'zlashtirib olgan, aynan shu sharoitga mos metod va yo'llardan foydalanishni yaxshi bilishi, hozirgi vaziyatga munosib bo'lgan metodlarni tanlab olib qo'llashi, to'g'ri kelmaydiganlarini rad etishi, masalaga tanqidiy ko'z bilan qarashi kabi ko'nikmalarga ega bo'ladi [4].

O.A. Qo'ysinov axborot sohasidagi kompetensiyalarni quyidagicha izohlagan:

 axborot sohasidagi kompetensiya – yangi axborot va telekommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyatini tushunish, ularni egallash va o'z o'rnida qo'llay bilish, turli axborot manbalaridan foydalana olish, yaxlit axborot muhitida ishlashga tayyorlik, axborotga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'la olishni va hokazolarni ta'minlaydi;

 axborot kompetentligi – keng axborot maydonida erkin harakatlana olish

 axborot texnologiyasi – axborotni tezkor qabul qilish va qo'llashni, ta'lim muassasasi jamoasining faoliyatini jadallashtirishni ta'minlaydi [8].

Kommunikativ ko'nikmalar:

 muammo va masalalar shartini shakllantirish;

 amalga oshirilgan tadbir yuzasidan hisobot tayyorlash;

 axborotlarni tanqidiy tahlil qilish;

 axborotlarni uzatishda yordamchi vositalardan foydalanish va h.k. [8].

Globallashuv hamda integratsiyalashuv jarayonlari kechayotgan bugungi zamonaviy jamiyat hayotida ro'y berayotgan izchil o'zgarishlar, global axborotlashtirish jarayonlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ning doimiy taraqqiyoti insoniyat faoliyatining barcha sohalariga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Aloqa tizimlari va kompyuter texnikasining

integratsiyalashuvi, kommunikatsiya tizimlarining rivojlanishi, Internet imkoniyatlari axborotni real vaqtda ko'pchilikka va ko'p xududga qulay yetkazish, saqlash, raqamli ovoz, tasvir, yozuv axborotlarini qayta ishlash bilan birga qayta aloqani amalga oshirish, virtual muloqotni hosil qilishdagi texnik va texnologik yechimlar masofadan o'qitishni yangi bosqichga ko'tardi.

U.Begimqulov ta'limni axborotlashtirish deganda, ta'lim-tarbiyaning psixologik-pedagogik maqsadlarini amalga oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, ta'lim tizimini elektron axborot-ta'lim muhitini tashkil etish, ta'lim sohasining elektron-ta'lim resurslarini yaratish, kompyuter texnologiyalarini joriy qilish amaliyoti va metodologiyasi bilan ta'minlash nazarda tutilishini ta'kidlaydi [2].

Ta'limni axborotlashtirishning maqsadi axborot va telekommunikatsion texnologiyalarni qo'llash hisobiga intellektual faoliyatni global jadallashtirishdan iborat. Ushbu muammolarni hal qilish doirasida texnologiyalar va axborotlashtirish vositalarini bir tizimga birlashtirishning pedagogik, metodik va texnologik asoslarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan tadqiqotlar o'tkazish lozim. Bunday tizim sifatida axborot-ta'lim muhiti taklif qilinishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Asadov Y.M., Turdiev N.Sh., Akbarova S.N., Temirov D.Sh., Babadjonov S. O'quvchilarda kompetentsiyalarning shakllanganligini tashxislash va korrektsiyalash metodikalari. Uslubiy qo'llanma. – T.: T.N. Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti, 2016. – 160 b.
2. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: Dis.... ped. fan. dok. – T.: TDPU, 2007. – 305 b.
3. Курбатов В.И. Искусство управлять общением. – Феникс, 1997. – 347 с.
4. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. – T.: Fan, 2004. – 127 b.
5. Наин А.Я. Проблемы развития профессионального образования: региональный аспект. – Челябинск, 1998. – 264 с.
6. Чошанов М.А. Гибкая технология проблемно-модульного обучения: Методическое пособие. – М.: Народное образование, 1996. –160 с.
7. Shadrikov V.D. O'qitishdagi asosiy kompetentsiyalar // Sibir o'qituvchisi. – 2007. – № 6. – S. 5.
8. Qo'ysinov O.A. Kompetentli yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari Dis.... ped. fan. dok.(DSc) – T.: 2019. 80-b.

Xudayberganov Shuhrat Shavkat o'g'li
o'qituvchi
UrDU,

Abdullayeva Rayxon Atanazarovna
uslubchi

Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi
(Urganch, O'zbekistan)

**YOSH AVLOD TAFAKKURINI SOG'LOMLASHTIRISH KELGUSI JAMIYATNING
SOG'LOMLIGINI TA'MINLOVCHI OMIL SIFATIDA**

*“....«Biz yurtimizda qanday islohotlarga qo'l urmaylik,
avvalo, siz kabi yoshlarga, sizlarning kuch-g'ayratingiz, azmu
shijoatingizga suyanamiz. Barchangiz yaxshi bilasiz, bugun o'z oldimizga ulkan
marralar qo'yganmiz.....”...¹
Sh. Mirziyoyev*

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini yuksaltirish, tafakkurini sog'lomlashtirish, komillik sari yetaklash, nosog'lom muxitdan sog'lom muxitga olib kirish kerakligi haqida batafsil yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Yoshlar ma'naviy qiyofasi, komil inson, sog'lom va nosog'lom muhit, yoshlar dunyoqarashi, sog'lom tafakkur, sog'lom jamiyat.

Аннотация. В статье подробно обсуждается необходимость поднять духовное мировоззрение молодых людей, улучшить их мышление, привести их к совершенству, вывести из нездоровой среды в здоровую.

Ключевые слова: Духовный образ молодежи, совершенный человек, здоровая и нездоровая окружающая среда, мировоззрение молодежи, здоровое мышление, здоровое общество.

Annotation. This article discusses in detail the need to raise the spiritual outlook of young people, to improve their thinking, to lead them to perfection, to move them from an unhealthy environment to a healthy one.

Key words: The spiritual image of young people, the perfect person, the healthy and unhealthy environment, the worldview of young people, healthy thinking, healthy society.

Mustaqillikni mustahkamlash jarayonida mustaqil fikrga, bilimli, chuqur tafakkurga ega bo'lgan yangi avlodni tarbiyalab yetishtirishda ulkan yutuqlarga erishganligimizni fikrimiz boshida e'tirof etib o'tishimiz kerak albatta.

¹ Sh. Mirziyoyev - "O'zbekiston Respublikasida 1-marta o'tkazilgan O'zbekiston yoshlari forumidagi tantanali marosimdagi ma'ruzasi." - T. 25.12.2020.

Mustaqillikni mustahkamlash uni jahonning eng rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olishi, yetishib kelayotgan yosh avlodni mustaqillik talablari asosida barkamol etib tarbiyalash jamiyatning kelgusi rivojini taminlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Chunki qaysi ijtimoiy-iqtisodiy yoki madaniy, ma'naviy va ma'rifiy muammolarning yechimiga nazar tashlamaylik, albatta bu jarayon kadrlarning bilimi, aql-zakovati, o'z sohasi bo'yicha bilimdonligi, ishbilarmonlik darajasi bilan bog'liqligini ko'ramiz. Shuning uchun ham asosiy e'tiborni shakllanib kelayotgan yoshlar tarbiyasiga qaratish shu kunning eng dolzarb va kechiktirib bo'lmaz vazifalaridan biri ekanligini anglashimiz lozim. Ma'naviy jixatdan rivojlangan insonni tarbiyalash, ta'lim va maorifni yuksaltirish, milliy uyg'onish g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish zarur.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Sh. Mirziyoyev tomonidan yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularning dunyoqarashini boyitish maqsadida beshta tashabbus bugun hayotimizga tadbiq qilinmoqda. Ushbu besh tashabbus mamlakatimizda yashayotgan barcha aholi, jumladan, yosh avlodning ma'naviyatini boyitish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishda dasturil amal bo'lib xizmat qiladi. Har qanday mushkulot va taxdidlarni ilm, ma'rifat, mutoala, shijoat, jismoniy baquvvatlik, sabr-bardosh bilan yengish mumkin, degan qat'iyatni yoshlarimizning ongiga singdiradi.

